

O‘ZBEKISTON TARIXI



Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8- sinfi uchun darslik

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 4-nashri

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT – 2019

UO'K: 94(575.1)(075.3)
KBK 63.3(50'
U 73

Respublika ta'lim markazi tarix fanlari ilmiy-metodik kengashining 2019-yil 4-martdagi birinchi sonli yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan.

Mualliflar:

**Usmon Jo'rayev, Qamar Usmonov,
Gulira'no Jo'rayeva, Naim Norqulov**

Taqrizchilar:

Y. Boltaboyev – Namangan davlat universiteti „Tarix“ kafedrası katta o'qituvchisi;
N. Hakimov – Respublika ta'lim markazi metodisti;
Z. Mirzayeva – Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 295-maktab tarix fani o'qituvchisi;
M. Majidova – Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 254-maktab tarix fani o'qituvchisi;

SHARTLI BELGILAR



– mavzu ustida mustaqil ishlash;



– savol va topshiriqlar;



– esda tuting;



– tarixiy sanalar;



– atamalar mazmuni;



– diqqat bilan o'qing.

Respublika maqsadli kitob jang'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-22-371-4

© U. Jo'rayev va b.
© „O'qituvchi“ NMIU, 2019

KIRISH

„Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi.“

Shavkat Mirziyoyev

Aziz o'quvchilar!

VIII sinf „O'zbekiston tarixi“ darsligi Sizga Vatanimizning XVI asrdan XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan tarixi haqida bilim beradi.

Tarixchi olimlar Vatanimiz tarixining bu davriga „So'nggi o'rta asrlar“ yoki „Uch xonliklar davri“ deb nom berishgan. Bu davr tariximizning eng murakkab, ziddiyatlarga to'la davridir. Chunki bir vaqtlar dunyoda mashhur bo'lgan, jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan Temuriylar davlati XVI asr boshlarida to'la barham topdi. Siz buning sabablarini VII sinf „O'zbekiston tarixi“ darsligidan bilib olgansiz. VIII sinfda ularni yana bir bor esga tushirasiz.

Temuriylar sulolasi hukmronligi barham topgach, yurtimizda shayboniylar sulolasi hukmronligi o'rnatildi. Mazkur sulola ishlab chiqarish, ilm-fan va madaniyat rivojida temuriylar davrida erishilgan ulkan yutuqlarni saqlab qola olmadilar. Shayboniylar hukmronligi davrida oliy hukmdor – xon davlat hududlarini sulola xonadoni a'zolariga yurt (udal) qilib bo'lib berdi. Bu esa oxir-oqibatda markaziy hokimiyatning zaiflashuviga, yurt hokimlari hokimiyatining kuchayishiga, siyosiy tarqoqlikning hukm surishiga olib keldi. Natijada, XVIII asr boshlarida Buxoro xonligi ikkiga bo'linib ketdi. Xonliklarda yuz bergan kuchli siyosiy tarqoqlik va markaziy hokimiyatning nihoyatda zaiflashuvi oxir-oqibatda dastlab shayboniylar, so'ng ashtarxoniyalar, Xiva xonligida esa arabshohiylar sulolasi hukmronligining barham topishiga olib keldi. Ularning o'rnida urug'-qabila (Buxoro xonligida o'zbeklarning mang'itlar qabilasi, Xiva xonligida qo'ng'irotlar qabilasi va Qo'qon xonligida minglar urug'i) sulolalari hukmronligi qaror topdi.

Bu hodisa bir tomondan urug'-qabila sulolalariga markazdan qochuvchi mahalliy hukmdorlarning qarshiligini sindirib markaziy ho-

kimiyatni kuchaytirishga imkon berdi. Ikkinchi tomondan esa bir xalqning uch davlatga bo'linib yashashiga olib keldi. Ya'ni bu uch o'zbek davlati aholisining katta qismini tashkil etuvchi o'zbeklar o'zlarining yagona o'zbek xalqiga mansubligini to'la his eta olmadi. Biroq yuqorida aytilgan fikrlardan XVI–XIX asr birinchi yarmigacha bo'lgan davrni qamrab oluvchi 350 yillik tariximiz faqat qorong'ilikdan iborat bo'lgan ekan, degan xulosa chiqarmasligimiz lozim. Zero, o'zbek davlatlarining taraqqiyotda orqada qolishi sabablarini faqat hukmdorlar yuritgan siyosatdangina izlash adolatsizlik bo'ladi. Chunki bu davrda faqat O'rta Osiyo emas, balki butun islom olami tushkunlik davrini boshdan kechirayotgan edi. Siz darslikdan bularning sabablarini bilib olasiz.

Shunday qiyinchiliklarga qaramay, ajdodlarimiz Yevroosiyo karvon savdosini rivojlantirdilar. Ayni paytda, dunyo ahlini hayratga soladigan darajada me'morchilik obidalarini bunyod etdilar.

Qo'lingizdagi darslik Sizni yuqorida qayd etilgan fikrlarning sabablari bilan tanishtiradi va Sizga XVI–XIX asr birinchi yarmida kechgan tariximizni puxta o'rganib olishga yordam beradi.

Darslikdan foydalanayotganingizda har bir mavzuni o'rganishda sizga yordam beruvchi belgilarga e'tibor bering. Ular sizga tarixiy bilimlarni puxta o'rganib olishingizda ko'makchi bo'ladi.



I BOB. XV ASRNING OXIRI – XVI ASRNING
BOSHLARIDA MOVAROUNNAHR VA
XUROSONDAGI SIYOSIY VAZIYAT

1-§. Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat

Dashti Qipchoq haqida XI asrdan boshlab arab va fors manbalarida „Dashti Qipchoq“ deb ataluvchi geografik hudud tilga olinadi. Bu atama Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyan-shanning g‘arbiy yonbag‘ridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar cho‘zilgan dashtlarga nisbatan ishlatilgan. Ural (Yoyiq) daryosi Dashti Qipchoqni sharqiy va g‘arbiy qismlarga ajratib turgan.



Bu hududlar rus manbalarida „*Poloveslar yeri*“ nomi bilan yuritilgan. Chunki ruslar Dashti Qipchoq aholisini poloveslar deb atashgan. Vizantiya manbalarida ular „*kumanlar*“, sharq manbalarida esa „*qipchoqlar*“ nomlari bilan qayd etilgan.

Dashti Qipchoqning sharqiy qismi aholisi o‘zbeklar deb atalgan. („O‘zbek“ atamasining ma‘nosini siz VII sinf „O‘zbekiston tarixi“ darsligidan bilib olgansiz.)

1240-yilda Chingizxonning nabirasi, Jo‘jixonning (Chingizxonning katta o‘g‘li) o‘g‘li Botuxon Oltin O‘rda xonligiga asos soldi. Bu davlat Jo‘ji ulusi deb ham ataladi. U Xorazm, Shimoliy Kavkaz, Volga bulg‘orlari yurti, Dashti Qipchoq, Qrim va G‘arbiy Sibir hududlarini o‘z ichiga olgan. Rus esa unga o‘lpon to‘lab turgan. Oltin O‘rda Jo‘jixonning o‘g‘illari o‘rtasida uluslarga bo‘linishi natijasida, Dashti Qipchoqning sharqiy qismi Jo‘jixonning beshinchi o‘g‘li Shaybonga tegdi.

**Sharqiy Dashti Qipchoqda
o‘zbek davlatining
tashkil topishi**

Vaqtlar o‘tishi bilan o‘zaro ichki nizolar natijasida Shaybon ulusida markaziy hokimiyat zaiflasha bordi. Oxir-oqibat ulus mayda-mayda qismlarga bo‘linib ketdi. Ayni paytda, toj-u taxt uchun o‘zaro kurash kuchaydi. Bu kurash, ayniqsa, ulusning Shaybon naslidan bo‘lgan hukmdori Davlatshayx 1425-yilda vafot etgach yanada avj oldi. Ana shunday og‘ir vaziyatda Davlatshayxning o‘g‘li Abulxayrxon siyosat maydoniga chiqdi. Abul-

xayrxon yosh bo'lishiga qaramay kuchli sarkardalik qobiliyatiga ega edi. Taxt uchun kurashda uni ulusdagi doimiy nizolardan aziyat chekayotgan boshqa o'zbek qabilalari hamda ruhoniylar qo'llab-quvvatladilar. Natijada, Abulxayrxon 1428-yilda „O'zbek ulusi“ deb atalgan davlatga asos soldi. Janubi-g'arbiy Sibirdagi Tura shahri bu davlatning poytaxti deb e'lon qilindi. 1431-yilda esa o'z davlatini Oltin O'rdadan mustaqil deb e'lon qildi. 1446-yilda esa Sirdaryo-ning o'rta oqimida joylashgan Sig'noq, Oqqo'rg'on, Arquq, O'zgan va Suzoq shaharlarini bosib oldi. Davlat poytaxtini esa Sig'noqqa ko'chirdi. Bu endi Abulxayrxonning temuriylarga qarshi kurashga kirishganligini anglatar edi. Temuriylar o'rtasida Samarqand taxti uchun kurash kuchaygan bir paytda Abulxayrxon vaziyatdan foydalanishga harakat qildi. U 1451-yilda o'zidan madad so'ragan temuriyzoda Abu Said Mirzoga Samarqand taxtini egallashda yordam berish bahonasida yurish boshladi. Abulxayrxon ko'rsatgan yordami evaziga kattadan katta sovg'alar bilan o'z yurtiga qaytdi. Minnatdorchilik tariqasida Abu Said Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sultonbegimni Abulxayrxonga nikohlab berdi.

1468-yilda Abulxayrxon vafot etgach, u tuzgan davlat parchalanib ketdi. Uning dushmanlari tomonidan Abulxayrxonning qarindoshlari va tarafdorlari qirg'in qilindi. Faqat nabiralari – aka-uka Muhammad Shayboniy va Mahmud Sulton, o'g'illari Ko'chkunchixon va Suyunchxo'jaxon kabi juda ozchilik omon qoldi.

Muhammad Shayboniy siyosiy kurash maydonida

Muhammad Shayboniy va uning ukasi Mahmud Sultonlar Abulxayrxonning o'g'li Shohbudog' Sultonning o'g'illari edi. Muhammad Shayboniy 1451-yilda tug'ilgan.

Otasi yosh vafot etgan edi. Shuning uchun ham bobosi Abulxayrxon ularning tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaradi. Uyg'ur qavmidan bo'lgan, Shohbudog' Sultonga otaliq qilgan amir Boyshayxni bu ikki shahzodalarga ham otaliq etib tayinladi. Shahzodalar o'z davrining yetuk shaxslari bo'lib yetishdilar.

Shayboniy va ukasi qochqinlik davrida Turkistondan boshpana topdilar. Keyinchalik ular Buxoroga keldilar. Shayboniy Buxoro madrasalarida ilm oldi. Iste'dodli shoir sifatida tanildi. Shayboniy Buxoroda ilm olishdan tashqari nufuzli davlat va din arboblari bilan yaqinlashib ham oldi. Uning ko'nglida bobosi Abulxayrxon davlatini tiklash orzusi jo'sh ura boshladi va Dashti Qipchoqqa yo'l

oldi. Bu davrda Dashti Qipchoqda toj-u taxt uchun ayovsiz kurash davom etardi. Aholining turli tabaqalari ulusda tinchlik o'rnatilishini xohlamoqda edi. Bu omil yaxshi harbiy ta'lim olgan, mustahkam intizomli yollanma qo'shin tuza olgan Shayboniyga juda qo'l keldi. Biroq qo'shinni saqlash katta xarajat talab qilar edi. Shuning uchun to'lov evaziga Movarounnahr va Xuroson temuriyzodalariga hamda Mo'g'uliston hukmdorlariga ichki raqiblariga qarshi kurashda harbiy yordam ko'rsata boshladi. Bu harbiy yurishlarda Shayboniy o'zining mohir lashkarboshilik qobiliyatini namoyon etdi.



Shayboniyxon

Turli temuriy hukmdorlarga xizmat qilish Shayboniyga Temuriylar davlatidagi vaziyatni yanada yaxshi bilib olishga imkon berdi.



Shayboniy bobosi Abulxayrxon vafotidan keyin parokanda bo'lib ketgan qabilalarni birlashtirdi va beayov kurashlar natijasida XV asrning 80-yillarida bobosi bunyod etgan O'zbek ulusi davlatini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi hamda xonlik taxtiga o'tirdi.

Vaqlar o'tib, Shayboniyxon Sirdaryo bo'ylaridagi qo'rg'onlarni ham egalladi. Bu qo'rg'onlar kelgusida unga Movarounnahrni istilo qilish uchun tayanch vazifasini o'tadi.



- 1428-yil – Sharqiy Dashti Qipchoqda O'zbek ulusi davlati tuzildi.
- 1451-yil – Muhammad Shayboniyxon tug'ildi.
- 1468-yil – O'zbek ulusi davlati parchalandi.
- 1480-yil – Muhammad Shayboniyxon bobosi bunyod etgan O'zbek ulusi davlatini qayta tikladi.



1. Dashti Qipchoq deyilganda qaysi geografik hudud tushuniladi?
2. Abulxayrxon qachon, qayerda va qanday davlatga asos soldi?
3. Abulxayrxonning temuriy hukmdorlar bilan siyosiy aloqasi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Qanday omillar Muhammad Shayboniyga Temuriylar davlatidagi ichki vaziyatni yaxshi bilib olishiga imkon berdi?

Mulohaza yuriting!

Nega Chingizxon avlodlari bora-bora turkiylashib ketgan?

2-§. Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat

Movarounnahrda temuriylar o'rtasidagi o'zaro kurash

Sizga VII sinf „O'zbekiston tarixi“ darsligidan ma'lumki, Amir Temur vafotidan so'ng toj-u taxt uchun olib borilgan kurashlarda oxir-oqibat uning kenja o'g'li Shohrux Mirzo g'olib chiqdi.

Shohrux Mirzo davrida Temuriylar saltanati amalda ikki mustaqil davlatga bo'lib boshqarildi. Ularning biri Xuroson (poytaxti Hirot), ikkinchisi esa Movarounnahr (poytaxti Samarqand) davlatlari edi. Xurosonda Shohrux Mirzo, Movarounnahrda esa o'g'li Mirzo Ulug'bek hukmronlik qildi.

Mirzo Ulug'bek o'limidan so'ng Movarounnahrda toj-u taxt uchun o'zaro kurash kuchaydi. Bu kurashda oxir-oqibat 1451-yilda Mironshohning nabirasi Sulton Abu Said Mirzo Abulxayrxon yordamida g'alaba qozondi.

1458-yilda Xuroson hukmdori Abulqosim Bobur vafot etgach Xurosonni ham egalladi. 1469-yilda Abu Said Mirzo avval temuriylar tasarrufida bo'lgan Eronning g'arbiy qismini egallab olgan oq qo'yunlilarga qarshi kurashda halok bo'ldi. Bu halokatdan so'ng Movarounnahr uning o'g'illari hukmdor bo'lgan amalda uch mustaqil davlatga bo'linib ketdi. Chunonchi, Samarqandda Sulton Ahmad, Farg'onada Umarshayx Mirzo, Hisor, Xuttalon va Badaxshonda Sulton Mahmud Mirzo hukmronlik qildilar. Shunday bo'lsa-da, Sulton Ahmad rasman Movarounnahr hukmdori hisoblanardi. Uning davrida aholi tinchlik va osoyishtalikda yashadi.

Uning vafotidan so'ng Movarounnahr taxtini ukasi Sulton Mahmud Mirzo, 1495-yilda esa o'g'li Boysung'ur Mirzo egalladi. Tez orada Movarounnahr taxti uchun kurashga Farg'ona hokimi Bobur Mirzo ham qo'shildi. U 1497-yilda Boysung'urni qal'aga yashirinishga majbur etdi. Bu vaqtda shahar ichida oziq-ovqat tanqisligi vujudga kelganligi tufayli Boysung'ur askarlari orasida parokandalik ro'y berdi. Qamalga bardosh berishga ko'zi yetmagan Boysung'ur Turkistonda (Yassida) turgan Shayboniyxondan yordam so'radi. Shayboniyxon qulay fursatdan foydalanib, tez orada Samarqandga kelib, Boburni sarosimaga solib qo'ydi. Buning ustiga Boburning askarlari sovuq tufayli tevarak-atrofdagi qishloqlarga tarqalib ketgan edi. Oz sonli askar bilan Shayboniyxonga yuzma-yuz kelish xatarli edi. Lekin bundan boshqa yo'l ham yo'q edi. Bobur bor askari bilan dushmanga qarshi

chiqishga majbur bo'ldi. Biroq kutilmaganda Shayboniyxon shahar ichkarisiga qarab yurdi, lekin Boysung'ur uni shaharga kiritmadi. Chunki Boysung'ur uni shahar tashqarisida bo'ladigan jangda ittifoqchi bo'lishga taklif qilgan edi. Bundan ranjigan Shayboniyxon Turkistonga qaytib ketdi.

Samarqand qamali 7 oydan ziyod davom etdi. Shayboniyxondan yordam ololmagan Boysung'ur qochib ketishga majbur bo'ldi. Bobur esa Samarqand taxtini egallashga muvaffaq bo'ldi. U bobosi Amir Temur taxtining sohibi deb e'lon qilindi. Biroq sohiblik uzoqqa cho'zilmadi. Bunga Boburning dushmanlari Farg'ona taxtiga ukasi Jahongirni o'tqazish uchun ko'targan isyon sabab bo'ldi. Vujudga kelgan harbiy-siyosiy tanglikni tushungan Bobur qanday bo'lmasin Farg'onada hokimiyatini saqlab qolishga qaror qildi va Samarqandga o'z beklaridan birini qo'yib Andijonga qaytishga majbur bo'ldi. Boburning yo'qligidan Boysung'urning ukasi Sulton Ali Mirzo foydalanib qoldi va 1498-yilda Movarounnahr taxtini egalladi. 1500-yilda aka-uka Bobur va Jahongir Mirzolar o'rtasida sulh tuzildi. Unga ko'ra, Sirdaryoning shimoliy tarafi Aysi shahri bilan Jahongirda va daryoning janubiy tomoni Andijon shahri bilan Boburda qoldi.

Xurosondagi siyosiy ahvol Amir Temurning to'rtinchi o'g'li, Xuroson hukmdori Shohrux Mirzo 1447-yili vafot etgach, toj-u taxt uchun kurash avjiga chiqdi. Natijada, Xuroson

davlati o'n bir qismga bo'linib ketdi. Ularning har biri amalda mustaqil davlatlar edi. Va nihoyat, 1458-yilda Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshohning nabirasi Sulton Abu Said Mirzo temuriylar davlatini bir qadar birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. 1469-yili Abu Said Mirzo halok bo'lgach, Amir Temurning ikkinchi o'g'li Umarshayxning nabirasi Sulton Husayn Boyqaro Xuroson taxtini egalladi. Salkam 40 yil hukmronlik qilgan Sulton Husayn Boyqaro davrida ham mamlakatda to'la osoyishtalik o'rnatilmadi. Shunday bo'lsa-da, Xuroson davlatining xo'jalik va madaniy hayoti ancha yuksaldi. Mamlakat obodonchiligi yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. Movarounnahrda nisbatan siyosiy barqarorlik ta'minlandi. Bunda Husayn Boyqaroning hukmdorlik salohiyati muhim o'rin tutdi. Vazir Alisher Navoiyning xizmatlari ham benihoya katta bo'ldi. Biroq Husayn Boyqaro bilan o'g'li Badiuzzamon o'rtasidagi munosabatlarda keskinlik vujudga keldi. Bu holat ota va o'g'il o'rtasiga nizo urug'ini sochgan qora kuchlarning Badiuzzamonning 11 yoshli begunoh o'g'li,

komil nabira, Alisher Navoiy chuqur e'tiqod qo'ygan Mo'min Mirzoning qatl etilishiga erishganlaridan so'ng yanada kuchaydi. Qora kuchlarning maqsadi taxtga Boysung'urni emas, uning o'gay ukasi Muzaffar Husaynni o'tqazish edi.

Badiuzzamon oqil va tadbirkor, harbiy salohiyati yuqori, adolatpe-sha shahzoda edi. U o'z saroyida olimlar, shoirlar, ulamolar, san'atkorlarni yig'ib anjumanlar o'tkazardi. O'zi ham go'zal g'azallar bitardi. Ulug' Alisher Navoiy uning bu fazilatlariga juda yuqori baho bergan.

Otasi Sulton Husayn Boyqaroning Muzaffar Husayn Mirzoga no-haq yon bosishi, o'g'li Mo'min Mirzoning qatl etilishi oxir-oqibat Badiuzzamon va otasi o'rtasida urush keltirib chiqardi. Urushda Badiuzzamon yengildi. O'zaro qirg'inbarot urushlar oxir-oqibat sulh tuzish bilan yakunlandi. 1506-yilda Sulton Husayn Boyqaro vafot etdi. Shundan keyin mamlakatda qo'shhokimiyatchilik vujudga keldi. Badiuzzamon va Muzaffar Husaynlar bir vaqtda hukmdor deb e'lon qilindilar. Bu esa shuningsiz ham og'ir kunlarni kechirayotgan Xuroson davlatini parokandalikka olib keldi.

Temuriylar saltanatida boshlangan toj-u taxt uchun ayovsiz kurash oqibatida saltanat inqirozga yuz tutdi. Natijada, ko'pdan buyon Temuriylar saltanati hududlarini egallashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahr va Xurosonni egallab olishi uchun qulay sharoit vujudga keldi.



- 1447-yil – Shohrux Mirzo vafot etdi.
- 1458-yil – Sulton Abu Said Mirzo vaqtincha bo'lsa-da Temuriylar saltanatini birlashtirdi.
- 1506-yil – Husayn Boyqaro vafot etdi. Xurosonda qo'shhokimiyatchilik vujudga keldi.



1. Movarounnahrda temuriylar hukmronligining inqirozga yuz tutishiga nimalar sabab bo'ldi?
2. Bobur Mirzoning siyosiy kurash maydoniga chiqishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Xurosonda temuriylar hukmronligining zaiflashib qolishiga nimalar sabab bo'ldi?



Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy ahvolni taqqoslang. O'zaro o'xshash va o'ziga xos jihatlarni aniqlang hamda ularni yozma ravishda qayd eting.

3-§. Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shayboniyxon munosabatlari

Boburning siyosat maydoniga chiqishi

Avvalgi mavzuda ta'kidlanganidek, XVI asr bo'sag'asida Temuriylar davlati taxti uchun kurash maydoniga Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo ham chiqdi. Bobur Mirzo Sulton Abu Said Mirzoning nabirasi edi. U 1483-yilning 14-fevralida Andijon shahrida tug'ildi. Bolalik va yoshlik yillari Andijon va Axbi shaharlarida o'tdi. Otasi Umarshayx Mirzo (1455–1494) saroyida o'z davriga yarasha barcha zarur bilimlarni egalladi. Abu Said Mirzo o'g'li Umarshayx Mirzoni o'z hukmronligi davrida, dastlab Kobul viloyatiga, so'ng Farg'ona viloyatiga hokim etib tayinladi. Keyinchalik akasi Sulton Ahmad hukmronligi davrida Toshkent va Sayram ham Umarshayx Mirzoga berildi. Biroq o'zaro ichki kurashlar natijasida Umarshayx Mirzo qo'l ostida faqat Farg'ona, Xo'jand va O'ratepagina qoldi. Umarshayx Mirzo 1494-yilda baxtsiz hodisa tufayli halok bo'lgach, hokimiyat 12 yoshli o'g'li Bobur Mirzo qo'lga o'tdi.



Bobur yosh bo'lganligi uchun davlat ishlarini ishonchli beklardan Hojiqozi va o'qimishli, oqila onasi Qutlug' Nigorxonim yordamida boshqarardi.

Bobur Mirzoning siyosiy kurash maydoniga chiqishi Temuriylar saltanatida harbiy-siyosiy vaziyat nihoyatda og'irlashgan sharoitga to'g'ri keldi. U ham barcha taxt da'vogarlariga xos xususiyatlardan xoli emasdi. Uning orzusi ulug' bobosi Amir Temur saltanatining poytaxti bo'lmish Samarqand taxtini egallash edi.

Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahr uchun kurashga qo'shilishi

Shayboniyxonning asosiy maqsadi Temuriylar saltanatiga butunlay barham berish edi. Bobur Mirzo bilan uning o'rtasidagi munosabat Shayboniyxonning ana shu niyatini yaqqol ko'rsatib berdi. Onasining gapi bilan ish tutgan Movarounnahr hukmdori Sulton Ali Mirzoning kaltabinligi sababli Shayboniyxon 1500-yilda Samarqandni jangsiz egalladi. Bundan xabar topgan Bobur Mirzo qayg'uga botdi. Bu safar ham orada xiyonat borligi uni chuqur iztirobga soldi. Shayboniyxon Samarqandni egallagach, Sulton Ali Mirzoni qatl ettirdi.



Zahiriddin Muhammad
Bobur

Movarounnahrning nufuzli davlat arboblari shayxulislom Abulmakorim boshchiligida Bobur Mirzoni Samarqand taxtini egallashga da'vat etdilar. Sulolasi manfaatiga sadoqatli bo'lgan Bobur Mirzo 1500-yilning kuzida Samarqandga yurish boshladi va taxtni ikkinchi marta egalladi.

Bu paytda Shayboniyxon Samarqanddan tashqarida – Konigil (shahardan tashqaridagi hukmdorlar hordiq chiqaradigan joy)da turar edi.

Shayboniyxon bu voqeani eshitgach, bo'lajak hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rdi. Bobur Mirzo bu galgi urush hal qiluvchi urushligini bilib Andijon, Toshkent,

Hisor, Hirot va boshqa yerlarga yordam yuborishlarini so'rab elchilar yubordi. Biroq amakisi – Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaro va Qashqardagi tog'asi Sulton Mahmudxondan yordam kuchi kelmadi. 1501-yilda olti oylik qamaldan so'ng Shayboniyxon Bobur Mirzoga sulh taklif etdi. Bobur Mirzo hech qayerdan yordam ololmagach, noiloj, sulhga rozi bo'ldi. Sulh shartlari Bobur Mirzo uchun juda haqoratli bo'lsa-da, unga rozi bo'lmaslikdan boshqa chorasi yo'q edi.

Og'ir va nochor ahvolga tushib qolgan Bobur Mirzo Samarqandni tark etib, ko'p mashaqqatlarni boshdan kechirib, o'zga yurtlarga ketishga majbur bo'ldi. Bobur Mirzoning qizi Gulbadanbegim (1523–1603-yillarda yashagan) o'zining „Humoyunnoma“ asarida bu haqda quyidagilarni yozgan edi: „Xudoga tavakkal qilib Badaxshonot va Kobulga yuzlandilar“.

1504-yilda Kobul viloyatida (Kobul – hozirgi Afg'oniston davlatining poytaxti) o'z hokimiyatini o'rnatdi. Bu yerda mustaqil davlat tuzishga jadal kirishdi. Qattiq intizomga bo'ysunuvchi qo'shin tuzdi. Qurilish, obodonlashtirish ishlariga katta e'tibor berdi. Ko'plab bog'rog'lar yaratdi. Ularning ichida Bog'i Bobur ayniqsa mashhurdir.

Kobuldagi Bolo Hisor qal'asini o'zining qarorgohiga aylantirdi. Shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko'rish maqsadida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Bobur Mirzoni ham maslahat yig'iniga taklif

etganligi, uning yuksak nufuzga ega bo'lganligini tasdiqlaydi. Bobur Mirzo shu taklifga ko'ra Hirotga o'tlandi. Biroq Husayn Boyqaroning 1506-yilda to'satdan vafot etishi vaziyatni og'irlashtirdi. O'zaro nizolari kuchliligi tufayli temuriyzodalar dushmanga qarshi ittifoq tuza olmadilar. Bu esa oxir-oqibat Temuriylar saltanatining butunlay barham topishiga olib keldi.

Bobur Mirzo tariximizda buyuk shoir, Movarounnahrni shayboniylar istilosidan saqlab qolish yo'lida sobitlik bilan kurashgan hukmdor va sarkarda sifatida nom qoldirdi.



- 1494-yil – Bobur Mirzo Andijon taxtiga o'tqazildi.
- 1500-yil – Shayboniyxon Samarqandni egalladi.
- 1501-yil – Bobur Mirzo Shayboniyxondan yengildi.
- 1504-yil – Bobur Mirzo Kobulda o'z hokimiyatini o'rnatdi.



1. Bobur Mirzo qanday sharoitda siyosat maydoniga kirib keldi?
2. Nima uchun Muhammad Shayboniyxon g'alaba qozondi?

Mulohaza yuriting!

Temuriylar davlati qulamasligi mumkin edimi?

4-§. Movarounnahr va Xurosonda shayboniylar hukmronligining o'rnatilishi

Shayboniyxon hokimiyatining kuchayishi

Dashti Qipchoqdagi o'zbek qabilalarining rahnamolari Abulxayrxon vafotidan so'ng boshlangan o'zaro qirg'inlarning yana takrorlanishini aslo istamas edilar. Ularda Muhammad Shayboniyxonning qirg'inga yo'l qo'ymasligiga ishonch paydo bo'ldi.

Bundan tashqari, Dashti Qipchoqdagi o'zbek qabilalari ko'pdan buyon to'la o'troq tarzda yashashni umid qilib kelardilar. Bu umidning ushalishi o'zgalarning unumdor yerlari hisobiga ro'yobga chiqishi mumkin edi.

O'zbek qabilalarining sardorlari Muhammad Shayboniyxonni o'z umidlarini ro'yobga chiqarishga qodir birdan bir shaxs deb hisoblardilar. Shu bois ham ular va ruhoniylar Muhammad Shayboniyxonni qo'llab-quvvatladilar.

Ular yerlari unumdor, hunarmandchiligi rivojlangan o'lkalarda, birinchi navbatda, Movarounnahrda Muhammad Shayboniyxon hokimiyatining o'rnatilishi o'troq hayotga o'tish imkonini berishini ham yaxshi bilganlar. Bu omillar Muhammad Shayboniyxon hokimiyatining kuchayishiga yordam berdi. Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrda ichki siyosiy vaziyatni yaxshi bilganligi ham uning nufuzini yanada oshirdi. Ayni paytda, Movarounnahr aholisi temuriyzodalarning toj-u taxt uchun o'zaro kurashlaridan charchagan ham edi. Movarounnahr zodagonlari va hatto oddiy aholining ma'lum qismi ham Muhammad Shayboniyxon timsolida Movarounnahrda tinchlik o'rnatishga qodir yagona shaxsni ko'rdilar.

Shu tariqa, Muhammad Shayboniyxonning Temuriylar saltanati hududlarida ham o'z hokimiyatini o'rnatishi uchun barcha zarur shart-sharoit yaratildi.

Ayni paytda, Rossiyaning sharqqa qarab tobora kengayib borishi ham Shayboniyxonning Movarounnahrda yurishini tezlatib yubordi.

**Movarounnahrda
Shayboniyxon
hukmronligining
o'rnatilishi** Shayboniyxon Temuriylar saltanatiga butunlay barham berish maqsadida boshlagan harbiy yurishi paytida raqiblarini sarosimaga solib qo'ygan jang usuli – *to'lg'amani* qo'lladi. U Samarqandni dastlab 1500-yilda qisqa muddatga

bo'lsa-da egalladi va yangi o'zbek davlati – Shayboniy davlatiga asos soldi. 1501-yilda esa Samarqandni uzil-kesil bo'ysundirdi. Endi butun Movarounnahrni egallashga kirishdi.

1503-yilda Toshkent va Shohruxiya shaharlari egallanadi. Shayboniyxon Ulug'bek Mirzoning Abulxayrxonga uzatilgan qizi Robiya Sultonbegimning o'g'illari bo'lgan amakilari Ko'chkunchi Sultonni Turkistonga va uning ukasi Suyunchxo'ja Sultonni Toshkentga, o'zining ukasi Mahmud Sultonni Buxoro viloyatlariga hokim etib tayinladi.

1504-yilda esa Farg'ona egallandi. Shayboniyxonning harbiy yurishlarida eng faol qatnashgan amakisining o'g'li Jonibek Sultonga Axi va Andijonni tortiq qildi.

Jonibek Sulton Abulxayrxonning boshqa bir o'g'li Xo'ja Mahmud Sultonning o'g'li edi.

Shu tariqa, butun Movarounnahrda shayboniy sulolasi hukmronligi o'rnatildi. Samarqand shahri esa poytaxt etib belgilandi.

Xorazm va Xurosonning egallanishi Movarounnahrda mustahkamlanib olgan Shayboniyxon 1505-yilda Xorazmga yurish qildi va uni ham egalladi.

1505-yilning kuzida esa Xurosonga yurish boshladi. So'nggi yillarda o'zaro ichki nizolar oqibatida inqirozga yuz tutgan temuriylarning Xuroson davlatini egallash Shayboniyxon uchun qiyin kechmadi. 1506-yilda Balx, 1507-yilda esa Hirot egallandi. Shundan so'ng Hirot o'zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatidagi nufuzini yo'qotdi.

Xurosonning ham bo'ysundirilishi bilan amalda Shayboniyxon butun mintaqani yagona bir markaz – Samarqand qo'l ostida birlashtira oldi va temuriyzodalar amalga oshira olmagan ishni bajardi. Bu uning davlatchiligimiz oldidagi xizmatidir. Shu tariqa, Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni o'z ichiga olgan hududda Shayboniyxon hukmronligi o'rnatildi va shayboniylar sulolasi hukmronligi davri boshlandi.

Etnik jarayon Siz VII sinfda bilib olganingizdek, Movarounnahr va Xorazmda o'zbek xalqi IX–XII asrlarda shakllangan. To'g'ri, bu hududlarda yashagan ajdodlarimiz XVI asrgacha o'zbeklar deb atalmaganlar. Qadim-qadimdan tarixiy turkiy etnik guruhlar nafaqat bizning ona zaminimizda, balki boshqa o'lkalarda, shu jumladan, Dashti Qipchoqda ham uzoq yillar davomida yashab keldilar. Dashti Qipchoqni XIII asr boshlarida zabt etgan mo'g'ullar bora-bora bu o'lkada yashovchi turkiy qabilalar tarkibiga singib ketdilar va o'z milliyligini yo'qotdilar. Shayboniylar yurtimizni egallagach esa Dashti Qipchoqda yashovchi turli o'zbek qabilalari Movarounnahr va Xorazmga ko'chib kela boshladilar. Bu hodisa Vatanimiz hududidagi etnik jarayonga ta'sir etmay qolmadi.

Avvalo, XVI asrdan boshlab yurtimizda o'zbek xalqining tarkibi kengayib bordi. Ikkinchidan, ko'chib kelgan turli o'zbek qabilalari iqtisodiy va madaniy taraqqiyot jihatidan o'zlaridan ustun bo'lgan mahalliy qardoshlari bilan yaqinlashdilar. Uchinchidan, ular mahalliy aholi turmush tarziga xos hamma ijobiy jihatlarni qabul qildilar. Bora-bora esa Movarounnahr va Xorazmda avvaldan yashab kelayotgan qardoshlari tarkibiga singib ketdilar.

„O'zbek“ nomi O'zbekiston tarixining XVI asrdan keyingi taraqqiyot bosqichlarida mahalliy aholi ruhiga singdi. O'zbek atamasi butun bir xalqning etnik nomiga va milliy iftixoriga aylandi.

Eron shohi Ismoil Safaviy bilan qonli to'qnashuv

Bu vaqtda Eronda shoh Ismoil Safaviy hukmdorlik qilayotgan edi. U o'z davri uchun katta va qudratli qo'shin tuza oldi. Ismoil Safaviy tuzgan saltanat tarixda Safaviylar davlati nomi bilan mashhur.

Shoh Ismoil davlati kattagina hududlarni o'z ichiga olardi. Bu davlatning bir sarhadi Xuroson bilan, ikkinchi sarhadi esa Usmonli davlati bilan tutashgan edi. Shoh Ismoil boshliq Eron safaviylarining Xurosonga tazyiqi tobora kuchayib, talonchilik harakatlari avj oldi. Endi bu ikki hukmdor o'rtasida urush bo'lishi muqarrar bo'lib qoldi.

Nihoyat, 1510-yilda ikki hukmdor qo'shini to'qnashdi. Marv (hozirgi Turkmaniston hududi) yaqinida bo'lgan jangda Eron qo'shini g'alaba qozondi. Shayboniyxon va uning safdoshlari jangda halok bo'lishdi. Bu g'alaba natijasida shoh Ismoil butun Xurosonni egalladi.



To'lg'ama – jang chog'ida dushman qo'shinini qanotlaridan aylanib o'tib, qurshab olib zarba berish usuli.



- 1500-yil – Movarounnahrda yangi o'zbek davlati – Shayboniyilar davlatiga asos solindi.
- 1503-yil – Toshkent egallandi.
- 1504-yil – Farg'ona egallandi.
- 1505-yil – Xorazm egallandi.
- 1507-yil – Hirot egallandi.



1. Shayboniyxon hokimiyatining kuchayishiga sabab bo'lgan omillar nimalardan iborat edi?
2. Shayboniyxonning Movarounnahr va Xurosonni nisbatan oson egalab olishiga nimalar asosiy sabab bo'ldi?
3. Shoh Ismoilning g'alabasi oqibatlarini haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Yurtimizga Dashti Qipchoqdan turli o'zbek qabilalari ko'chib kelingach, etnik jarayon qanday kechdi?



II BOB. BUXORO XONLIGI VA BUXORO AMIRLIGI

5-§. Buxoro xonligining tashkil topishi

Ko'chkunchixon va Ubaydullaxon hukmronligi

Shayboniyxon halok bo'lgach, uning o'rniga amakisi Ko'chkunchixon taxtga o'tirdi. Biroq 1511-yilda Bobur Mirzo Samarqandni uchinchi marta egallaganida shayboniylar vaqtinchalik hokimiyatdan mahrum bo'lib qoldilar. 1512-yil 28-apreldagi jangda shayboniylar Bobur Mirzo bilan uning ittifoqchisi safaviylar qo'shinini tor-mor qilib, Samarqand taxtini qayta qo'lga kiritdilar. Ko'chkunchixon 1530-yilgacha hukmronlik qildi.

Ko'chkunchixonidan so'ng taxtga o'g'li Abu Said (1530–1533) o'tirdi. Undan keyin esa hukmdorlik Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonning o'g'li Ubaydullaxon (1533–1540) qo'lga o'tdi. U 1533-yilda xonlik poytaxtini Samarqanddan Buxoroga ko'chirtirdi. Shu tariqa, Shayboniylar davlati Buxoro xonligi deb atala boshladi. Ubaydullaxon Buxoroga otameros mulk deb qarar edi. Chunki Shayboniyxon hayotligidayoq Buxoro hokimligini ukasi Mahmud Sultonga bergan edi. Shu tariqa, shayboniylarning Movarounnahrda tashkil etgan davlatlari endilikda Buxoro xonligi deb ataladigan bo'ldi.

Ubaydullaxonning tariximizdagi xizmatlari katta. Avvalo, u Ismoil Safaviy qo'shinining hujumlarini bartaraf etib, Movarounnahrni ularning harbiy-siyosiy tazyiqlaridan saqlab qoldi.

Ubaydullaxon safaviylarga qarshi kurashda o'zining ma'naviy ilhomchisi Mir Arab taxallusi bilan mashhur bo'lgan din peshvosi Abdulla Sabroniy tomonidan qo'llab-quvvatlandi. U Ubaydullaxonning do'sti ham edi. Ubaydullaxon safaviylar ustidan erishgan g'alabasi tufayli Vatan mustaqilligini, xalq erkini va din-u diyonatini, or-nomusini saqlab qoldi. Ubaydullaxon bu g'alabani Mir Arabga bag'ishladi va 1533–1536-yillarda Buxoroda uning nomi bilan mashhur madrasa qurdirdi. Mir Arab madrasasi hali-hamon ilm-ma'rifat o'cho-g'i bo'lib qolayotir.

Tarixchi Hofiz Tanish al-Buxoriy bekorga „*Uning davlati va xalofati zamonida Movarounnahr, ayniqsa, Buxoro viloyati gullab-yashnadi*“, deb yozmagan edi.

Ubaydullaxon hukmronligi davrida Buxoroning poytaxt sifatidagi nufuzi har tomonlama o'sdi.

Ubaydullaxon o'z davlatining chegarasini Shayboniyxon davridagi sarhadlarda qayta tiklashga harakat qildi. U Hirotni ishg'ol etgan Eron qo'shinini bir necha marta mag'lubiyatga uchratgan edi. Ayni paytda, u mamlakat ichkarisidagi siyosiy tarqoqlikka barham berdi.

Toj-u taxt uchun o'zaro kurashning kuchayishi Ko'chkunchixonning o'g'li Abdullaxon I ning qisqa hukmronligidan so'ng Movarounnahrda qo'shhokimiyatchilik, ya'ni bir vaqtning o'zida ikki hukmdor hokimiyati o'rnatildi.

Ulardan biri – Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon Buxoroda, ikkinchisi Ko'chkunchixonning yana bir o'g'li Abdulatifxon Samarqandda hukmronlik qila boshladilar. Biroq ularning hokimiyati mustahkam emas edi. Mamlakat amalda bir nechta mustaqil qismlarga bo'linib ketdi. Chunonchi, Balx va Badaxshonda Pirmuhammadxon I, Toshkent va Turkistonda Navro'z Ahmadxon, Karmana va Miyonqolda Iskandarxon mustaqil bo'lib oldilar.

Mamlakatda ro'y bergan siyosiy tanglikdan Toshkent va Turkiston hukmdori, Suyunchxo'janing o'g'li Navro'z Ahmadxon foydalanib qolishga qaror qildi. Samarqand hukmdori, amakivachchasi Abdulatifxon bilan ittifoq tuzib 1540-yilda Buxoroni egalladi va hokimiyatni o'z tarafdorlariga topshirdi. 1548-yilda Abdulatifxon vafot etgach, Samarqand taxtini egalladi. O'z nomidan tanga pul zarb ettirdi. Movarounnahrning ko'p shaharlarida uning nomi xutbaga qo'shib o'qildi.

Biroq Karmana va Miyonqol hukmdori Iskandarxon va uning o'g'li Abdullalar Navro'z Ahmadxonga itoat etishni istamadilar. Bunga qarshi Navro'z Ahmadxon Miyonqolga yurish boshladi. Kuchlar nisbatida Navro'z Ahmadxonning ustunligini bilgan ota-o'g'il Balxga ketishga majbur bo'ldilar. Abdullaxon Balx hukmdori – amakisi Pirmuhammadxonning yordamida Navro'z Ahmadxonga qarshi bir necha bor yurish qilganidan so'nggina g'alabaga erishdi. Mag'lub bo'lgan Navro'z Ahmadxon Buxoroni tashlab Samarqandga qaytdi. So'nggi jangda har ikki tomon ham g'alaba qilishga ko'zlari yetmagach, o'rtada sulh imzolandi. Sulhdan so'ng Abdullaxon Amudaryodan o'tib Maymanaga, Navro'z Ahmadxon esa Buxoroda noibini qoldirib Samarqandga qaytdi va 1556-yilda vafot etdi.



- 1512-yil – Shayboniylar Movarounnahr taxtini qayta egalladilar.
- 1533-yil – Shayboniylar davlati Buxoro xonligi deb atala boshlandi.



1. Nega shayboniylarning Movarounnahrda tashkil etgan davlati Buxoro xonligi deb ataldi?
2. Shayboniy Ubaydullaxonning davlatchiligimizdagi tarixiy roli nima-dan iborat?
3. Navro‘z Ahmadxonning Movarounnahr hukmdori taxtini egallashiga qanday omillar sabab bo‘ldi?

Mulohaza yuriting!

Nega shayboniylar davrida ham ichki nizolar barham topmadi?

6-§. Abdullaxon II davrida Buxoro xonligining yuksalishi

Abdullaxon II ning hokimiyat tepasiga kelishi

Navro‘z Ahmadxon vafot etgach, mamlakatdagi siyosiy tarqoqlik xavfi yanada kuchaydi. Mamlakatdagi parokandalikka chek qo‘yish uchun markaziy hokimiyatni yana tiklash va kuchaytirish zarur edi. Bu zaruriyatni urushlarsiz amalga oshirib bo‘lmas edi. Ana shunday sharoitda kurash maydoniga Miyonqol hokimi Iskandar Sultonning o‘g‘li Abdullaxon II (1534–1598) chiqdi. U shayboniylar sulolasining yorqin va-killaridan biri, nomi 4-mavzuda qayd etilgan Jonibek Sultonning nabirasi edi.

Iskandarxon xonadoniga Buxoro yaqinida-gi Jo‘ybor qishlog‘ida istiqomat qiluvchi, g‘oyatda katta nufuzga ega bo‘lgan shayx Muhammad Islomning ixlosi baland bo‘lgan-ligi Abdullaxon II ga bu kurashda juda katta madad bo‘ldi.

Muhammad Islom va uning avlodlari o‘zlarining kelib chiqishini ota tomonidan Muhammad payg‘ambar avlodlariga, ona tomonidan esa Chingizxon va Jo‘jiga bog‘lar edilar. XVI asrning ikkinchi yarmida Mu-



Abdullaxon II
(miniatura, 1572)

hammad Islom, keyinchalik uning o'g'li Abubakr Sa'd Buxoroda shayxulislom lavozimida faoliyat yuritdilar.

**Davlatning
markazlashtirilishi**

1556-yilda Navro'z Ahmadxon vafot etgach, Abdullaxon II darhol Karmana va Shahrizabzda o'z hukmronligini tikladi. Muhammad Islomning ko'magi bilan esa Buxoro taxtini egalladi va uning poytaxt maqomini qayta tikladi. Markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamagan Samarqand, Toshkent, Sayram, Turkiston va Farg'ona qilich kuchi bilan bo'ysundirildi. Biroq raqiblarining taxtga yoshi katta shayboniy o'tirmadi-ku, deb qilishi mumkin bo'lgan ta'nalariga o'rin qoldirmaslik uchun bir oila doirasida bo'lsa-da, dastlab amakisi Pir-muhammad Ini, uning vafotidan so'ng esa otasi Iskandarxonni taxtga o'tqazdi.

1583-yilda otasi vafot etgach, Abdullaxon II rasman xon deb e'lon qilindi.

Shu tariqa, Abdullaxon II Movarounnahrda o'z hokimiyatini to'la o'rnatdi. Shuningdek, Xuroson tarkibidagi, lekin shayboniyar qo'lida qolgan Balx, Maymana, Badaxshonda markaziy hokimiyatga qarshi ko'tarilgan isyonlarni bostirdi.

Safaviylarga qarshi olib borilgan kurash natijasida Xurosonning sharqiy qismi egallandi. Binobarin, butun Movarounnahr, Xorazm va Xurosonning sharqiy qismigacha bo'lgan hududlar yagona hukmdor qo'li ostida birlashtirildi. Shu tariqa, Abdullaxon II ning jasoratli kurashi natijasida XVI asr oxirida Buxoro xonligi markazlashgan ulkan davlatga aylandi. Bunday ulkan natijaga buyuk Amir Temurdan keyin Abdullaxon II erisha oldi, xolos.

Rossiyada bu davlatga nisbatan bekorga „Великая Бухария“ (Buyuk Buxoro) iborasi qo'llanilmagan edi.

**Shayboniyar sulolasi
hukmronligining
barham topishi**

Abdullaxon II mamlakatni birlashtirish jaryonida shayboniy sultonlarning markaziy hokimiyatni kuchsizlantirishga urinishlariga qarshi tinimsiz va shafqatsiz kurash olib bordi. Bu maqsad yo'lida qarindoshlariga ham shafqat qilmadi. Biroq Abdullaxon II qanchalik urinmasin, ichki nizolarga to'la barham bera olmadi. Toj-u taxt masalasida hatto o'zining o'g'li Abdulmo'min bilan kelisha olmadi. U valiahd sifatida Balx viloyatini boshqarar edi.

Abdullaxon II 1598-yilda vafot etgach, taxtni o'g'li Abdulmo'min egalladi. Biroq o'sha yilning o'zidayoq Abdulmo'min fitnachilar tomonidan o'ldirildi. Undan qolgan ikki yashar o'g'ilning xonlik huquqini hech kim tan olmadi. Taxt uchun boshlangan kurash natijasida taxtga Abdullaxon II ning amakivachchasi – Balx hokimi Pirmuhammad II o'tqazildi. Ichki nizolar tufayli Buxoro xonligida sodir bo'lgan og'ir vaziyatdan foydalangan Eron hukmdori shoh Abbos bostirib kirib, Nishopur, Sabzavor, Mashhad, Hirotni egalladi. Xorazm esa xonlik tasarrufidan chiqib, davlat mustaqilligini tiklab oldi.

Pirmuhammad II Buxoro xonligini yana ikki yilcha idora qildi. 1601-yilda u bilan kelib chiqishi ashtarxoniylardan bo'lgan, Samarqand hokimi Boqi Muhammad o'rtasida qonli to'qnashuv yuz berdi. Mag'lub bo'lgan Pirmuhammadxon II o'ldirildi. Shu tariqa, Abdullaxon II vafotidan atigi 3 yil o'tgach, bir asr hukmronlik qilgan shayboniylar sulolasi barham topdi.



- 1556-yil – Abdullaxon II amalda, 1583-yilda esa rasman xonlik taxtini egalladi.
- 1598-yil – Abdullaxon II vafot etdi.
- 1601-yil – Buxoro xonligida shayboniylar hukmronligi barham topdi.



1. Abdullaxon II ning o'zbek davlatchiligi oldidagi xizmati nimadan iborat?
2. Shayboniylar sulolasi hukmronligi barham topishining sabablarini tartib bilan yozing.
3. Nega Abdullaxon II ham davlatni sulola vakillari bilan bahamjihat boshqara olmagan?

7-§. Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi

Ashtarxoniylar haqida O'zaro ichki nizolar oqibatida Jo'jixon ulusi – Oltin O'rda amalda bir nechta mustaqil xonliklarga bo'linib keta boshladi. Ulardan biri XV asrning 30-yillarida Volgabo'yi yerlarida tashkil topgan Ashtarxon (Hoji

Tarxon) xonligi edi. Hozirgi Rossiya Federatsiyasiga qarashli Astraxon (Ashtarxon) shahri uning poytaxti bo'lgan. Rossiya bu xonlikni 1556-yilda bosib oldi.

Ashtarxon xonligi tugatilgach, xon xonadoniga mansub kishilar jon saqlash uchun turli taraflardan boshpana izlashga majbur bo'ldilar. Ana shulardan biri shayboniylarga amakivachcha Yormuhammadxon xonadoni edi. Yormuhammadxon va uning xonadoni Buxoro xonligidan boshpana topdi. U Buxoro xoni Iskandarxon (Abdullaxon II ning otasi) bilan yaqin munosabatda bo'lgan.

Buxoroda hokimiyatning ashtarxoniyarlarga o'tishi

Yormuhammadxon oila a'zolari va qarindosh-urug'i bilan Buxoroga kelgach, Iskandarxon ularni izzat-ikrom bilan kutib oldi va qizi Zuhrabegimni Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek Sultonga turmushga berdi. Jonibek Sulton Zuhrabegimdan uch o'g'il (Din Muhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammad) ko'rdi. Ota-o'g'illar Buxoro xonligida yuksak mavqega erishdilar.

Shayboniylar sulolasidan taxt vorisi qolmagach, Jonibek Sulton xonlik taxtiga eng munosib nomzod bo'lib qoldi. Xonlikning nufuzli kishilari unga taxtni taklif etdilar. Lekin u o'g'li Din Muhammad foydasiga taxtdan voz kechdi. Biroq bu orada Xurosonda Eron hukmdori Shoh Abbos qo'shini bilan yuz bergan jangda Din Muhammad halok bo'ldi.



Natijada, 1601-yilda Jonibek Sultonning ikkinchi o'g'li, Samarqand hokimi Boqi Muhammad Buxoro taxtiga o'tqazildi. Shu tariqa Buxoro xonligi tarixida yangi sulola – ashtarxoniyar sulolasi hukmronligi boshlandi.

Markaziy boshqaruv hokimiyatini mustahkamlash uchun kurash

Boqi Muhammad (1601–1605) mamlakat sarhadlari jipsligini mustahkamlash, boshqaruv tizimini izga solish uchun ko'p urindi. 1602-yilda Eron safaviylariga zarba berib, Balxni bo'ysundirdi va ukasi Vali Muhammadni hokim etib tayinladi. 1603-yilda Eron safaviylarining Balxga hujum qilgan qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi.

1605-yilda Boqi Muhammad vafot etgach, ukasi Vali Muhammad taxtga o'tqazildi. Biroq qabila amirlari xon hokimiyatiga bo'ysunmay, muxolifatchilikni kuchaytirdilar. Buxorolik amirlar xonga qarshi isyon

uyushtirganligidan xabar topgan Vali Muhammad qochib ketdi. Amirlar taxtga Boqi Muhammadxonning o'g'li Imomqulixonni (1611–1642) o'tqazdilar.

Imomqulixon Toshkent va xonlikning shimoli-sharqiy chegaralari uchun qozoqlar, jung'orlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi. 1613-yilda Toshkentni qozoqlardan ozod etdi.

Imomqulixon davrida markaziy davlat hokimiyati nisbatan mustahkamlandi.

Siyosiy tarqoqlikning kuchayishi

Imomqulixon keyin taxtni egallagan ukasi Nodir Muhammad (1642–1645) davrida esa siyosiy tarqoqlik kuchaydi. Bunga xonning mamlakat viloyatlarini o'g'illariga va yaqin qarindoshlariga mulk qilib taqsimlab berganligi sabab bo'ldi. Oqibatda, davlatchilik asoslari zaiflashdi. 1645-yilda qozoqlar yana Movarounnahrda yurish qilib, Xo'jandgacha yetib keldilar.

Nodir Muhammad ularga qarshi o'g'li Abdulaziz boshchiligidagi katta qo'shinni safarbar etdi. Xondan norozi bo'lgan bir guruh amirlar yurish davrida Abdulazizni xon deb e'lon qildilar va uni taxtga o'tqazdilar. Nodir Muhammad esa Balxga hokim etib tayinlandi (1645–1651). Nodir Muhammad toj-u taxtni qaytarib olish maqsadida Hindiston podshohi temuriy zoda Shoh Jahondan yordam so'radi. Shoh Jahon Balx viloyatini o'ziga bo'ysundirish maqsadida qo'shin yubordi. Uning asl niyatini payqab qolgan Nodir Muhammad hind qo'shiniga qarshi chiqdi. Biroq u jangda yengildi va Eronga qochib ketdi. Abdulazizxon Balxni ikki yildan so'nggina qaytarib oldi. 1649-yilda otasi Nodir Muhammadni yana Balx hokimi etib tayinladi. Biroq otasining Eron yordamida o'z mavqeyini mustahkamlashga uringanligi Abdulazizxonni tashvishga solib qo'ydi. Endi u otasiga qarshi ukasi Subhonqulixon yetakchiligidagi qo'shin yubordi.

1651-yilda Subhonqulixon Balxni egalladi. Ayni paytda, u Balx hokimi etib tayinlandi. Otasi Nodir Muhammad esa Makkaga hajga borayotib yo'lda vafot etdi.

Buxoro–Xiva munosabatlari

Buxoro xonligidagi o'zaro kurashlardan foydalangan Xiva xonlarining Buxoroga talonchilik yurishlari kuchaydi. 1655-yilda Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon katta qo'shin bilan yurish qilib, Buxoro atroflarini ikki bor talon-taroj qildi.

1681-yilda keksayib qolgan Abdulazizxon ichki ziddiyatlar va tashqi hujumlar Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini murakkablashtirib yuborganligi va siyosiy vaziyat izdan chiqqanligi tufayli taxtdan voz kechdi.

Abdulazizxondan keyin taxtga o'tirgan Subhonqulixon (1681–1702) davrida ham ahvol o'nglanmadi. Subhonqulixon bir tomondan o'g'illariga qarshi, ikkinchi tomondan viloyatlardagi amir va beklarning markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lish yo'lidagi harakatlariga qarshi kurash olib borishga majbur bo'ldi.

Xonlikdagi o'zaro ichki kurashlar Xiva xonligiga qo'l keldi. Buxoroga qarshi yurish boshlagan Xiva xoni Anushaxon ma'lum muddat Samarqandni egalladi. Hatto o'z nomiga xutba ham o'qittirdi va tanga pullar zarb ettirdi. Biroq Subhonqulixon qatag'on urug'idan bo'lgan Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliq yordamida Xiva qo'shinlarini Samarqanddan quvib chiqarishga erishdi. U Xiva hujumiga chek qo'yish uchun Anushaxonga qarshi fitna tayyorladi. Buning natijasida Anushaxon taxtdan tushirildi va 1688-yilda xonlikni Buxoro tasarrufiga kiritdi.

Subhonqulixon Mahmudbiy otaliqqa Xiva xonligiga qarshi kurashida bergan yordami evaziga Balx hokimligini ham topshirdi. Xonning bu qarori ko'plab kishilarni norozi qildi. Ichki nizolar oxir-oqibat mamlakat iqtisodiyotini chuqur tanazzulga uchratdi.



- 1601-yil – Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi o'rnatildi.
- 1688-yil – Xiva xonligi Buxoro tasarrufiga kiritildi.



1. Shayboniylar sulolasining barham topishiga nimalar sabab bo'ldi?
2. Ashtarxoniylar kimlar edilar va ular Buxoroga qanday kelib qoldilar?
3. Boqi Muhammadning Buxoro xonligi taxtini egallashi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Imomqulixon mamlakat mustaqilligini saqlash yo'lida qanday tadbirlar ko'rdi?
5. Subhonqulixon davrida Buxoro–Xiva munosabatlari qanday kechdi?

8-§. Buxoro xonligida markaziy hokimiyatning zaiflashuvi

Buxoro xonligi 1702-yili Subhonqulixon vafot etdi. Taxtni o'g'li Ubaydullaxon II (1702–1711) egalladi. Ubaydullaxonning asosiy maqsadi siyosiy tarqoqlikni tugatishdan iborat edi. U ana shu maqsad yo'lida goh isyonkor qabilalarga qarshi, goh bo'ysunmas mahalliy hukmdorlarga, goh davlat sarhadlariga bostirib kirgan ko'chmanchilarga qarshi urush olib borishga majbur bo'ldi.

Dastlab u Balxni bo'sundirish yo'lini izladi. Ma'lumki, Ubaydullaxon II ning otasi Subhonqulixon Balxni qatag'on qabilasi boshlig'i, Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliqqa alohida xizmatlari uchun tortiq qilgan edi. Ubaydullaxon davrida Mahmudbiy Balxda hokimiyatni to'liq o'z qo'lga oldi va o'zini 1706-yilda xon deb e'lon qildi. Bu Mahmudbiyga qarshi bir necha bor uyushtirilgan harbiy yurishlar natija bermagach, Ubaydullaxon uning mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi.

Ubaydullaxon II o'tkazgan islohotlar ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Ma'lumki, ichki va tashqi dushmanlarga qarshi tinimsiz urushlar olib borish katta mablag' talab etardi, albatta. Ubaydullaxon aholidan yig'iladigan soliqlarni 4 barobarga ko'paytirdi. Natijada, xalq xonavayron bo'ldi. Ana shunday bir sharoitda pul islohotini ham o'tkazdi. Xonlikda tarkibining 35 foizini kumush tashkil etuvchi tanga pul ishlatilardi. 1708-yilda esa bu tangalarning bittasidan 4 ta yangi tanga zarb etila boshlandi. Natijada, yangi pulning tarkibidagi kumush miqdori 4 marta, binobarin, amalda pulning qadri ham 4 marta kamaygan bo'lsa-da, yangi tanga avvalgi eski tangaga qiymat jihatdan teng deb belgilandi.

Tanga tarkibida kumush foizining kamayishi do'kondor va hunarmandlarning keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Endi ular o'z mahsulotlarini sotmay qo'ydilar. Savdo ishlari susaydi va oqibatda, mam-lakat iqtisodiy hayoti inqirozga yuz tutdi.

Og'ir ahvolga chiday olmagan xalq qo'zg'olon ko'tardi, biroq qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirildi.

Ubaydullaxon markaziy hokimiyatni kuchaytirish maqsadida hatto o'sha davrning eng ta'sirchan kuchi – yirik yer egalari hamda Jo'ybor shayxlarining ta'sirini kamaytirishga ham urindi. Ubaydullaxon

ularni soliq to'lamaslik imtiyozidan mahrum etdi. Natijada, ular Ubaydullaxonning eng xatarli dushmaniga aylandilar.

Ayni paytda, Ubaydullaxon tanhodorlarni o'z mulkidan keladigan daromadlaridan mahrum etdi, soliq va majburiyatlar miqdorini ko'paytirdi.

Bunday keskin o'zgarishlarga toqat qila olmagan qudratli kuchlar Ubaydullaxonga qarshi fitna tayyorlay boshladilar. 1709-yilda Farg'ona vodiysining Buxoro xonligidan ajralib chiqishi esa siyosiy ahvolni yanada murakkablashtirdi. Va nihoyat, fitnachilar 1711-yilda Ubaydullaxonni o'ldirdilar. Taxtga fitna ishtirokchisi, Ubaydullaxonning ukasi Abulfayzxon o'tqazildi.

Ubaydullaxon tariximizda mahalliy hokimlarning o'zboshimchaligiga chek qo'yishga, markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harakat qilgan so'nggi ashtarxoniy hukmdor sifatida nom qoldirdi.

Xonlikda parokanda- likning yanada kuchayishi

Taxtga o'tqazilgan Abulfayzxon kundan kunga mamlakat hayotida nufuzi kuchayib borayotgan amirlar va zodagonlar qo'lidagi bir qo'g'irchoqqa aylandi. Uning farmonlari saroy ostonasidan nariga o'tmaydigan bo'lib qoldi.

Xon hokimiyatining bu darajaga tushib qolishiga xonlikning muntazam qo'shinga ega bo'lmaganligi ham sabab bo'ldi. Muntazam qo'shin tuzishga va uni saqlashga esa mablag' yetishmasdi. Bunga esa xonlik iqtisodiyotining nochorligi sabab bo'ldi.

Abulfayzxon davrida o'zbeklarning mang'it qabilasidan chiqqan Muhammad Hakimbiy katta nufuzga ega bo'lib oldi. U barcha shahzodalar otaliqlarining boshlig'i deb tan olindi. Bu boshqa qabilalar aslzodalarining qat'iy noroziligiga sabab bo'ldi. Natijada, Shahrizabz hokimi, kenagas qabilasidan chiqqan Ibrohimbiy Urgut va Miyonqol hokimlari bilan til biriktirib, Buxoro xonligidan mustaqil, poytaxti Samarqand bo'lgan davlat tuzishga qaror qildi. 1723-yilda Samarqandni egallab, kuyovi Rajab Sultonni taxtga o'tqazdi. Ibrohimbiy o'ziga „amir ul-umaro“ („ulug' amir“) unvonini oldi.

Ibrohimbiyning navbatdagi maqsadi Buxoro taxtini egallash, Rajab Sultonni Buxoro taxtiga o'tqazish hamda shu yo'l bilan xonlikning eng nufuzli kishisi bo'lib olish edi. Abulfayzxon siyosatidan norozi bo'lgan amirlar Ibrohimbiyga qo'shildilar. Ibrohimbiy Buxoroga yurish boshladi. U va Rajab Sultonlar ularga qo'shilganlarga g'alabadan

so'ng juda katta boylik va amal va'da qildilar. Jangda Muhammad Hakimbiy otaliq boshchiligidagi Buxoro qo'shinlari mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, Rajab Sulton Buxoro shahrini egallay olmadi.

Ibrohimbiy va Rajab Sulton oqibatini chuqur o'ylab ko'rmasdan, o'z maqsadlariga erishish maqsadida, ko'chmanchi qozoqlardan yordam so'radilar. Ularga katta o'ljalari va'da qildilar.

Jung'or ko'chmanchilarining bosqinidan katta talafot ko'rgan, talangan hamda ocharchilikka duchor etilgan qozoqlar bu taklifga rozi bo'ldilar. Biroq mamlakatga kirib kelgan qozoqlar talon-tarojni avj oldirdilar. Na Buxoroda, na Samarqandda ularni to'xtatishga qodir kuch topilmadi. Bunday sharoitda ichki nizolar yanada avj oldi. Aholining Abulfayzxon noroziligi kuchayib ketdi. Nihoyat, Abulfayzxon yaqinlarining talabi bilan Muhammad Hakimbiy Buxorodan chiqarib yuborishga qaror qildi. Hakimbiy Qarshiga hokim etib tayinlandi. Biroq u qulay fursat tug'ilishi bilan, Buxoroda hokimiyatni yana o'z qo'lga olish niyatidan qaytmadi.

Abulfayzxon esa vaqtini ko'ngilxushlik ishlariga sarflab, davlat ishlarini deyarli nazorat qilmay qo'ydi. Samarqand, Qarshi, Balx, Farg'ona va Badaxshon amalda mustaqil bo'lib oldilar.



Parokandalik – mamlakat viloyatlarining markaziy hokimiyatga bo'yisunmasligi, siyosiy tarqoqlik.



- 1708-yil – Ubaydullaxon II pul islohoti o'tkazdi.
- 1709-yil – Farg'ona vodiysi Buxoro tarkibidan ajralib chiqdi.
- 1711-yil – Ubaydullaxon II fitna qurboni bo'ldi.



1. Markaziy hokimiyat zaiflashuvining asosida doimo nima yotgan?
2. Nega Ubaydullaxon II o'tkazgan pul islohoti natija bermadi?
3. Nega Ubaydullaxon II fitna qurboni bo'ldi?
4. Mang'it qabilasi sardori Muhammad Hakimbiy hokimiyatining kuchayib ketishiga qanday omillar sabab bo'ldi?



Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligidagi ichki siyosiy holatni taqqoslang. Xulosalaringizni daftaringizda qayd eting.

9-§. Buxoro xonligida davlat boshqaruvi

Xonlik hududi, geografik joylashuvi va aholisi

Muhammad Shayboniyxon tashkil etgan davlat hududining chegarasi har doim ham muqim bo'lmagan. Xususan, Shayboniyxon hukmdorligi davrida uning davlati tarkibiga Movarounnahrda tashqari Xorazm va Xuroson hududlari ham kirgan. Uning o'limidan so'ng Xorazm butunlay qo'ldan chiqdi. Xurosonning katta qismi esa Eron safaviylari tomonidan egallab olindi.

Abdullaxon II davrida qisqa muddatga bo'lsa-da, xonlik hududi yana kengaydi. Chunonchi, Xorazm va Xuroson yana Buxoro xonligiga bo'ysundirildi. Uning vafotidan so'ng esa Eron Xuroson hududini bo'ysundirgan bo'lsa, Xorazm yana mustaqil davlatga aylandi.

XVI asr boshlarida Shayboniyxonning harbiy yurishlari davomida Movarounnahr va Xorazmga 500–600 ming Dashti Qipchoq o'zbeklari kirib kelgan.

XVI asr boshlarida xonlik aholisi ko'chib kelgan o'zbeklardan tashqari „turk chig'atoy“ va tojiklardan iborat bo'lgan. Manbalarda XVII asr oxirlarida esa o'zbek va tojiklardan iboratligi qayd etilgan.

Markaziy boshqaruv Buxoro xonligi ma'muriy jihatdan viloyatlar va tumanlarga bo'lindi. Xonlikda oliy davlat idorasi temuriylar davridagidek *dargoh*, ijro etuvchi hokimiyat esa avvalgidek *devon* (vazirlik) deb atalishda davom etdi. Unga *devonbegi* (Bosh vazir) rahbarlik qildi.

Devonbegi, ayni paytda, davlatning moliya va xo'jalik ishlarini ham boshqarardi. Biroq shayboniy davrida devon faoliyati temuriylar davridagidek nufuzga ega emasdi. Bunga dargohdagi mansablar mavqeyining kuchli bo'lmaganligi sabab bo'ldi.

Yana bir katta davlat mansabi – *otaliq* edi. Xon siyosatining viloyatlardagi ta'siri otaliq mansabiga tayinlanganlarning nufuzi bilan belgilangan. Xon viloyatlarni shahzodalarga taqsimlab berar ekan, ularga ustoz, rahnamo etib o'z nazoratchisini, ishongan kishisini tayinlagan. Bunday nazoratchi, ishonchli shaxs otaliq deb atalgan. Bu nom otaliq qiluvchi, otasining o'rnini bosuvchi ma'nolarini anglatgan.

Yana bir davlat mansabi – *parvonachi* deb atalgan. Uning vazifasi xon farmonlarini, rasmiy hujjatlarni mas'ul shaxslarga, ijrochilarga yetkazishdan iborat bo'lgan.

Dodxoh mansabida ishlagan amaldor esa dargohga tushgan arizalarni qabul qilgan va ularga javob qaytargan. Shuningdek, *dodxoh* mamlakatda adolat mezonlariga amal qilinishini ham nazorat qilib borgan.

Eng muhim davlat mansablaridan yana biri – *ko'kaldosh* mansabi edi. Bu mansabga xon sulolasiga eng yaqin shaxslardangina tayinlangan. *Ko'kaldosh* xon siyosatiga fuqarolarning munosabatini o'rgangan va bu siyosatning daxlsizligini ta'minlagan.

Bugungi kun voqeligi bilan aytganda, *ko'kaldosh* davlat xavfsizlik xizmati idorasi rahbari bo'lgan. U nafaqat oddiy kishilarning, balki davlat amaldorlarining va hatto valiahdlarning ham hukmdorga nisbatan qiladigan munosabatiga javobgar bo'lgan.

Xon va shahzodalar o'rtasidagi munosabatlar masalasi bilan *xon yasovuli* mansabida ishlagan amaldor shug'ullangan.

Xonlikda *eshikog'aboshi* lavozimi ham muhim sanalgan. Chunki bu mansabga tayinlangan shaxs dargoh xavfsizligi va unda o'rnatilgan tartibga rioya qilinishi uchun javobgar edi.

Katta mavqega ega bo'lgan *shayxulislom* lavozimini egallagan shaxs shariat qonunlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirgan.

Qozikalon (Bosh qozi) esa barcha bosqichlardagi sudlov ishlariga boshchilik qilgan.

Muhtasib (rais) lavozimni egallagan shaxs esa mamlakatda jamoat tartibining saqlanishi, diniy marosim va amallarga rioya etilishi, bozorlarda narx-navo va tarozilarning to'g'riligi uchun mas'ul bo'lgan.

Mehtar lavozimiga tayinlangan mansabdor esa zakot va boshqa tushumlarning zarur o'rinlarda ishlatilishini nazorat qilardi.

Xonlikda davlat lavozimi mansabdori hisoblanmasa-da, *naqib* unvoniga sazovor bo'lgan shaxsning xon saroyida nufuzi baland edi. Chunonchi, u xonning yaqin va ishonchli kishisi sanalgan. Ayni paytda, u davlat ichki va tashqi siyosati masalalarida xonning maslahatchisi ham hisoblangan. Zarur bo'lganda elchilik vazifasini ham bajargan.

Avvalgi mavzularda aytilganidek, shayboniylarning davlat boshqaruvida dastlab an'anaviylik saqlandi. Oliy hukmdorlik, ya'ni *xonlik* otadan bolaga emas, balki sulolaning yoshi eng katta vakiliga o'tgan. Xususan, Muhammad Shayboniyxondan keyin taxtga o'tirgan

Ko'chkunchixon Shayboniyxonning farzandi emas, amakisi bo'lganligini bilib olgan edingiz. U shayboniylarning yoshi eng kattasi bo'lganligi uchun taxtni egalladi. Ikkinchi yoshi katta – shayboniy Ko'chkunchixonning ukasi Suyunchxo'ja *valiahd* etib tayinlandi. Biroq u Ko'chkunchixonndan avval vafot etganligi uchun xonlik taxtini egallash unga nasib etmadi. Biroq XVI asrning 40-yillaridan boshlab o'zaro nizolar oqibatida bu an'ana buzildi. Endi taxt otadan bolaga meros bo'lib o'tadigan bo'ldi.

Mahalliy boshqaruv Yuqorida ta'kidlanganidek, shayboniylar davrida xonlik viloyat va tumanlarga bo'lingan. Viloyatlar, asosan, sulola namoyandalari orasidan tayinlangan hokimlar tomonidan boshqarilgan. Hokimlar ham markazdagidek o'zlarining boshqaruv mahkamasini tuzishgan.

Keyinchalik, markaziy hokimiyat zaiflashgach, ayrim qudratli qabila boshliqlari – *amirlar* ham shu mansabga tayinlangan. Tumanlarni tuman *hokimlari* boshqargan. Boshqaruvning eng quyi tizimi *amlok* deb atalgan (ya'ni bir nechta katta-kichik qishloqdan iborat boshqaruv tuzilmasi). Amloklarni tuman hokimi tomonidan tayinlangan shaxs – *amlokdor* boshqargan.

Amlok boshqaruvi ma'muriyati *amlokdor*, *mirzo (kotib)*, *mirob* (suv taqsimlovchi), *amin* (soliq yig'uvchi) va *oqsoqol* (har bir qishloqning boshlig'i)dan iborat bo'lgan.

Ashtarxoniylar davrida davlat boshqaruvidagi ayrim o'zgarishlar Ashtarxoniylar davrida davlat boshqaruvi o'z tuzilishi, mohiyati jihatidan shayboniylar davridagidan deyarli farq qilgan bo'lsa-da, ayrim o'zgarishlar amalga oshirildi.

Chunonchi, shayboniylar davrida *otaliq* lavozimidagi shaxs xondan keyingi o'rinda turuvchi *devonbegi* lavozimidagi shaxs martabasiga tenglashtirildi. Bora-bora u amirlar amiriga aylandi. Shuningdek, ashtarxoniylar davrida *saroy qutvoli* davlat lavozimi joriy etildi. U davlat mablag'i hisobiga amalga oshiriladigan qurilish, qal'a devorlari va imoratlarni ta'mirlash, shuningdek, obodonchilik ishlarini boshqarardi.

Shuningdek, ashtarxoniylar davrida devonlar tizimi deyarli barbod bo'ldi. Markazda butun hokimiyat dargohda to'planib qoldi. Natijada, devonlar mahalliy hokimliklarni boshqarish imkoniyatini qo'ldan chiqardi. Bu esa, o'z navbatida, viloyatlarda butun hokimiyat viloyat

hokimlari va ularni qo'llab-quvvatlovchi mahalliy kuchlar qo'lida to'planib qolishiga olib keldi. Bu omil ashtarxoniyalar davrida markaziy hokimiyatni deyarli yo'qqa chiqardi.



1. „Davlat va huquq asoslari“ fanidan olgan bilimlaringizga tayanib davlat tushunchasiga izoh bering.
2. Xonliklarda markaziy hokimiyatning zaiflashuviga yo'l ochilmasligi uchun nimalar qilinmasligi kerak edi?
3. Buxoro xonligida mavjud bo'lgan asosiy davlat lavozimlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Sizningcha, bobolarimiz davlat boshqaruvida joriy etgan davlat lavozimlarining qaysi biridan hozir ham foydalanish mumkin?



Bugungi kunda O'zbekistonda davlat boshqaruvining eng quyi organi qanday nom bilan atalishini va qanday shakllantirilishini aniqlab keling.

10-§. Buxoro xonligida harbiy ish

Xonlik qo'shinining tuzilishi

Ma'lumki, har qaysi davlatning siyosiy nufuzi ko'p jihatdan qo'shinining qudratiga bog'liq ekanligi tarix isbotlagan haqiqatlardan biridir. Shuning uchun shayboniyalar ham o'z davriga yarasha qudratli qo'shin tuzishga muvaffaq bo'lganlar. Qo'shin o'sha davrda foydalanilgan harbiy qurol-yarog'larning barcha turidan mohirona foydalana olgan.

Qo'shin tarkibiga ko'ra, asosan, *otliq* va *piyoda askarlardan* iborat edi. Tuzilishiga ko'ra, *qalb*, *o'ng* va *chap qanot*, *manglay* (avangard), *ilg'or*, *manglay qorovul*, *tug'chi*, *hirovul* kabi qismlarga bo'lingan. Qo'shin tuzilishi va uning harbiy yurishlari davridagi harakati tizimli va tartibli bo'lgan. Qo'shinning asosini o'ng qanot (*barong'or*) va chap qanot (*javong'or*), hamda *hirovul* (orqa qism) bo'linmalaridan iborat *qalb*, ya'ni markaziy qism tashkil etgan. Qo'shin harbiy yurish boshlagan vaqtda uning oldida ilg'or deb ataluvchi qism borgan. Uning vazifasi yo'lning xavfsizligini, pistirma qo'yilgan-qo'yilmaganligini aniqlash edi. Ilg'ordan so'ng manglay (avangard) borgan. Unga qalbn dushmanning bexosdan qilinadigan hujumidan saqlash yuklatilgan. Qo'shinning qorovul qismi umumiy qo'shinni qo'riqlab borgan.

Katta va kichik g'ullar esa maxsus qism bo'lib, Oliy bosh qo'mondon (xon) va sarkardalarni himoya qilgan. *Chanoh* esa qo'shinning o'ng va chap qanotlarini qo'riqlovchi maxsus qism edi. Barcha qism-

lar o'rtasida *maxsus choparlik xizmati* tashkil etilgan. Bu xizmat Oliy bosh qo'mondonning buyruq va ko'rsatmalarini sarkardalarga yetkazib turardi.

Qo'shin tarkibida *tug'chi* qism ham bo'lib, u davlat bayrog'ini qo'riqlagan. Bundan tashqari, *zabongiri* (dushman tomonidan asir olib keluvchi) hamda *xabargiri* (razvedka) deb ataluvchi maxsus bo'linmalar ham bo'lgan. Ba'zan vaziyat taqozo etganida bu maxsus xizmatlar qo'shinning ilg'or yoki qorovul qismi tomonidan ham amalga oshirilgan. Harbiy harakat vaqtida Oliy bosh qo'mondon uchun maxsus rasmiy qabul marosimi o'tkazadigan joy – *borgoh* ham tayyorlangan. Borgoh xonning maxsus saralangan bo'linmasi tomonidan qo'riqlangan.

Qo'shinning boshqarilishi, harbiy mansablar

Xon qo'shinning Oliy bosh qo'mondoni edi. Qo'shinning o'ng va chap qanotlari hamda qalb shayboniy sultonlar va shahzodalarga topshirilgan. Chunonchi, 1512-yilda G'ijduvonda shayboniylar bilan safaviylar o'rtasidagi hal qiluvchi jangda shayboniylar qo'shinining qalb qismiga Ubaydullo Sulton, o'ng qanotga Shayboniyxonning o'g'li Muhammad Temur, chap qanotga Ko'chkunchixonning o'g'li Abu Said Sultonlar qo'mondonlik qilishdi.

Qo'shinda *tayochi* mansabiga tayinlangan amaldor harbiy askarlarni to'plash, ularni harbiy yurishga tayyorlash masalasi bilan shug'ullangan. Shuningdek, u qo'shinning moddiy ta'minoti uchun ham mas'ul bo'lgan.

Jevachi mansabida xizmat qilgan amaldor esa qo'shinni qurol-yarog' bilan ta'minlash masalasi bilan shug'ullangan. Ayni paytda, u xonning qurol-yarog'i uchun ham javobgar bo'lgan.

Oliy bosh qo'mondon va sarkardalarning alohida topshiriqlari *yasovul* deb ataluvchi zobit tomonidan bajarilgan.

Xon *qurchi* tomonidan qo'riqlangan. Yalovbardor esa davlat bayrog'ini ko'tarib borgan.

Qo'rxona boshlig'i lavozimida xizmat qilgan harbiy esa harbiy qurolsozlik ustaxonasiga rahbarlik qilgan. An'anaga ko'ra, qo'shin askarlar soniga qarab bo'lingan. Ularga o'nboshi, ellikboshi, yuzboshi va mingboshilar boshchilik qilishgan.

Quroi-yarog'lar

Qo'shin o'q va yoy, nayza, bolta, qilich, qalqon, cho'qmor kabi qurollar bilan qurollantirilgan. O'q va yoy asosiy qurol edi. Ular hujum paytida ham, shahar yoki qal'a mudofaasida ham ishonchni to'la oqlagan.

Yoy (kamon) o'qi joylashtirib qo'yiladigan moslama *sadoq* deb atalgan. Askarning o'zini o'zi himoya qila olishida *sovut* va *dubulg'a* muhim rol o'ynagan.

To'fang (miltiq) bilan qurollantirilgan guruh *to'fandoz* deb atalgan. Qo'shinda to'fangni doimiy ravishda qo'llash XVI asrning o'rtalaridan boshlandi. Bu davr to'fanglarining stvoli misdan tayyorlangan edi. Keyinchalik ular Usmonli davlatining stvoli temirdan yasalgan to'fanglari bilan almashtirildi. Biroq butun XVII asrda ham o'q-yoy otliq askar uchun asosiy qurol bo'lib qolaverdi. Harbiy yurish chog'larida otlarni o'qlardan himoya qilish uchun otlar ustiga *kejim* deb ataluvchi maxsus yopinchiq yopishgan. Bunday yopinchiq Yevropadan ham olib kelingan.

Harbiy harakatlarda *naftandoz* (neftni yondirib otuvchi) va *manjanaq* (tosh otuvchi) qurollar, asosan, shahar yoki qal'alarni qamal qilishda, shuningdek, dushman qo'shinining safini to'zgitib yuborishda qo'llanilgan.

Manbalarda qayd etilishicha, xonlik qo'shinida *zambaraklar* ham bo'lgan. Ashtarxoniylar hukmronligi davrida xonlikning iqtisodiy taraqqiyoti tobora pasayib bordi. Buning asosiy sababi markaziy hokimiyatning nihoyatda kuchsiz bo'lib qolishi natijasida siyosiy parokandalik yuz berganligi edi. Iqtisodiy tanazzul oqibatida ashtarxoniylar davrida xonlik muntazam qo'shin saqlay olmadi.



1. Qo'shin turlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Qo'shinda xizmat qilgan tug'chi, yalovbardor, tavochi, yasovul va jevachi mansabidagi harbiylar qanday ishlar uchun mas'ul bo'lishgan?
3. Qo'shin qurol-yarog'larning qanday turlari bilan qurollantirilgan?



Maktabingizdagi „Chaqiriqqacha bo'lgan boshlang'ich tayyorgarlik“ o'qituvchisi yordamida bugungi O'zbekiston armiyasi qanday tarqibiy qismlardan tashkil topganligini aniqlab keling!

11-§. Buxoro xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Yer egaligi munosabatlari

Shayboniylar Movarounnahrda yangi ishlab chiqarish munosabatlarini olib kelgani yo'q. Aksincha, temuriylar davrida shakllangan ijtimoiy munosabatlarni qabul qildilar va unga moslashdilar.

Xonlikda barcha yerlar davlat mulki edi. Bu mulk *mamlakai podshoh* yoki *mamlakai sulton* deb atalgan. Yerni tasarruf etish xonning ixtiyorida edi. Xon davlat yerlarini *mulki xos*, *mulki xolis* (mulki hur), *mulk* va *vaqf* yerlari shaklida taqsimlagan.

Bevosita shaxsan xonning o'ziga tegishli yerlar *mulki xos* deb atalgan. Bu yerdan olingan daromad xonning xarajatlariga hamda vaqflarga xayr-ehson uchun sarflangan.

Mulki xolis davlatdan yer sotib olish orqali qaror topgan. Biroq bu oson emas edi. Chunki shartga ko'ra, davlatdan yer sotib olgan kishi shu yerning 2/3 qismini davlat ixtiyorida qoldirgan. O'ziga qolgan 1/3 qism yer uning mulki hisoblangan va davlatga soliq to'lashdan ozod etilgan.

Mulk yer esa *suyurg'ol* va *tanho* shaklida belgilangan. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon temuriylarga, temuriylar davri amaldorlariga qarashli barcha yerlarni musodara qildi. Ularni faqat o'z sulolasi va killariga bo'lib berdi.

Yer egaligining *suyurg'ol* shakli dastlab xonga uning egalarini itoatda tutib turishning kuchli vositasi bo'lib xizmat qildi. Muhammad Shayboniyxon istagan vaqtda viloyat hokimlarining o'rnini almashtira olardi. Markaziy hokimiyatga ozgina itoatsizlik qilgan *suyurg'ol* egasini bunday huquqdan mahrum qilardi. Vaqtlar o'tishi bilan *suyurg'ol*ning otadan bolaga meros bo'lib o'tishi belgilandi.

1512-yilda shayboniylar Movarounnahrni ikkinchi marta egallagach, shayboniy sultonlar mamlakat viloyatlarini qayta taqsimlashni shayboniylarning eng nufuzli vakili Jonibek Sultonga topshirdilar. Uning ra'yiga ko'ra, Samarqand Ko'chkunchixonga, Toshkent viloyati Suyunchxo'jaga, Buxoro va uning atroflari Ubaydulla Sultonga meros mulk qilib berildi. Miyonqol viloyati Jonibek Sultonning o'ziga tegdi.

Hududlarning yaqin qarindoshlariga bo'lib berilishi mamlakatda yagona sulola oila hukmronligini ta'minladi. Yurt egalari o'z hudud-

didagi qo'shinga ham qo'mondonlik qilardilar. Binobarin, qo'shin ham, oliy harbiy lavozimlar ham sulola vakillari qo'lida to'plandi. Lekin suyrug'ol mulklar bora-bora markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga intiluvchi kuchlarning kuchayishiga sabab bo'ldi. Vaqtlar o'tishi bilan esa ular xonga ham bo'ysunmay qo'ydilar. Shayboniylar davrida mulk egaligining ikkinchi shakli – *tanho* ham qaror topdi. Shayboniylargacha mavjud bo'lgan yer egaligining iqto turi yangicha nom – tanho (tanaxo) nomi bilan saqlab qolindi. U davlat arboblarga, harbiylarga, shuningdek, kichik davlat amaldorlariga davlat oldidagi sodiq xizmatlari uchun berildi.

Tanho yer olganlar *tanhodorlar* deb atalgan. Tanhoning hajmi, tanhodorning xizmatiga yarasha bir necha xonadondan yoki bir necha qishloqdan iborat bo'lgan. Tanhoga faqat ekin ekiladigan yer emas, balki tanho hududida joylashgan tegirmon va moyjuvozlardan keladigan daromadlar ham qo'shib berilgan. Shu tariqa, yer egalarining yangi qatlami shakllandi. Biroq tanho tanhodorning xususiy mulki hisoblanmagan. Tanhodor davlat xizmatidan ketganida yoki vafot etganida tanho yerlari boshqa davlat xizmatchisiga berilgan.

Shayboniylar o'tkazgan islohotlar Shayboniylar davrida vaqf yer-mulkinging hajmi tobora ortib bordi.

Yerlarning turli shakllarga bo'linishi bevosita davlat xazinasiga tushadigan soliq daromadlarining kamayishiga olib kela boshladi. Soliq tushumining kamayishi shayboniylarni qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qator chora-tadbirlar ko'rishga majbur qildi. Soliqlar og'irligidan va mulkdorlar jabr-zulmidan, shuningdek, mamlakat ichkarisidagi notinchlikdan o'zlari yashab kelgan joylardan qochib ketgan dehqonlar va mayda yer-mulk egalari topib kelindi hamda yerlari qaytarib berildi. Yerni ishlab chiqarishga kiritishda ularga davlat tomonidan yordam berildi.

Muhammad Shayboniixon xonlik iqtisodiyotini tartibga solish va savdoni rivojlantirish maqsadida 1507-yilda pul islohoti ham o'tkazdi. Unga ko'ra, to shu vaqtgacha muomalada bo'lgan turli o'lcham va og'irlikdagi tangalar o'rniga vazni bir xil – 5,2 gramm bo'lgan yangi kumush va mis tanga zarb qilindi. Temuriylar davrida bitta kumush tanganing og'irligi 4,8 gramm bo'lib, uning qiymati oltita mis tangaga teng edi. Islohotdan keyin 5,2 grammlı kumush tanganing qiymati 24 ta mis tangaga teng bo'ldi. Bu islohot, ayni



Mis tanga. XVI asr

paytda, dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat mulkini ko'paytirishga xizmat qildi.

Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan bu va boshqa tadbirlar, o'z mohiyatiga ko'ra, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qildi.

Shayboniy Abdullaxon II o'tkazgan pul islohoti ham Buxoro xonligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. U mazkur islohotni o'tkazishda kumush narxining ko'tarilganini hisobga oldi. Islohotga ko'ra, yangi kumush tanganing qiymati 30 ta, eskisi esa 27 ta mis tangaga tenglashtirildi. Abdullaxon II ning pul islohoti tufayli kumush tanga ko'p miqdorda chiqarildi. Natijada, narxi ko'tarilgan kumushning ko'plab miqdorda boshqa davlatlarga chiqib ketishiga chek qo'yildi. U oltin pul zarb etishni ham yo'lga qo'ydi va uning tarkibiga qiymati past bo'lgan boshqa ma'danlar aralashtirilmasligini qattiq nazorat ostiga oldi. Bu pullar xonlikning butun hududida muomalaga kirdi. Bu islohot, o'z navbatida, hokimiyatning markazlashuviga, xazinaga katta daromad tushishiga olib keldi. Shuningdek, ichki va tashqi savdo-sotiq yanada rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Iqtisodiy hayot Shayboniylar davrida ham dehqonchilik iqtisodining yetakchi tarmog'i bo'lib qolaverdi. Uning rivojlanishi sun'iy sug'orish bilan bog'liq muammolarning qanchalik muvaffaqiyatli hal etilishiga bog'liq edi. Shuning uchun ham bu masalaga jiddiy e'tibor bilan qaraldi. Sulola vakillari Sangzor, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh va Murg'ob daryolari imkoniyatlaridan unumli foydalanish choralarini ko'rdilar.

Qashqadaryoning irmoqlaridan Kesh viloyati yerlarini sug'orish uchun 10 dan ortiq kanallar qazildi. Sun'iy sug'orish ishlari, ayniqsa, Abdullaxon II davrida keng rivojlandi. Masalan, 1556–1585-yillar oralig'ida Zarafshon daryosida qator suv ayirg'ichlari, ko'plab suv omborlari bunyod etildi. Nurota tumanidagi Oqchob yaqinida Bek-



Zarafshon daryosida qurilgan ko'prik – suv ayirg'ich



Abdullaxon bandi

larsoy darasida joylashgan qadimgi to'g'on qoldiqlari o'rnida ulkan to'g'on – Abdullaxon bandi qurildi. Uning ravoqlarini to'g'on tepasida turib ochish yoki berkitish mumkin edi. Abdullaxon bandiga 1 million 200 ming kub metr suv to'plangan.

Abdullaxon II karvon yo'llarini qayta tiklash, sardobalar, bozorlar, karvonsaroylar qurish va ta'mirlash masalasiga ham alohida e'tibor berdi. Xususan, 1577-yilda Buxoroda yirik, usti berk bozor – tim qurildi. Bu inshoot Abdullaxon timi deb ataladigan bo'ldi.



Abdullaxon timi

Soliq va majburiyatlar Xonlikda asosiy soliq sug'oriladigan yerdan olinadigan *xiroj* edi. U daromadning 30 foizdan 40 foizgachasini tashkil qilardi. Davlat muassasalari, qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan soliq *ixrojot* deb atalardi. Aholi mol-mulkidan olinadigan soliq – *zakot*, hukmdor uchun yig'iladigan maxsus soliq – *zobitona*, harbiy soliq – *mada-di lashkar* deb nomlangan edi. Davlat pulga muhtoj bo'lganida favqulodda soliqlar ham joriy etilgan.

Aholiga davlat oldida o'tashi shart bo'lgan *yasog* deb ataluvchi mehnat majburiyati ham yuklatilgan. Bu majburiyat aholini kanallar, zovurlar qazishga, yo'l va ko'priklar qurishga, yem-xashak tayyorlashga jalb etishni nazarda tutgan. O'zaro urushlar ko'payib ketgan yillari soliqlar bir necha yil uchun oldindan olinardi. Og'ir yillarda aholiga hatto *jizya* – jon boshi solig'i solinardi.



1. Buxoro xonligida yer egaligining qanday turlari bo'lgan va ular qanday shakllantirilgan?
2. Mulki xolis qanday tartibda shakllantirildi?
3. Suyurg'ol yer egaligining salbiy oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Shayboniyxon va Abdullaxon II o'tkazgan pul islohotlarini bir-biri bilan taqqoslang va xulosalaringizni bayon eting.
5. Buxoro xonligida qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun amalga oshirilgan ishlarni qayd eting.



Quyidagi savollarga javob topib keling:

1. O'zbekiston Respublikasida pul islohoti qachon o'tkazildi?
2. Avvalgi zamonlarda bo'lganidek, hozirgi kunda ham hamma yer davlat mulki. O'zbekistonda shu mulkdan hozirgi kunda qanday shakllarda foydalanilmoqda?

12-§. Buxoro xonligining tashqi siyosati

Buxoro xonligi va Rossiya munosabatlari Buxoro xonligining Rossiya bilan munosabati XVI asrning ikkinchi yarmidan rivojlana bordi. Abdullaxon II Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshilashga harakat qilar ekan, bu orqali o'z davlatining siyosiy ahvolini mustahkamlashga ham erishmoqchi edi. Chunki podsho Ivan

Grozniy davrida Rossiyaning mavqeyi ko'tarildi. Xususan, Qozon xonligi (1552-yil), Hojitarxon xonligi (1556), Volga bo'ylari va G'arbiy Sibir hududlari Rossiya tomonidan bosib olindi. Bu hol Rossiyaga savdo yo'llarini nazorat qilish imkonini berdi.

Volga atrofidagi viloyatlarda savdo-sotiq ishlarini olib borish Buxoro xonligidan kelgan savdogarlar uchun ancha qulay edi. Ularga eng yaqin qo'shni mamlakat Rossiya bo'lib qolgandi. Qolaversa, qozon tatarlari, orenburgliklar va boshqirdlar bilan din va til yaqinligi ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1557–1558-yillarda Buxoro xonligidan Moskvaga elchi yuborildi.



Ivan Grozniy

Ayni paytda, Rossiya ham Buxoro xonligi bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishdan manfaatdor edi. Bu manfaatdorlik avvalo xonliklarning Rossiya tovarlarini sotish uchun qulay bozorligida edi. Ikkinchidan esa, Rossiya O'rta Osiyo orqali Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'lardi. Bu o'rinda, birinchi navbatda, Hindistonga chiqish maqsadi hisobga olindi. 1555-yilda Moskvada ingliz-rus iqtisodiy aloqalari rivojiga xizmat qiluvchi „Moskva kompaniyasi“ tashkil etildi. 1558-yilda kompaniya Rossiya orqali Sharqqa yo'l ochish uchun o'z elchisi Antoniy Jenkinsonni Buxoroga yubordi. Elchi Abdullaxon II tomonidan qabul qilindi. Antoniy Jenkinson elchiligi natijasida Rossiya va Buxoro xonligi o'rtasida yaxshi savdo va diplomatik aloqalar yo'lga qo'yildi.

Rossiya bilan Buxoro munosabatlarida Ashtarxon (Astraxon) orqali Buxoro xonligi fuqarolarining Makka shahriga Haj safariga borishi masalasi ham muhim o'rin tutgan. Chunki Xuroson orqali haj safariga borishdagi eng qulay yo'l Eron safaviylari nazoratiga o'tib qolgan edi. Haj safariga Ashtarxon orqali borish masalasini hal qilish borasida Buxoro xonligi Usmonli davlati bilan birgalikda harakat qilishga qaror qildi. Bu bejiz emas edi. Chunki Usmonli davlati sultonlari musulmon olamining xalifasi hisoblanar edi.

XVI asrda yevropaliklar tomonidan dengiz savdo yo'lining ochilishi Buyuk ipak yo'lining ahamiyatini pasaytirdi. Shu tufayli Usmonli

davlati hech bo'lmaganda Ashtarxon yo'lini o'z nazoratida saqlab qolishdan manfaatdor edi. Shuning uchun oxir-qibat Rossiyaga qarshi harbiy harakat boshlashga qaror qildi. Tabiiyki, Usmonli sultoni buni Haj safari yo'lini ochish uchun harakat deb e'lon qildi.

1569-yilda Rossiya – Usmonli davlati o'rtasida urush boshlandi. Urushda Usmonli davlati yengildi. Shunday bo'lsa-da, sulton Rossiyadan Haj safari yo'lini ochib qo'yish talabini davom ettirdi. Oxir-qibat Rossiya 1572-yilda sultonning talabini qondirdi.

Rossiya – Buxoro manfaatlari Sibirda ham to'qnashdi. Zero, Janubi-g'arbiy Sibir shaybon ulusi tarkibiga kirgan.

1563-yilda Abdullaxon II ning harbiy yordami bilan Shayboniy Ko'chimxon Sibir xonligi taxtini egalladi.

1581-yilda Rossiya Sibir xonligiga qarshi Yermak boshchiligida qo'shin yubordi. Dastlab u g'alaba qozonsa-da, 1584-yilda mag'lubiyatga uchrab halok bo'ldi. Abdullaxon II o'z davlatidagi ichki ziddiyatlarni bartaraf etish va harbiy yurishlar bilan band bo'lganligi uchun keyinchalik Ko'chimxonga yordam bera olmadi. Shunday bo'lsa-da, u Ko'chimxonga yuborgan xatida o'zaro ichki ziddiyatlarni va kurashlarni tugatish orqali xonlikni halokatdan saqlab qolish mumkinligini uqtirdi. Shundan so'ng Rossiya bosib olgan hududlarni qaytarib olish lozimligini ta'kidladi. Biroq 1598-yilda Rossiya va Sibir xonligi o'rtasidagi hal qiluvchi jangda rus qo'shini g'alaba qozondi.

1598-yilda Abdullaxon II va Ko'chimxon vafot etgach, Buxoro xonligining Sibirdagi siyosiy ta'siri butunlay yo'qqa chiqdi. Lekin savdo-sotiq ishlari davom etaverdi.

XVII asrda Rossiyada markazlashgan davlat tarkib topa boshladi. Asr oxiriga kelganda Rossiya Yevropaning qudratli davlatlaridan biriga aylandi. Butunrossiya bozori shakllandi. Bu omillar Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo munosabatlarini yanada rivojlantirishni hayotiy zaruriyatga aylantirib qo'ydi. Natijada, Rossiya 1620-yildan 1675-yilgacha o'tgan davrda xonliklarga 4 marta elchilarini yubordi. XVII asrda O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasida savdoda tovar ayirboshlash 100 ming rublni tashkil etdi.

Rossiya elchilari Buxoro xonligi bilan faqat savdo aloqalarini kengaytirish masalalarini hal etibgina qolmadilar. Xususan, 1620-yilda Buxoroga yuborilgan Rossiya elchisi I.D.Xoxlovga Buxoro xonligining tashqi siyosiy ahvoli to'g'risida ma'lumot to'plash, Rossiyaning

kuch-qudratiga xonni ishontirish, Buxoro xonligi qurolli kuchlari, xonlikning xazinasi ahvolini batafsil o'rganish, Buxoro–Xiva munosabatlari masalalarini tahlil qilib chiqish kabi vazifalar ham yuklatilgan. I. D. Xoxlov o'ziga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajardi.

XVIII asrda Buxoro– Rossiya munosabatlari

XVIII asrda Buxoro xonligi va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarda yangi davr boshlandi. Bu davrga kelib Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklari, jumladan, Buxoro xonligi bilan savdo-sotiq aloqlarida kamsitish siyosati yuritila boshlandi. Xususan, boj to'lovi miqdori oshirildi.

Ayni paytda, siyosiy maqsadlarni ro'yobga chiqarish, tabiiy boyliklarga ko'z olaytirish kayfiyati kuchaya bordi. Rossiyani, ayniqsa, O'rta Osiyo oltinlari ham qiziqтира boshladi.

Pyotr I Buxoroni siyosiy jihatdan Rossiyaga teng davlatlar emas deb hisobladi va amalda unga tazyiq o'tkaza boshladi.

Shu maqsadda 1718-yilda Irtish daryosi sohilida yetti qo'rg'onidan iborat shahar (Semipalatinsk) qurdirdi. Bu esa Buxoro xonligini tashvishga solib qo'ydi. Shuning uchun ham Abulfayzxon Rossiyaga elchi yubordi. U o'z maktubida Buxoroga Rossiya elchisi yuborilishini ham so'radi. Bunga javoban Rossiya hukumati 1721-yili Florio Benevenini elchi qilib jo'natdi. Rossiya elchisiga O'rta Osiyoga olib boriladigan suv va quruqlik yo'llarini o'rganish, rus savdosini kengaytirish imkoniyatlarini aniqlash, Buxoro xonini Rossiya bilan ittifoq tuzishga ko'ndirish, xonga rus gvardiyachilarini taklif qilish; qayerda qancha oltin konlari borligini aniqlash va ularni xaritaga tushirish; xonlikdagi qal'alar va qo'shinning ahvolini o'rganish hamda xonlikning ichki ahvolini, shuningdek, Eron, Xiva va Usmonli bilan o'zaro munosabatlarini o'rganish vazifalari ham yuklatildi.

F. Beneveni Buxoroda 3,5 yil turib o'z oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'plashga muvaffaq bo'ldi va 1725-yilda Peterburgga qaytib ketdi.

Pyotr I ning yurtimizni bosib olish niyati uning hayotligida amalga oshmagan bo'lsa-da, keyinchalik vorislari tomonidan amalga oshirildi.

Buxoro–Eron munosabatlari

Buxoro va Eron manfaatlari to'qnashgan asosiy hudud Xuroson bo'ldi. Buning sababi Xurosonning harbiy-siyosiy va savdo-iqtisodiy

ji hatdan muhim ahamiyatga ega ekanligida edi. Bundan tashqari, Xuroson Buxoro xonligi, Eron va Hindiston yo'nalishida o'ziga xos darvoza vazifasini ham o'tar edi. Xurosonni nazorat qilish masalasida shayboniylar va safaviylar o'rtasida keskin kurash ketdi. Bu masalada Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II hukmronligi davrida shayboniylar ustunlik qildilar. Xususan, Abdullaxon II Xurosonning Marv, Nishopur va Mashhad kabi yirik shaharlarini egalladi.

Abdullaxon II Eronga qarshi kurashda Usmonli davlati bilan ittifoq tuzishga urinib ko'rdi. Biroq maqsadiga erisha olmadi va oxir-oqibat Eron Xurosonni Movarounnahrda ajratib tashlashga muvaffaq bo'ldi.

Ashtarxoniylar davrida ham Eron bilan munosabatlar keskinligicha qoldi. 1740-yilda esa Eron Buxoro xonligini qaram davlatga aylantirishga erishdi.

Buxoro – Hindiston munosabatlari

Hindistondagi Boburiylar saltanati bilan Buxoro xonligi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining o'rnatilishi Bobur va Ko'chukunchixonlar nomi bilan bog'liq. Ko'chukunchixon hukmronligi davrida Buxoro xonligi Boburiylar davlatini tan oldi. U bilan savdo va elchilik munosabatlarini o'rnatdi.

Buxoro elchisi xon tomonidan Boburga Movarounnahrning mashhur mayizlaridan, subhoni o'riklaridan va boshqa noyob ne'matlaridan



Akbarshoh

iborat sovg'a-salomlari qatorida 200 ta yaxshi ot ham olib keldi. O'z navbatida, Bobur ham Buxoro xonligiga elchilar yubordi. Ikki davlat o'rtasidagi bunday munosabatlar keyingi shayboniy va boburiy hukmdorlar davrida yanada kengaydi. Xususan, Abdullaxon II safaviylarga qarshi kurashda boburiylar bilan birga harakat qilishga intildi. Shu sababdan Abdullaxon II Akbarshoh huzuriga bir necha marta elchilarini yubordi. Abdullaxon II Akbarshohga Eronni o'zaro taqsimlab olishni taklif qildi. Lekin Akbarshoh bunga rozi bo'lmadi. Chunki Akbarshoh fuqarolari turli din va

diniy yo'nalishlarga e'tiqod qiluvchi davlatlarning bir-biriga toqat qilib yashashlari tarafdori hamda diniy bag'rikenglikni davlat siyosati darajasiga ko'targan hukmdor edi. Qolaversa, u Eron bilan yaxshi munosabatda ham edi.

1586-yilda Akbarshoh Abdullaxon II ga yo'llagan maktubida Usmonli davlati Eronning bir qismini bosib olganligidan tashvishlanayotganligini bayon etdi. Ayni paytda, Buxoro va Hindiston birgalikda Eronga yordam ko'rsatishi zarurligini ta'kidladi. Biroq Eron shayboniylar davlatini o'zining asosiy raqiblaridan biri deb hisoblab kelayotgani uchun Abdullaxon II Akbarshoh taklifiga rozi bo'lmadi.

Boburiy hukmdorlar Shoh Jahon va Avrangzeb Olamgirlar hukmronligi davrida ashtarxoniylar bilan savdo-sotiq aloqalari davom etdi.



1. Qanday omillar Buxoro–Rossiya o'rtasida savdoning rivojlanishiga xizmat qildi?
2. Buxoro–Rossiya manfaatlari to'qnash kelgan masalalarni qayd eting.
3. XVIII asrda Rossiya–Buxoro munosabatlarida nima sababdan o'zgarish yuz berdi?
4. Buxoro–Eron munosabatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Buxoro–Hindiston munosabatiga oid asosiy jihatlarni qayd eting.



Bugungi kunda do'stona Rossiya Federatsiyasining O'zbekistonda atom elektr stansiyasi qurishiga oid ma'lumotlarni to'plab keling.

13-§. Buxoro xonligida madaniy hayot

Ilm-fan rivoji Shayboniy hukmdorlar orasida ham o'qimishli, ziyoli davlat arboblari bor edi. Ular madrasa ta'limini olgan, dunyoviy va diniy bilimlarni egallagan shaxslar edi. Shuningdek, o'zbek, fors va arab tillarini bilishgan. Ayniqsa, she'riyat borasida o'ta iste'dodli bo'lishgan. Forschani g'azal yozish darajasida mukammal egallashgan.

Ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilikning ravnaq topishida sulola vakillarining xizmati katta bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, shayboniylar temuriylar davrida yurtimizda yuksak rivojlangan va dunyo e'tirof etgan ilm-fanga munosib voris bo'la olmadilar.

Shayboniylar davrida tibbiyot, matematika va astronomiya kabi fanlar ma'lum darajada rivojlandi. Tibbiyot ilmidagi rivojlanish o'z zamonasida „tabiblar iftixori“ deb sharaflangan *Muhammad Mazid*, jarroh mavlono *Baqo*, ko'z kasalliklarini davolashda nom chiqargan *Shohali ibn Sulaymon*, „Davolash bo'yicha dastur“ asari muallifi *Sultonali Samarqandiy*, „Ko'z kasalligiga doir asosiy kitob“ asarlari bilan mashhur bo'lgan *Ubaydulloh Kahhol* kabi alloma tabiblarning nomlari bilan bog'liqdir. *Muhammad Amin*, *Bobokalon Samarqandiy*, mavlono *Kavkaviylar* matematika, *Muhammad Husayni Buxoriy* „Qibla tomonini topish ma'rifati“, *Mahmud ibn Ahmad Faroziy* esa „Oy fazolarining tengligi haqida risola“ asarlari bilan astronomiya fanlari rivojiga munosib hissa qo'shdilar.

Afsuski, ashtarxoniylar davrida jamiyat hayotida diniy mutaassiblik keng yoyildi. Barchadan diniy aqidalarga so'zsiz itoat etish talab etildi. Bu omillar ilm-fan ravnaqiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shunday bo'lsa-da, ilm-fan to'xtab qolgani yo'q.

Xususan, Mir Arab madrasasining mudarrisi *Muhammad Sharif Buxoriy* tarix, fiqh, tilshunoslik, astronomiya va boshqa fanlarga oid 20 dan ortiq asar yozib qoldirgani buning dalilidir. Ular orasida „Xoqonga foydali maslahatlar“ asari alohida ahamiyatga ega.

Subhonqulixon hukmronligi davrida tibbiyot ilmi rivojlandi. Uning tashabbusi bilan Buxoroda „Dor ush-shifo“ qurildi va bemorlarni davolash ishi yo'lga qo'yildi. Tibbiyotga ixtisoslashgan madrasa qurilib, shifokorlar tayyorlandi. *Subhonqulixonning* tibbiyotga oid kitoblar jamlangan nodir kutubxonasi bo'lgan. U „Subhoniylar tibbiyoti bo'yicha davolash“ nomli kitob ham yozib qoldirdi.

Tarixnavislik Shayboniylar davrida tarix fani sohasida ko'plab yirik asarlar yaratildi. Ular orasida *Kamoliddin Binoiyning* „Shayboniynoma“, *Muhammad Solihning* „Shayboniynoma“, *Muhammad Haydarning* „Tarixi Rashidiy“, *Fazlulloh ibn Ro'zboxorning* „Mehmonnomayi Buxoro“, *Hofiz Tanish al-Buxoriyning* „Abdullanoma“, („Sharafnomayi shohiy“), *Sulton Muhammad Hofiz Toshkandiyning* „Tarixi jadidayi Toshkand“ kabi asarlari shular jumlasidandir.

K. Binoiyning „Shayboniynoma“ asari Dashti Qipchoq va Movarounnahrning XV asr o'rtalaridan XVI asr boshlarigacha bo'lgan davr voqealarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, shayboniylar bilan Eron safaviylari o'rtasidagi munosabatlar haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Muhammad Solihning „Shayboniyнома“si esa o‘zbek tilida yozilgan asar bo‘lib, u Shayboniyxonning harbiy yurishlariga bag‘ishlangan.

„Abdullanoma“ asari muallifi mazkur asarini Chingizxonning Movarounnahr istilosi, chingiziylar hukmronligining o‘rnatilishi, Dashti Qipchoqda Abulxayrxon davlatining tashkil etilishi, Shayboniyxonning harbiy yurishlari, uning o‘limidan so‘ng Movarounnahrda vujudga kelgan ahvol, Abdullaxon II ning mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish yo‘lida olib borgan kurashi tarixiga bag‘ishlagan.

XVII–XVIII asrning birinchi yarmida ham Buxoroda tarix fani sohasida qator tarixiy asarlar yozildi. Xususan, *Muhammad Yusuf Munshiyning „Tarixi Muqimxoniy“, Muhammad Amin Buxoriyning „Ubaydullanoma“ va Abdurahmon Tolening „Abulfayzxon tarixi“* kabi asarlari shular jumlasidandir.

Adabiyot Bu davr adabiyotida *Muhammad Shayboniyxon*, uning jiyani *Ubaydullaxon*, *Kamoliddin Binoiy*, *Muhammad Solih* va boshqalar alohida o‘rin tutadi.

Umrining asosiy qismini jang-u jadallarda o‘tkazgan Muhammad Shayboniyxon, ayni paytda, she‘riyat bilan ham shug‘ullandi. U o‘zidan yuqori saviyali badiiy asarni meros qilib qoldirdi. Uning asarlari dunyoning turli mamlakatlariga olib ketilgan. Masalan, uning yagona she‘rlari to‘plami – „Devon“i Istanbul shahri kutubxonasida saqlab kelinmoqda.

Muhammad Shayboniyxon she‘rlarida, ayniqsa, Samarqand va Buxoro shaharlarini eng ko‘p madh etdi. Chunonchi, bir she‘rida Samarqandni jannatga qiyoslaydi. U she‘rlarining birida bunday deb kuylaydi:

*Ketmadi ko‘ngildan hech diydori Samarqandning,
Ko‘zimdin uchar har dam gulzori Samarqandning.
Har negaki shahd o‘lsa dunyoda latif, ammo
Barchadin erur yaxshi bemori Samarqandning.*

Buxoro shahrini esa Ka‘ba darajasida ulug‘ladi.

Muhammad Shayboniyxonning jiyani Ubaydullaxon o‘zining g‘azal, ruboiy, qit‘a va tuyuqlari bilan she‘riyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. U „Ubaydiy“, „Ubaydullo“ va „Qul Ubaydiy“ taxalluslari bilan ijod qildi:

*Muhtojga qayishish – asli karomat shuldir,
Bir ishki, yo‘q ortida malomat – shuldir.
Har ikki jahonda, soliko, iymonni
Qutqaruvchi chin ruhi salomat shuldir.*

U fors va arab tillarini yaxshi bilganligi uchun shu tillarda ham ijod etdi. O‘zbek, fors va arab tillaridagi she‘rlarini uch devonda to‘pladi. Keyinchalik ular bitta muqova ichiga jamlandi va u „Kulliyot“ deb nomlandi.

Ruboiynavislikning *Bobur Mirzodan* keyingi taraqqiyoti Ubaydullaxon nomi bilan bog‘liq. U ayni paytda *Ahmad Yassaviy* asos solgan hikmatnavislik an‘anasini rivojlantirdi. Undan 220 dan ortiq hikmat meros qoldi.

Muhammad Shayboniyxon, Abdulazizxon va Abdullaxon I–II larining kutubxonalari o‘z zamonasining ajoyib kitob xazinasi bo‘lgan edi.

XVII–XVIII asr birinchi yarmi adabiy muhitida *Bedil* (asli ismi Mirzo Abdulqodir, 1644–1721)ning o‘rni katta. U asli keshlik (Shahrisabz) bo‘lib, Dehlida vafot etgan. Uning yirik asari – „To‘rt unsur“ nasrda yozilgan bo‘lib, unda havo, suv, yer, olov haqida, shuningdek, o‘simliklar, hayvonlar va odamning kelib chiqishi haqida o‘z qarashlari bayon etiladi. U she‘rlarida jamiyatdagi jabr-zulm, adolatsizlik kabi illatlarni qoraladi. Bedil „Abulma‘oniy“ („Ma‘nolar otasi“) nomi bilan shuhrat qozondi.

Bu davr adabiyotining yirik namoyandalaridan yana biri shoir *Sayido Nasafiy* edi. U Nasaf (Qarshi) shahrida tug‘ilgan. Zamonadoshlari uni „Buxoro shoirlari taxtida sulton“ deb ulug‘laganlar.

Uni mashhur qilgan „Hayvonotnoma“ nomli majoziy munozara asari edi. Nasafiy mazkur asarida hayvonlar timsoli orqali zodagon va amaldorlarning mehnatkash xalqqa o‘tkazgan jabr-zulmlarini, ularning poraxo‘rligi va ma‘naviy pastkashliklarini fosh etdi. Bo‘ri va sher timsolida zodagonlarning yirtqichlikdan iborat asl basharalarini ochib tashladi. Asarda sher barcha hayvonlar ustidan g‘alaba qozonsa-da, mehnatkash xalq timsoli bo‘lgan chumolidan yengiladi.

Bu davr adabiyotida *Turdi Farog‘iy* ham munosib o‘rin egallaydi. Turdi jamiyatdagi adolatsizliklarni, Subhonqulixonning xalqni og‘ir soliqlarga duchor etganligini va buning oqibatida xalq tortayotgan azob-uqubatlarini ro‘yirost tanqid qila olgan jasoratli shoir edi:

*Yedingiz barchangiz itdek fuqaroning etini,
G'asb ila molin olib, qo'ymadingiz bitini.*

Turdi xalqning tilidan mamlakatni xonavayron qilgan siyosiy tarqoqlik, u keltirib chiqargan qirg'inbarot urushlarni la'natlagan. Urug' va qabilalarni birlashishga va o'zaro hamkorlik qilishga da'vat etgan. Urug' oqsoqollarini va beklarni bir yoqadan bosh chiqarishga chaqirgan.

Bu o'rinda Turdining „Tor ko'ngullik beklar“ she'ri alohida ahamiyatga ega:

*Tor ko'ngullik beklar, manman demang, kenglik qiling,
To'qson ikki bovli o'zbek yurtidir, tenglik qiling...*

Me'morchilik Shayboniy hukmdorlar poytaxt Buxoro va uning atroflarini obod qilishga harakat qildilar. XVI asr davomida shu davrning barcha muhandislik imkoniyatlari va jamiyatning ma'naviyat va madaniyati darajasiga mos ravishda ko'plab binolar, me'moriy majmualar, inshootlar bunyod etildi.

Ularning orasida Buxorodagi *Mir Arab*, *Abdullaxon*, *Qulbobo Ko'kaldosh*, *Nodir devonbegi*, *Ernazar elchi*; Samarqandda qurilgan *Shayboniyxon*, Toshkentda qurilgan *Baroqxon* va *Ko'kaldosh* madrasalari me'morchiligimizning yorqin namunalari hisoblanadi. Baroqxon madrasasi shayboniy hukmdor Suyunchxo'janing o'g'li Baroqxon tomonidan qurildi. Madrasa gumbazining balandligi 22 metrni tashkil etadi. Bu madrasada yurtimizning mustaqillik yillarida ham katta ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

XVII asrda *Samarqand Registon* ansamblining hozirgi qiyofasi shakllantirildi. XVI asrning birinchi yarmida Samarqand hokimi Ya-



Nodir devonbegi



Registon maydoni

langto'sh Bahodir vayrona holatiga tushib qolgan Registon maydonida *Ulug'bek madrasasi* qarshisida *Sherdor madrasasini*, uning yonida esa *Tillakori madrasa-masjidini* o'z mablag'lari hisobidan bunyod ettirdi. Unga tilladan ishlov berildi. Samarqand Registon ansambli o'zining rang-barang koshinkor bezaklari, naqshinkor peshtoqlari, ulkan gumbazlari bilan O'rta Osiyo me'morchiligining noyob tarixiy yodgorligi sifatida jahon jamoatchiligi va sayyohlar e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Buxoro xonligida ta'lim Shayboniylar ta'lim sohasida ham islohot o'tkazdilar. Islohot o'tkazilishiga amaldorlar guruhini shakllantirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zarurati sabab bo'ldi. Xonlarga va sultonlarga barcha sohalar bo'yicha ilmi, diplomatik qobiliyatga ega bo'lgan amaldorlar zarur edi. Islohotga ko'ra, ko'p bosqichli o'qitish tizimi joriy etildi. Har bir mahallada maktab ochildi, ba'zi xonadonlarda uy ta'limi joriy etildi. Bolalarga 6 yoshdan ta'lim beriladigan bo'ldi. Maktabda ikki yil o'qigach, o'quvchilar madrasaga o'tkazilardi.

Madrasa ta'limi uch bosqichli bo'lib, uning har bir bosqichida 7 yildan o'qilgan va o'quv jarayoni 21 yil davom etgan. O'quvchilar ilohiyot ilmi, hisob-kitob, handasa, fiqh, mantiq, musiqa, she'r san'atidan ilm olishgan.

XVII–XVIII asrlarda shahar va qishloqlarda ko'plab maktabxonalar faoliyat ko'rsatgan. O'g'il va qiz bolalar alohida-alohida maktablarda o'qitilgan. O'g'il bolalar maktablari masjidlar, madrasalar, xo'jalik yurituvchi ustaxonalar qoshida yoki xususiy maktabdorlar xonadonlarida

tashkil etilgan bo'lib, masjid imomi yoki madrasani tugatgan ziyoli kishilar o'qituvchilik qilishgan. Ularni domla deyishgan. Qiz bolalar maktablari badavlat kishilar yoki o'qituvchi ayollar uylarida tashkil etilgan. Qizlarni otinoyi, otinbibi, bibixalifa, bibiotin deb atalgan ayol o'qituvchilar o'qitishgan. Bolalar maktabga 6–7 yoshdan berilgan va ular 5–8 yil davomida boshlang'ich ta'lim olganlar.

O'quvchilarga avval harflar, keyin esa bo'g'inlar, ularni qo'shish orqali so'z tuzish, „Haftiyak“ (Qur'oni Karimning yettidan biri) kitobini o'qish o'rgatilgan. Hisob darstarida sonlar va to'rt amal o'rgatilgan. O'quvchilar Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy va So'fi Olloyor asarlarini, „Chor kitob“ni o'qib saboq olganlar. Qizlar maktabxonalarida uy-ro'zg'or tutish, pazandachilik, odob-axloq, pokizalik sirlarini o'rganishga ko'proq e'tibor berilgan.

Bolalar o'qishni to'liq o'zlashtirib olganlaridan keyingina yozishga o'tganlar. Maktabxonalarda imtihonlar o'tkazilmagan. O'quvchilarga maktabni bitirgani to'g'risida hujjat ham berilmagan. Bolaning ravon o'qishi, to'g'ri yoza olishi, hisob-kitobni bilishi maktabni bitirganligining isboti bo'lgan.

Madrasa o'rta va oliy o'quv yurti hisoblangan. Madrasaga maktabxonalarini tugatganlar qabul qilingan. Madrasa ta'limi talabalar iqtidoriga qarab 7–12 yil davom etgan. Buxoro xonligi shaharlarida 150 dan ortiq madrasa bo'lgan. O'qish „Avvali ilm“ deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirishdan boshlangan. So'ng arab va fors tilida yozilgan kitoblar o'qitilgan. Ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan. Keyin arab tili grammatikasi o'qitilgan. Fiqh (huquq)ni o'rganish majburiy hisoblangan. Xonlikda ta'lim xarajatlari vaqf mulki daromadlari hisobidan amalga oshirilgan.

E'tibor bergan bo'lsangiz maktabxonalarda eng muhim tabiiy fanlar o'qitilmagan. Buning sababi, birinchidan, diniy mutaassiblikning kuchayganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, xonlikning tashqi aloqasi o'zi kabi kam taraqqiy etgan davlatlar bilan cheklanib qolgan hamda ilg'or Yevropa davlatlari bilan aloqani yo'lga qo'ya olmaganligida edi. Shuning uchun ham ajdodlarimiz zamonaviy, tabiiy va texnika fanlari yutuqlaridan bexabar qolishdi. Natijada, mamlakat taqdiri uchun mas'ul bo'lgan hukmdorlar, davlati arkon, sulola vakillari o'z qobig'iga o'ralashib qoldilar.



1. Shayboniylar davrida ilm-fanning qaysi sohaları rivojlandi?
2. Tarix fani sohasida yaratilgan yirik asarlarni qayd eting. Ularning bugungi avlodlar uchun ahamiyati nimada?
3. Subhonqulixonning tibbiyot ilmiga qo'shgan hissasi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Muhammad Shayboniyxon va Ubaydullaxonlarning o'sha davr adabiyoti rivojiga qo'shgan hissaları haqida so'zlab bering.
5. Bedil va Sayido Nasafiy ijodlarini taqqoslang.
6. Turdi ijodiga xos jihatlarni qayd eting.
7. Nega ajdodlarimiz eng muhim tabiiy va texnika fanlari yutuqlaridan bebahra qoldilar?



1. Bobolarimiz bunyod etgan eng mashhur me'morchilik obidalarining ro'yxatini tuzing.
2. Buxoro xonligidagi ta'lim tizimi bilan O'zbekistondagi bugungi ta'lim tizimini taqqoslang.

14-§. Buxoro amirligining tashkil topishi

Buxoro xonligining davlat mustaqilligini yo'qotishi

Buxoro xonligida vujudga kelgan parokandalik Eronning Buxoroga hujum qilishi uchun qulay sharoit yaratdi. Shuning uchun ham 1736-yilda Eron shohi Nodirshohning o'g'li Rizoquli yetakchiligidagi qo'shin Amudaryodan o'tdi va ko'pgina hududlarni bosib oldi.

Shunday og'ir sharoitda Buxoro xoni Xiva xonidan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Xiva xoni Elbarsxonning yordamga kelayotganligi sababli Rizoquli qo'shinni orqaga qaytarib ketishga majbur bo'ldi.

1740-yilda endi Nodirshohning o'zi Buxoroga qarshi qo'shin tortdi. Buxoro xonligida muntazam qo'shinning mavjud bo'lmaganligi va o'z xonligida ichki nizolarni bartaraf etish bilan ovora bo'lib qolgan Xiva xonining Buxoroga yordam bera olmaganligi Nodirshohga juda qo'l keldi.

Buning ustiga Muhammad Hakimbiy otaliqning o'g'li Muhammad Rahim Nodirshoh tomoniga o'tib ketdi. Nodirshohning yaqinlashib kelayotganidan qo'rquvga tushgan Abulfayzxon Qarshidan Hakimbiy otaliqni chaqirib oldi va Nodirshoh huzuriga elchi qilib jo'natdi. Unga Nodirshohning Buxoro xonligini xarobaga aylantirmaslik shart-

lari haqida kelishuvga erishish vazifasini yukladi. Hakimbiy bu vazifani uddaladi.

Buxoro Eron bosqiniga qarshi tura olmagach, Abulfayzxon taslim bo'lish shartlari haqidagi shartnomani imzolashga majbur bo'ldi.

Shartnomaga ko'ra, Nodirshoh oliy hukmdor, Buxoro xonligi esa Eronga qaram davlat deb tan olindi. Shuningdek, katta miqdorda o'lpon to'landi. Bundan tashqari, Buxoro xonligi aholisidan 10 ming nafarlik qo'shin to'planib, Nodirshoh ixtiyoriga jo'natildi. Bu qo'shinga Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahim qo'mondon etib tayinlandi. Shu tariqa, Abulfayzxon amalda Eronga qaram qo'g'irchoq hukmdorga aylandi. Muhammad Hakimbiy esa qo'shbegi (Bosh vazir) lavozimini egalladi. Butun hokimiyat amalda uning qo'lida to'plandi. Endi ashtarxoniylar hukmronligining barham topishi muqarrar bo'lib qoldi.


Mang'itlar sulolasi hokimiyatining o'rnatilishi

Buxoroda ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida o'zbek qabilalaridan biri mang'itlarning nufuzi baland edi. Bu qabila hokimiyat to'la ashtarxoniylar qo'lida bo'lib turgan davrlarda ularga sadoqat bilan xizmat qildi. Biroq, keyinchalik, Buxoroda mang'itlar alohida nufuzga ega bo'lish uchun astoydil kurashdilar va Hakimbiy davrida bu maqsadga erishdilar.

Muhammad Hakimbiy 1743-yilda vafot etgach, Rahimbiy o'z qo'shini bilan Buxoroga qaytib keldi va o'zining muntazam qo'shinga egaligidan foydalanib, hokimiyatda otasi kabi alohida mavqe uchun da'vogarlik qila boshladi. So'nggi ashtarxoniy Abulfayzxon uni otasining o'rniga tayinlashga majbur bo'ldi.

Nodirshoh 1747-yilda o'ldirilganidan so'ng Eronda boshlangan ichki kurashlar Muhammad Rahimbiyning Buxoro taxtini egallashiga yo'l ochdi. Uning buyrug'i bilan Abulfayzxon 1747-yilda o'ldirildi. Muhammad Rahimbiy taxtga Abulfayzxonning o'g'li Abdulmo'minni o'tqazdi va uni o'ziga kuyov qilib oldi. Ko'p o'tmay Muhammad Rahimbiy soxta xonlarni ham qatl ettirdi va 1756-yilda hokimiyatni to'la egalladi. Biroq mang'itlar chingiziylar nasliga mansub emas edilar. Shuning uchun mang'it hukmdorlari o'zlarini xon deb emas, amir deb atadilar.

XVII–XVIII asrlarda Oʻrta Osiyo xonliklari





Shunday qilib, 1756-yili Buxoroda hokimiyat tepasiga yangi sulola – mang‘itlar sulolasi keldi. Sulola davlatni 1920-yilgacha idora qildi. 1756-yildan boshlab Buxoro xonligi endilikda Buxoro amirligi deb ataladigan bo‘ldi.

Markaziy hokimiyatni mustahkamlash

Amir Muhammad Rahim mamlakatda o‘zining mutlaq hokimiyatini o‘rnatish hamda ichki bosh-boshdoqlikni tugatish siyosatini yuritdi. Bu siyosatdan ko‘zlangan maqsad – davlatni markazlash-tirish edi. Muhammad Rahim maqsadini ro‘yobga chiqarishga qat’iy kirishdi.

Mustaqillikni da’vo etib yurgan Miyonqol, Nurota, Qo‘bodiyon, Boysun, Shahrisabz hamda Urgut viloyatlarini to‘rt yil davomida bo‘ysundirdi. Ayni paytda, markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaslikka urinayotgan qabilalarni yashab turgan joyidan ko‘chirtirib yuborish amaliyotini ham qo‘lladi.

Doniyoibiy otaliq va Amir Shohmurod

Muhammad Rahim vafotidan so‘ng uning amakisi Doniyoibiy otaliq hokimiyatni o‘z qo‘liga oldi (1758–1785). U qo‘shinni mustahkamlashga, unga tayanib ish ko‘rishga harakat qildi. Barcha mang‘it beklariga katta yer-mulkni *tanho* qilib berdi. Xalqdan olinadigan soliqlarni ko‘paytirdi. Bundan norozi xalq qo‘zg‘olon ko‘tarar, Doniyoibiy esa ularni bostirishga ulgurmasdi. Uning davrida Balx, Hisor, Ko‘lob, O‘ratepa viloyatlarining mustaqillikka intilishlari kuchaydi. Katta yer egalarning o‘zboshimchaligi haddan oshdi. Doniyoibiy shunday sharoitda taxtni o‘g‘li Shohmurodga (1785–1800) topshirdi. Shohmurod darveshona hayot kechirar, shayx maslahati bilan bozorda yuk tashuvchilik qilardi. Keyin esa pichoqqa qin yasab sotib, shu orqali ro‘zg‘or tebratdi. Shohmurod faoliyatida ommaga tayanib ish tutdi. Adolat tamoyillariga qattiq amal qildi. Shu jihatlari bilan xalq orasida katta obro‘ qozongan edi.

Amir Shohmurod yoshligidan xudojo‘y, porso (pokiza) bo‘lib o‘sdi. Madrasani bitirib, darveshlik jamoasi targ‘ibotchisidan biriga aylandi. Xalq uni hurmat bilan „amiri ma’sum“ (begunoh amir) deb atadi.

Amir Shohmurod islohotlar o‘tkazib, davlatni mustahkamlashga erishdi. U mamlakat hayotida savdogar va hunarmand qatlamining

qanchalik ahamiyatga egaligini to'g'ri baholay oldi. Shuning uchun ham savdo va hunarmandchilikning o'sishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlab berdi. Xususan, Buxoro aholisiga *Tarxon* yorlig'i yozib berdi. Unga ko'ra, aholi savdo daromadidan to'laydigan boj solig'idan ozod etildi. Hunarmandlardan pul yig'ish, ularni majburiy mehnatga jalb etish taqiqlandi. Asosiy soliq – *xiroj* miqdori kamaytirildi.

Shuningdek, urush kelib chiqqanida qo'shinning xarajati uchun *jul deb* ataluvchi yangi soliq joriy etildi. Zarafshon vodiysida, Amudaryo va Qashqadaryo vohalarida sug'orish tizimlarini qayta tiklatdi. Ayni paytda markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamagan viloyat hokimlariga qarshi shiddatli kurash olib bordi. Rais (muhtasib) va qozi askar (harbiy sud) mansablarining nufuzini yanada orttirdi. Mamlakat iqtisodini yo'lga qo'yishda Shohmurod o'tkazgan pul islohoti ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ashtarxoniylar davrida zarb qilingan tangalarda kumush miqdori kamaytirib yuborilgan edi. Islohotga ko'ra, sof kumush tanga muomalaga kiritildi. Shuningdek, kimda kumush bo'lsa, zarbxonaga kelib undan pul zarb ettirib olishiga ruxsat etildi. Bu kumush chayqovchiligining oldini oldi.

Shohmurod joriy qilgan qonun bo'yicha kim mol-mulkka xiyonat qilsa, jamiyatdagi martabasidan qat'i nazar qattiq jazoga tortilardi. Bu xalq manfaatlariga qarshi qilinadigan tajovuzlarning oldini oldi.

Amir Shohmurod faoliyatiga yuksak baho bergan mashhur olim Ahmad Donish bunday deb yozgan edi: „*U amirlik qalamini kambag'allik kiyimi bilan bezadi. Jahon bog'idan dushmanlik va yomonlikni tomiri bilan sug'urib tashladi va adolat nihollarini o'tqazdi*“.



- 1756-yil – ashtarxoniylar hukmronligi to'la barham topdi. Hokimiyat mang'itlar sulolasi qo'lga o'tdi.



1. Buxoroning Eronga qaram davlatga aylanib qolishining sabablarini qayd eting.
2. Nima uchun Xiva xonligi Buxoroga yordam bera olmadi?
3. Buxoroning taslim bo'lishi to'g'risidagi Buxoro–Eron shartnomasining mazmunini so'zlab bering.
4. Buxoroda mang'itlar sulolasi hokimiyatining o'rnatilishiga qanday omillar yordam berdi?
5. Amir Shohmurodning davlatchilikni mustahkamlash borasida amalga oshirgan ishlari ahamiyati haqida nimalarni bilib oldingiz?



O'zbekiston qonunlariga ko'ra, majburiy mehnat qaysi hollarda qo'llaniladi?

15-§. Amirlikda markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi

Amir Haydar hukmronligi Amir Shohmurod vafot etgach, taxtga o'g'li Amir Haydar o'tirdi (1800–1826). Ayrim viloyatlar hukmdorlari uning tajribasizligidan foydalanib, markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka urindilar. Biroq Amir Haydar katta qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, ulardan aksariyatining qarshiligini sindira oldi va markaziy hokimiyatga bo'ysundirdi. Aksariyat viloyatlar mustaqilligining tugatilishi davlat yerlari zaxirasini ko'paytirdi. Bu esa davlat yerlarini ijaraga olib ishlovchilar sonining oshishiga olib keldi. Bu omil amirlik iqtisodiyotining rivojlanishiga xizmat qildi.

Ayni paytda, Amir Haydar qanchalik harakat qilmasin, amirlikda to'la osoyishtalikni ta'minlay olmadi. Bunga bir tomondan markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamagan ayrim viloyat hokimlarining harakati, ikkinchi tomondan esa jamiyat hayotidagi adolatsizliklarga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlari sabab bo'ldi. Chunonchi, Amir Haydar Shahrisabz va Miyonqolni amirlik tarkibida saqlab qolish uchun kurash olib borishga majbur bo'ldi. O'ratepani qo'lda saqlab qolish uchun esa Qo'qon xonligiga qarshi harbiy harakatlar olib bordi. Ayni paytda, o'zi 1806-yilda Xiva xonligi hujumiga uchradi. Amir Buxoroning butun aholisini mamlakatni himoya qilishga da'vat etdi. Xiva qo'shini Amudaryo qirg'oqlarida mag'lubiyatga uchradi. Garchand Xiva qo'shini quvib chiqarilgan bo'lsa-da, mamlakatda tinchlik qaror topgani yo'q. Tez orada davlat va uning amaldorlarining adolatsiz siyosatiga qarshi qo'zg'olonlar boshlandi. Ayrim viloyat hokimlari va yirik zodagonlar markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lish maqsadi yo'lida foydalanib qolishga urindilar. Chunonchi, Amir Haydarning ukasi Dinnosirbek hokimlik qilayotgan Marv viloyati aholisi 1804-yilda qo'zg'olon ko'tardi. Amir Haydarga qarshi bo'lgan kuchlar esa undan foydalanib, Dinnosirbekni amirlik taxtiga o'tqazmoqchi bo'ldilar. Biroq markaziy hukumat bunga qarshi keskin choralar ko'rishga majbur bo'ldi.

Amir Haydar ukasi Dinnosirbek boshliq qo'zg'olonchilarga qarshi qo'shin yubordi. Qo'shin sarkardasining buyrug'i bilan Marv vo-

hasini suv bilan ta'minlab turgan Sultonbandi to'g'oni buzib tashlandi. Suvsiz qolgan marvliklar o'zlari yashab turgan joylardan boshqa yurtlarga ketishga majbur bo'ldi. Dinnosirbek esa Erondan boshpana topdi. Harbiy harakatlar oddiy mehnatkashlarning buningsiz ham og'ir ahvolini yanada og'irlashtirdi. Bu ham yetmaganidek, harbiy harakatlar uchun qoracherikka safarbarlik va yer solig'ining muddatidan oldin yig'ib olinishi 1821-yili Miyonqolda qo'zg'olon ko'tarilishiga olib keldi. Uni bostirishga qanchalik urinilmasin, amir qo'shini qo'zg'olonchilarning kuchini sindirolmadi. Amir oxir-oqibat qo'zg'olonchilarga yon bosishga, ularning mulki va shaxsiy daxlsizligi xususida yorliq berishga majbur bo'ldi.

**Amir Nasrullo
hukmronligi**

Amir Haydar vafot etgach, qisqa vaqt oralig'ida uning ikki o'g'li taxtga o'tirdi. Biroq ular fitna qurboni bo'lishdi. Nihoyat, taxtni uning uchinchi o'g'li Nasrullo egalladi (1826–1860).

Amir Nasrullo amirlik tarkibiga rasmangina kirgan beklklarni yagona davlatga birlashtirish yo'lida qat'iyat bilan kurash olib bordi. Shahrisabz va Kitob beklklarini to'la bo'ysundirish uchun kurash 30 yil davom etdi. Nihoyat, 1856-yildagina u Shahrisabz va Kitobni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi.

Bundan tashqari, mang'it amirlari o'zlarining mutlaq hokimiyatini qaror toptirishni bosh vazifalaridan biri deb hisobladilar. Shu maqsadda ular amir shaxsiga sig'inish siyosatini yuritdilar. Natijada, fuqarolar jazoga tortilishdan qo'rqanlaridan uning nomini baland ovoz bilan ayta olmaydigan bo'lib qoldilar. Hukmron tabaqalar amirga xushomadgo'ylik qilardilar. Amaldorlar amirdan ko'rsatma kutib o'tirmasdan uning xohish-istagini topa bilishga intilardilar. Har bir amaldor amirning, kichik amaldor o'zidan katta amaldorning qahriga uchrab qolishdan qo'rqib yashardi. O'zining bugungi mavqeyi, mulki, hayoti, oilasining omonligi uchun shunday bir qo'rquv muhiti vujudga keltirildiki, natijada hech kim ishonch bilan ertangi kundan umidvor bo'la olmaydigan bo'lib qoldi.

**Qo'shni o'zbek
xonliklari bilan
munosabat**

Buxoro amirligining o'z qo'shnilari Qo'qon va Xiva xonliklari bilan munosabatida o'zaro toqatsizlik ustun edi. Bu toqatsizlikning asosida Buxoro amirligining mintaqada yetakchilikka erishish va bu ikki xonlik hisobiga mustahkamlanib olish maqsadi yotardi.

Shuning uchun ham Buxoro amirligi 1842-yilda hatto Qo‘qon xonligini ham bosib oldi. Biroq Qo‘qon xonligining Buxoro amirligiga qaramligi uzoqqa cho‘zilmadi. Shu yilning o‘zidayoq Qo‘qonda Buxoro bosqiniga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon natijasida Qo‘qon xonligining mustaqilligi tiklandi.

Tez orada bu ikki davlat o‘rtasida yana urush kelib chiqdi. 1843-yilda amir Nasrullo Xo‘jand va O‘ratepani qo‘lga kiritish uchun Qo‘qon xonligiga qarshi kurash boshladi. Bu ikki shahar o‘n yillar davomida qo‘ldan qo‘lga o‘tib kelardi. Nihoyat bu safar Buxoroning qo‘li baland keldi.

1843-yilda Marv viloyati uchun talashayotgan Buxoro va Xiva o‘rtasida urush harakatlari kelib chiqdi. Xiva qo‘shini Hazorasp yaqinida Buxoro qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratdi. Lekin Marv Buxoro amirligi tarkibida qoldi. Faqat 1845-yildagina Xiva xonligi Marvni egalladi.



1. Amir Haydar markaziy hokimiyatni mustahkamlash borasida qanday tadbirlarni amalga oshirdi?
2. Amir Nasrullo davrida qanday omillar amirlik hokimiyatining kuchayishini ta‘minladi?
3. Nega mang‘itlar davrida ham o‘zbek davlatlari o‘rtasida keskinlik davom etdi?

16-§. Buxoro amirligida davlat boshqaruvi

Davlat tuzumi va ma‘muriy boshqaruv islohotlari

Amirlik davlat tizimiga ko‘ra mutlaq monarxiya edi. Oliy hukmdor – *amir* cheklanmagan huquqqa ega bo‘lgan. Butun hokimiyat uning qo‘lida to‘plangan. Amir, ayni paytda, davlatning ma‘naviy rahnamosi ham edi. Chunki u eng oliy martabali amaldorlar (arkoni davlat) hamda qabilalarning boshliqlari bilan maslahatlashib ish tutgan.

Amirlikda davlat boshqaruvi sohasida ayrim islohotlar o‘tkazildi. Chunonchi, ashtarxoniyalar davrida mavjud bo‘lgan boshqaruvning dargoh va devonlar tizimi tugatildi. Davlat vazifalarini ijro etish to‘g‘ridan to‘g‘ri saroydagi u yoki bu lavozimda, yoki biron-bir nufuzli davlat arbobi qo‘lida to‘planuvchi tartib joriy etildi. Unga

ko'ra, *qo'shbegi* lavozimiga davlat maqomi berildi, ya'ni u davlatda amirdan keyingi ikkinchi shaxsga aylandi. Shuning uchun ham u amir Arkida yashagan. Bundan tashqari, ashtarxoniylar hukmronligi davrida davlatda juda katta nufuzga ega bo'lgan otaliq lavozimi oldingi mavqeyini yo'qotdi. Bir so'z bilan aytganda, amirlikda turli davlat lavozimlarining maqomi yo ko'tarildi, yo tushirildi. Shunga yarasha u yoki bu lavozim egasining vakolat doirasi kengaytirildi yoki cheklab qo'yildi. Saroyda jami uch yuzga yaqin katta-kichik amaldorlar guruhi xizmat qilishgan. Ulardan 30 nafarga yaqini yuqori davlat lavozimlari sanalgan.

**Amirlikning
ma'muriy bo'linishi**

Amirlik ma'muriy jihatdan *viloyat* va *tumanlarga* bo'lingan. Adabiyotlarda mang'itlar davrida amirlikda 27 ta viloyat (beklik) mavjud bo'lganligi qayd etilgan.

Viloyatlarni beklar – hokimlar boshqarishgan. Hokim lavozimiga, asosan, qabila sardorlari (amir) tayinlangan. Qolgan ma'muriy-hududiy birliklarga sug'oriladigan yer miqdori asos qilib olingan. Jumladan, bir nechta ariq va kanal orqali sug'oriladigan yuz ming tanob yer *bir tumanni* tashkil etgan. Bitta katta ariq bilan sug'oriladigan ellik ming tanob yer *hazora*, yigirma besh ming tanob yer *nim (yarim) hazora*, 10–15 ming tanob sug'oriladigan yerga ega qishloq obikori, 400 tanob yerga ega qishloq *qoriya*, 300 tanob va undan kam yeri bo'lgan hudud, aholi yashasa-yashamasa, *marza* deb atalardi. Ba'zi qishloqlar joylashgan hudud maydoni katta bo'lmagan. Binobarin, ularning har birini alohida-alohida boshqarish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamas edi. Shuning uchun ham bir nechta katta-kichik qishloqlar birlashtirilib eng quyi ma'muriy birlik tashkil etilgan va u *amluk* deb atalgan. Uni *amlukdor* qishloq oqsoqollari, *amin* va *miroblarga* tayaynib boshqargan.

Amlukdor („mulk egasi“ degan ma'noni anglatadi) yetishtirilgan hosilning hisobini yuritgan va soliqlar hamda boshqa tushumlarning belgilangan muddatlarda yig'ilib borishini nazorat qilgan. *Amin* („ishonchli“, „halol odam“ ma'nosini anglatadi)ning asosiy vazifasi soliq va boshqa tushumlarni yig'ish, aholi ustidan nazorat olib borish hamda ariqlardagi suvni ekin maydonlariga taqsimlash bo'lgan. Qishloq *mirobi* esa suv inshootlarining o'z vaqtida ta'mirlanishini, qishloqlar

uchun ajratilgan suvning ariqlar bo'yicha to'g'ri taqsimlanishini ta'minlagan.

**Yuqori davlat
lavozimlari**

Amirlik davlat muassasalari ma'muriy, moliyaviy, qozilik, mirshablik va harbiy idoralaridan tashkil topgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, amirlikda oliy ijroiya hokimiyat – *qo'shbegi*, ya'ni Bosh vazir (vaziri buzruk ham deyilgan) qo'lida to'plangan. U poytaxt Buxoro shahridagi ahvol, mamlakat boshqaruvi, moliya, soliq, xazina kabi eng muhim sohalarini nazorat qilgan. Ayni paytda, barcha viloyatlar unga bo'ysungan. Amirlikda qo'shbegidan keyingi o'rinda *moliya vaziri* (devonbegi) turgan. U *quyi qo'shbegi* deb ham atalgan. Moliya vaziri zakot masalasi bilan shug'ullangan. Shayboniylar, ayniqsa, ashtarxoniylar davrida katta mavqega ega bo'lgan *otaliq* lavozimiga tayinlangan amaldor endilikda Buxoro va Samarqand viloyatlarini sug'orish, shuningdek, suv taqsimoti bilan bog'liq ishlar uchun mas'ul qilib qo'yildi.

Parvonachi lavozimida ishlagan amaldorning asosiy vazifasi Buxoro xonligida bo'lganidek oliy hukmdorning yorliqlarini u yoki bu amaldorga yetkazish bo'lgani holda, amirlikda istiqomat qilib kelayotgan arablar jamoasi masalalari bilan ham shug'ullanadigan bo'ldi.

Ba'zi hollarda parvonachi lavozimida ishlayotgan amaldorga uning shaxsi, amirlik siyosiy hayotida tutgan o'rniga qarab, muhim vazifalar ham yuklatilgan. Chunonchi, Amir Haydar Marvda unga qarshi ukasi Dinnosirbek boshchiligida ko'tarilgan isyonni bostirish uchun Niyozbek parvonachini qo'shinga qo'mondon qilib jo'natgani bunga dalildir. Yoki Amir Nasrullo 1842-yilda Qo'qonni ishg'ol etgach, u yerga Ibrohim parvonachi mang'itni noib etib tayinlaganida, shubhasiz, uning amirlik hayotidagi mavqeyini hisobga olgan. Bir so'z bilan aytganda, u yoki bu davlat lavozimining nufuzi shu lavozimda kim o'tirganligiga ham bog'liq bo'lib qoldi.

Bosh inoq lavozimiga tayinlangan amaldor amirning buyruqlarini quyi lavozimda ishlayotgan davlat xizmatchilariga yetkazish, mazkur buyruqlarning bajarilishini va kelgusida davlat mansablariga tayinlanishi mumkin bo'lgan xizmatchilarning faoliyatini tashkil etish bilan shug'ullangan.

Kichik inoq esa chet mamlakat elchilari taqdim etadigan hujjatlarni qabul qilib olgan. Shuningdek, amir muhri uchun javobgar bo'lgan.

Yana bir muhim davlat mansabi *to'qsoba* edi. U davlat bayrog'ining daxlsiz saqlanishini ta'minlash, shuningdek, eng ishonchli shaxs sifatida oliy davlat marosimlarida amir dasturxoniga taom tortish kabi nihoyatda mas'uliyatli vazifani bajargan. Vazifa nihoyatda mas'uliyatli bo'lganligi uchun unga daromad manbai sifatida bitta tuman biriktirib qo'yilgan.

Davlat boshqaruvida, shuningdek, *ko'kaldosh* (davlat xavfsizlik xizmati boshlig'i), *mehtar* (soliq va boshqa yig'implardan tushgan mablag'larning belgilangan o'rinlarda qanchalik to'g'ri sarflanganligini nazorat qiluvchi amaldor), *qutvol* (davlat hisobidan amalga oshiriladigan qurilish ishlariga mas'ul amaldor), *eshik og'aboshi*, *miroxur* (amir otxonasining boshlig'i), *qorovulbegi* (shahar va yo'llar posboni), *shig'ovul* (chet mamlakatlar elchilarining qabul qilinishini tashkil etuvchi), *mushrif* (amirga in'om etilgan sovg'alarni ro'yxatga olish va soliqlar tushumini yozib boruvchi amaldor), *dasturxonchi* (amir huzurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun mas'ul amaldor), *kitobdor* (amir kutubxonasining boshlig'i), *dodxoh* (jabrlanuvchi arizasini amirga yetkazuvchi va javobini arizachiga yetkazilishiga mas'ul amaldor) kabi yuqori davlat lavozimlari ham bor edi.

Shariat talablariga rioya etilishi ustidan nazorat

Jamiyat va davlat hayotida shariat qonunlarining amal qilishi *shayxulislom*, *qozikalon*, *muftiy*, *muhtasib* (rais) va *sadrlar* tomonidan ta'minlangan.

Shayxulislom barcha musulmon ruhoniylar (diniy tashkilotlarda diniy lavozimda xizmat qiluvchilar)ning boshlig'i bo'lib, davlatda eng yuqori martabali ruhoniy, din arbobi sanalgan. Uning martabasi shu darajada yuqori bo'lganki, hatto bo'lajak hukmdor ham shayxulislomning roziligisiz taxtga o'tira olmagan.

U mamlakatda shariat talablarining aniq bajarilishi ustidan nazorat olib borgan. Shayxulislomga hatto *Qozikalon* – Oliy qozi (bugungi kun voqeligi bo'yicha aytganda Oliy sud raisi) ham bo'ysungan.

Qozikalon lavozimi mavqeyiga ko'ra shayxulislomdan keyingi ikkinchi lavozim edi. U sudlov ishlarini amalga oshirishdan tashqari, boquvchisini yo'qotganlarning, beva-bechoralarning haq-huquqlari nechog'lik himoya qilinayotganligi ustidan nazorat olib borgan. Amirlikda viloyat, tuman va qishloqlarda ham sudlar tashkil etildi.

Amirlikda *muhtasib* (rais)ning vakolati kengaytirildi. Ma'lumki, muhtasib bozorda qalloblikka, sifatsiz mahsulot sotilishiga yo'l qo'y-

maslik, og'irlik (tosh-u tarozi) va uzunlik o'lchovlarining to'g'riligi hamda aholining shariat qoidalariga qanchalik amal qilayotganliklari ustidan bevosita nazorat olib borgan. Masjidlarga borib namoz o'quvchilar ro'yxatini tekshirgan. Taqiqlangan ichimliklar iste'mol qilinishiga hamda sudxo'rlikka qarshi choralar ko'rgan.

Shuningdek, bu tizimda *muftiy* va *sadrlar* ham katta mavqega ega bo'lishgan. Chunonchi, muftiy Qozikalon murakkab deb hisoblagan turli diniy-huquqiy masalalar bo'yicha shariatga asoslanib fatvo chiqaruvchi ulamo edi. U chiqargan fatvosini o'z muhri bilan tasdiqlagan. *Qozi* shu fatvo asosida hukm chiqargan. *Sadrlar* esa vaqf mulklarining boshqaruvchilari edilar.



Tanob (chilvir, arqon) – ekin maydonini o'lchash uchun qo'llaniladigan yuza birligi. 1 tanob yer maydoni 8,33 sotix. 1 gektar yer esa 12 tanobni tashkil etgan.



1. Amirlikning davlat boshqaruvida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
2. Amirlikning ma'muriy-hududiy jihatdan bo'linishida nima asos qilib olingan va nega shunday qilingan?
3. Amlok nima edi va u qanday boshqarilgan?
4. Amirlikdagi yuqori davlat lavozimlari haqida nimalarni bilib olingiz?
5. Amirlikda sudlov ishlari qanday amalga oshirilgan?



Bugungi kunda ham dunyo davlatlari orasida monarxiyalar mavjud. „Davlat va huquq asoslari“ fanidan olgan bilimlaringizga tayanib ular o'rta asr monarxiyalaridan qaysi jihatlari bilan farq qilishini aniqlang.

17-§. Buxoro amirligida harbiy ish

Amirlikda muntazam qo'shinning tuzilishi Amirlik hukmdorlari muntazam qo'shinning bo'lmasligi davlat xavfsizligi uchun fojiali oqibatlariga olib kelishini ashtarxoniyalar qismatidan yaxshi bilib olgan edilar.

XVIII asrning ikkinchi yarmida ham qo'shin hamon *nomuntazam* (qora cherik) bo'lib, u ichki va tashqi xavfni bartaraf etishga qodir emas edi. Buxoro amirlari XIX asr boshlaridan boshlab *muntazam*

qo'shin tuzishga kirishdilar. Bu ishni Amir Haydar boshlab berdi. Muntazam qo'shin *navkariya* deb ataldi.

Qora cherik amirning farmoniga ko'ra, harbiy harakatlar paytida tinch aholidan to'planardi. Farmon bozorlarda e'lon qilingan va o'sha yerga qora cherikka chaqiriluvchilar ro'yxati osib qo'yilgan. Mamlakatda tinchlik o'rnatilgach, qora cherikka uylariga qaytib ketishga ruxsat berilgan.

1837-yilgi harbiy islohot Muntazam qo'shin tuzish bilan bog'liq muammolar Amir Nasrullo davrida to'la yechimini topdi. U 1837-yilda harbiy islohot o'tkazdi. Unga ko'ra, *sarboz*, *navkar* va *to'pchi* askarlardan iborat 3 turdagi muntazam qo'shin tuzildi. Muntazam piyoda askarlar sarboz, otliq askarlar esa *navkar* deb ataldi. Dastlab sarbozlar qismi 800 kishidan, to'pchi qismi esa 250 kishidan iborat qilib tuzildi. Sarbozlar *yuztalik*, *elliktalik*, *yigirma beshtalik* va *o'nalik* bo'linmalarga ajratildi.

Muntazam qo'shin uchun maxsus kiyim-bosh joriy etildi. Kiyim-bosh har 3 yilda almashtirilib turildi. Muntazam qo'shinni qurol-yarog' bilan ta'minlash jarayoni bir yildan ortiq davom etdi.

Amir Nasrullo muntazam qo'shinni bir joyda saqlash maqsadida Buxoro shahri chetida 800 uydan iborat „Sarbozxona“ deb atalgan manzilgoh qurdirdi. Muntazam qo'shinning xizmat muddati cheklanmagan. Sarbozxonada yashayotgan askarlar u yerda hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan ham shug'ullanganlar.



Buxoro qo'shini

Harbiy mansab va unvonlar

Amir davlat boshlig'i sifatida amirlik qo'shining Oliy bosh qo'mondoni edi. Undan keyingi o'rinda *vaziri harb* (harbiy vazir) turgan. U qo'shinning Bosh qo'mondoni sanalgan va *to'pchiboshi* deb ham atalgan. Unga barcha harbiy qismlarning sardorlari bo'ysungan. Qo'shinda *pansodboshi* (beshyuzboshi), *yuzboshi*, *ellikboshi* (panjaboshi), *o'nboshi* (dahboshi) kabi harbiy unvonlar bo'lgan. Qal'a va qo'rg'onlardagi harbiy qism (garnizon) *to'qsoba* unvonidagi *sarkarda* tomonidan boshqarilgan. To'qsoba unvoni o'sha davr Rossiya harbiy unvonlariga taqqoslaganda polk sardori mavqeyiga teng bo'lgan.

Zaruriyat taqozo etganida *dodxoh* (bir necha polk sardori maqomida) va *parvonachi* (qo'shin sarkardasi maqomida) harbiy harakatlarga jalb etilganlar.

Harbiy harakatlar chog'ida harbiy qarorgoh (bugungi til bilan aytganda, shtab) boshlig'i vazifasi *naqibga* yuklatilgan. Qarorgoh boshlig'i sifatida u harbiy harakatlarni rejalashtirgan. Harbiy kuchlarni jang maydonida to'g'ri taqsimlanishiga mas'ul bo'lgan. Naqiblar harbiy yurish paytida qo'shinning tuzilishi, qurollanishi va joylashuvi, uning harakatlanishi hamda urush olib borish borasida yetarli bilimga ega bo'lgan. Ayni paytda, qo'shinning old qismi, orqa qismi va o'ng hamda chap qanoti, markazi, pistirmalari haqida yetarlicha ma'lumotga ham ega bo'lgan.

Amirlik qo'shiniga *qozi askar*, *muhtasiblar* va *muftiy askarlar* ham xizmat qilishgan. Ularning har biri o'z mansabi doirasidagi masalalarni hal etgan. Chunonchi, muhtasib harbiylarning shariat qoidalariga qanchalik amal qilayotganliklarini nazorat qilib borgan.

Qozi askar bo'lsa, harbiy qismlarda sodir etilgan jinoyat ishlarini, ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqqan va ular yuzasidan hukm chiqargan.

Muftiy askar esa harbiylar ustidan qozi askar chiqargan hukmning shariatga qanchalik mosligi masalasini tekshirib ko'rgan.

Amirlik muntazam qo'shini vaqt-vaqti bilan ko'rikdan o'tkazib turilgan. Ko'rikni amir, amir ishtirok eta olmaganida *qo'shbegi* o'tkazgan.

Qurol-yarog'lar va qo'shin ta'minoti

XIX asrning birinchi yarmida o'zbek davlatlari, xususan, Buxoro amirligi qo'shining qurol-yarog'lari sifati past edi. Chunonchi,

amirlik askarlari *piltamiltiq*, *to'pponcha*, *uzun nayza* va *egri qilich* bilan qurollantirilgan. Askarlar o'zini o'qdan saqlay olishlari uchun *sovut*, *temir dubulg'a* bilan ta'minlangan.

XIX asrning o'rtalaridan boshlab o'tochar qurol (miltiq va to'p) larning salmog'i oshdi. Sarkardalar *to'pponcha* va *qilich*dan tashqari ikki stvolli *miltiq* bilan qurollangan. Qo'shinning to'pchilar qismi ixtiyorida jami 50 ta *to'p* bor edi. To'plarning sozligi rus va fors mutaxassislari nazoratida bo'lgan. Kichik kalibrli „xitoychi“ deb atalgan to'p harbiy harakatlar chog'ida tuyalarning egarlari ustiga mahkam qilib o'rnatilgan.

Amirlikda qurol-yarog' ishlab chiqaruvchi ustaxonalar ham qurilgan. Masalan, to'plar Samarqand shahridagi ustaxonada quyilgan bo'lsa, *porox* Qarshi shahrida tayyorlangan. Uni ishlab chiqaruvchi hunarmandlar *dorukash* deb atalgan.

Harbiy harakatlar chog'ida qo'shinni joylashtirish masalasi sarboz va to'pchilarning har bir o'nlik bo'linmasiga bittadan chodir ajratish orqali hal etilgan. Qurol-yarog', o'q-dori va jang uchun barcha zarur anjom-uskunalar manzilga ot-aravalarda yetkazib berilgan.

Amir Nasrullo muntazam qo'shinning ehtiyojlarini, dastlab, kundalik iste'mol mahsulotlari berish orqali qanoatlantirgan. Keyinchalik muntazam qo'shin askarlari uchun maosh to'lanadigan bo'ldi. Chunonchi, sarboz va to'pchi askar uchun har uch oyda bir tilla maosh belgilandi. Tabiiyki, yuqori mansabli sarkardalarning maoshlari miqdori balandroq bo'lgan. Masalan, yuzboshi oyiga olti tilla, qorovulbegi to'rt yarim tilla, panjaboshi (ellikboshi) sakson besh tanga, bosh sarkarda esa ikki ming tilla maosh olardi.

Bundan tashqari, harbiy harakatlar chog'ida mansab va unvonidan qat'i nazar har bir qatnashchiga kuniga bir tilla berilardi. Undan tashqari, oddiy askar har uch kun uchun bir tanga, o'nboshi har ikki kun uchun bir tanga, qorovulbegi kuniga ikki tanga va yuzboshi esa to'rt tanga qo'shimcha haq olardi.

Ayni paytda, muntazam qo'shin askarlari xizmat davomida turli soliq va majburiyatlardan ozod etilgan. Jangda halok bo'lgan askarni, shuningdek, xizmat qilayotgan askarning vafot etgan oila a'zolarini dafn etishda ma'lum miqdorda pul va kafanlik berilgan.



1. 1837-yilgi harbiy islohot qanday ahamiyat ega bo'ldi?
2. Amirlik muntazam qo'shinining tarkibiy qismlarini qayd eting.
3. Amirlik qo'shinining qurol-yarog'lari qanday qurollardan iborat bo'lgan?
4. Qo'shinning moddiy ta'minoti haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Qo'shindagi harbiy mansablar va unvonlar ro'yxatini tuzing.



O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilar uchun qanday imtiyozlar qo'llanilayotganligi haqidagi ma'lumotlarni to'plab keling.

18-§. Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Hududi va aholisi

XIX asrda amirlik chegarasi Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo viloyati, Tojikistonning Panjikent, Hisor vodiysi, Xo'jand, O'ratepa viloyatlari, Zarafshon daryosining yuqori oqimi hududlarini, hozirgi Afg'onistonning bir qismi, Turkmanistonning Murg'ob daryosigacha bo'lgan qismi, Qozog'istonning Turkistonigacha bo'lgan barcha hududlarini o'z ichiga oldi va 200 ming km² ni tashkil etdi. Binobarin, amirlik hududi ashtarxoniyalar davridagiga nisbatan bir necha martaga kengaydi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab amirlik iqtisodiyotida rivojlanish yuz berganligi, o'z navbatida, aholi sonining oshishiga sabab bo'ldi. XIX asrning birinchi yarmida amirlik aholisi 2 million kishidan iborat edi. Aholining aksariyat qismini o'zbeklar tashkil etgan.

Amirlikda o'zbeklardan tashqari tojiklar, turkmanlar, qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, forslar, arablar, yahudiylar va boshqa xalq vakillari ham yashashardi. Aholining katta qismi o'troq hayot kechirgan. Aholining ijtimoiy tarkibini hukmron zodagonlar, ulamolar, diniy va dunyoviy muassasalar xizmatchilari, savdogarlar, hunarmand va dehqonlar tashkil etgan.

Hududi va aholisi

Amirlik iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoq edi. 90 foiz aholi shu tarmoqda mehnat qilardi. Sug'oriladigan yerlarning 75 foiziga paxta ekilgan. Qolgan yerlarda bog', poliz va sabzavot mahsulotlari, tog'larda esa butun Osiyoda mashhur tog' pistasi yetishtirilgan.

Chorvachilik ham juda rivojlangan. Uning asosini qo'ychilik tashkil etgan. Mamlakat yaylovlarida 12 million bosh qo'y boqilardi. Ayniqsa, husndor jingalak, qimmatbaho teri beradigan qorako'l qo'ychiligi nihoyatda rivojlangan edi. „Qorako'l qo'ylari“ deb ataladigan qo'yning vatani Qorako'l bekligi bo'lgan. Shuning uchun qo'yning bu nasli qorako'l deb atalgan. Qo'zilarining terisi jahon bozorlarida ham juda xaridorgir bo'lgan.

O'rta Osiyo sharoitida hamma zamonlarda sun'iy sug'orishsiz qishloq xo'jaligini rivojlantirib bo'lmagan.

Mehnatkashlarning matonatli mehnati, sabr-toqati, sug'orish inshootlarining muqim ishlashini ta'minlar edi. Dehqonlar suvdan foydalanishda asrlar davomida juda katta tajriba to'plagan edilar. Ular shunday sug'orish inshootlarini bunyod eta olganlarki, unga tan bermaslikning iloji yo'q edi. Xususan, suv ayirg'ich to'g'oni qurishdagi mohirlik buning isbotidir.

Daryo va kanallarga o'rnatilgan chig'ir eng ko'p ishlatiladigan suv ayirg'ich edi. Shunday chig'irlar ham yaratilganki, ular suvni hatto 4 metr va undan ham balandga chiqarib bera olardi. Suvni chuqur ariqlardan chiqarib olish uchun tutqichli suv ayirg'ichlar ishlatilar, bunda ot, tuya, eshak va ho'kiz kuchidan foydalanilar edi.

Dehqonchilik mehnat qurollari nihoyatda sodda edi. Oddiy dehqon so'qasi (omoch) asosiy dehqonchilik quroli edi. Ot, ho'kiz, tuya, eshak dehqonning suyanchig'i hisoblangan.

Yer egaligi Amirlikda avvalgidek yer egaligining *davlat* (bu amlok yerlar deb ham atalgan), *mulk* (xususiy) va *vaqf* shakllari saqlanib qoldi. Davlat yerlarining suvsiz dasht, to'qayzor qismi ko'chmanchi jamoalarga bo'lib berildi. Ular bu yerlardan foydalanganliklari uchun davlatga belgilangan tartibda soliq to'lashgan. Bunday yerlar sotilmasdi va ayirboshlanmasdi. Davlat yerlarining boshqa bir qismi hukmron sulola a'zolariga, yirik davlat mansabdorlariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga *suyurg'ol* shaklida in'om etilgan edi. Lekin mang'itlar hukmronligi davrida suyurg'ol egalari ashtarxoniylar davridagidek mavqedan mahrum etildi. Suyurg'ol egasi davlat xazinasiga xiroj to'lashi hamda oliy hukmdorning chaqirig'iga ko'ra, zarur holatlarda o'z qora cherigi bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishi lozim edi.

Mang'itlar davrida *tanho* in'om etish kuchaydi. *Tanhodor* yerga emas, mansabining darajasiga qarab shu yerdan olinadigan soliqning ma'lum qismiga egalik qilardi. Eng kichik tanho yeri 36–60 tanob (3–5 gektar)ni tashkil etgan. Xazinaga eng ko'p soliq ham ana shu yerlardan tusha boshladi. Shuningdek, mang'itlar davrida dehqon jamoalari tugatildi. Uning o'rnida ijarachi dehqon shakllana bordi. Yer-mulk egaligining bir qismi davlat xizmati bilan bog'liq bo'lmagan. Bunday yerlar, asosan, amirlikda asrlar osha yashab kelayotgan arablar jamoasiga qarashli bo'lgan. Bu yerlardan 1/10 qismi miqdorida soliq olingan. Mulk yerlarining ikkinchi qismi (mulki hur) davlat xizmati bilan bog'liq edi. Bunday yerlar urushlarda jasorat ko'rsatgan yoki hukmdorning alohida topshiriqlarini bajarishda namuna ko'rsatgan shaxslarga berish natijasida vujudga kelgan.

Bunday yerga ega bo'lgan shaxslarga maxsus yorliqlar berilgan hamda ular barcha soliqlardan ozod etilgan.

Vaqf yerlari – bu masjid, mozar, xonaqoh, maktabxona, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar edi. Bu yerlar musodara etilgan, davlat hamda yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga keltirilar edi. Masjid, madrasa, qabristonlarning asosiy sarfxarajatlari, shuningdek, talaba, mudarris hamda mutavallilarga beriladigan nafaqa va maoshlar vaqf yerlaridan olinadigan daromad hisobidan qoplanar edi. Vaqf mulkini mutavalli tasarruf etishi belgilab qo'yilgan.

Soliq siyosati *Xiroj* amirlik davrida ham davlatning asosiy solig'i bo'lib qolaverdi. Uning miqdori hosilning 2/5 qismini tashkil etgan. XIX asrda xirojning bir qismi pul bilan ham yig'ila boshlandi. Bog', poliz, sabzavot ekilgan yerlardan esa *tanobona* deb atalgan soliq olingan. Bu soliqning miqdori ekinzorning bozorga uzoq-yaqinligiga bog'liq edi.

Keyinchalik polizlarga yangi soliq – *qo'sh puli* solinadigan bo'ldi. Uning miqdori yer haydashga yaroqli har bir juft ho'kiz hisobidan kelib chiqib belgilangan. *Zakat* deb ataluvchi soliqning hajmi soliq solinadigan mol-mulk miqdorining va qiymatining 2,5 foizini tashkil etgan. Zakotga, asosan, chorva mollari egalari va savdogarlar tortilgan. Tanobona, zakot, qo'sh puli soliqlari esa faqat pul shaklida olingan. Harbiy harakatlar chog'ida aholi uchun favqulodda soliq – *to'la* joriy etilgan.



1. Amirlik joylashgan hudud chegaralarini qayd eting.
2. Amirlik aholisining milliy tarkibi kimlardan tashkil topgan edi?
3. Amirlikda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qanday tadbirlar amalga oshirildi?
4. Sug'orish inshootlari vositalari va qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan mehnat qurollari ro'yxatini tuzing.
5. Amirlikda yer egaligining suyurg'ol shaklida qanday o'zgarish yuz berdi?
6. Amirlikda qanday soliqlar amalda bo'lgan?



Bugungi O'zbekistonda joriy etilgan soliq turlari haqida ma'lumot to'plang.

19-§. Amirlik shaharlari. Ichki va tashqi savdo

Amirlikning iqtisodiy hayotida yirik shaharlarning o'ri

Shaharlar hamisha mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida g'oyatda katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Chunki shaharlar davlat hokimiyatining tayanchi, savdo va hunarmandchilik markazi, madaniyat hamda ilm-fan o'chog'i vazifasini o'tagan. Ulardan biri „Tangrining jamoli“, „islom dinining gumbazi“ va „islom dinining quvvati“ deb ulug'langan 2500 yillik tarixga ega Buxoro shahridir. Buxoro shahri 1533-yilda Buxoro xonligining poytaxti etib belgilandi.

Shayboniy Abdullaxon II davrida esa uzil-kesil poytaxtga aylandi. Ashtarxoniylar va mang'itlar hukmronligi davrida ham Buxoro poytaxt bo'lib qolaverdi (1601–1920). Buxoro butun O'rta Osiyoning ma'rifat markazi edi. Bu yerda Xiva, Qo'qon, Hisor, Samarqand va Rossiyaning musulmonlar yashaydigan viloyatlaridan kelgan talabalar ham ilm olishgan. Chunki madaniyat, ilm-ma'rifat o'chog'i Samarqand avvalgi mavqeyini yo'qotgan edi.

Shahar pishiq g'isht va paxsa devor bilan o'ralgan. Shaharga 12 ta darvoza orqali kirilgan. 60 mingga yaqin aholi yashagan. Shuningdek, shaharda 100 dan ortiq madrasa, 300 dan ortiq masjid, 38 ta karvonsaroy bor edi. Karvonsaroylarga har yili 12–15 ming tuya mol kelib turgan. Savdo-sotiq ishlariga, savdogarlar xavfsizligiga karvonboshi mas'ul bo'lgan.

Samarqand „Dunyoning husni“ deya ulug‘langan Samarqand ko‘p yillar davomida o‘zining avvalgi mavqeyini yo‘qotib qo‘ygan edi. Bunga ashtarxoniyalar davrida o‘zaro urushlarning kuchayganligi, tashqi ko‘chmanchi qabilalarning xonavayron qiluvchi hujumlari sabab bo‘ldi.

Mang‘itlar esa xarobaga aylangan Samarqandni tiklash chorasini ko‘rdilar. Xususan, Rahimiy shaharni tiklash ishini unga suv chiqarishdan boshladi. Biroq shahar aholisi sonining nihoyatda kamayib ketganligi kutilgan natijani bermadi.

Amir Shohmurod esa bu masalada keskin choralarini qo‘lladi. U shaharni tiklash va aholi sonini ko‘paytirish uchun boshqa shaharlardan majburiy ravishda aholi ko‘chirib keltirdi. Shaharda katta bunyodkorlik ishlari uning vafotidan so‘ng ham davom ettirilgan bo‘lsa-da, shahar asosan uning davrida deyarli qayta bunyod etildi.

Manbalarda bunday deb yozilgan: „*Samarqandning hozirgi obodonchiligi 1780-yil, ya‘ni Shohmurod davridan boshlangan bo‘lib, 1809-yillarda bir shahar yo‘siniga kirgizildi*“.

XIX asr boshlarida shahar baland devor bilan o‘raldi. Shaharga 6 ta darvozadan kirilardi. Shaharda ko‘plab bog‘lar, ariq-zovurlar va hovuzlar, karvonsaroylar va hammomlar ishlab turgan. Ko‘chalar shaharning 6 ta darvozasini Registon maydoni bilan bog‘lardi. Amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari tufayli tez orada shahar aholisi soni 25–30 ming kishiga yetdi.

Hunarmandchilik Hunarmandchilik amirlik shaharlarining iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega edi. Hunarmandchilikning asosiy turlaridan biri to‘qimachilik bo‘lgan. Buxoro olachasi, bo‘zi, bo‘zga gul bosish yo‘li bilan tayyorlanadigan chiti, shoyisi, Samarqandning to‘q qizil rangli baxmali mashhur edi. Yigirilgan ipdan ro‘mol, choyshab, salla to‘qish ham keng tarqalgan.

Temirchilik ham hunarmandchilikning asosiy tarmoqlaridan hisoblanardi. Temirchilar o‘roq, pichoq, shuningdek, qurol-yarog‘ yasashgan. Zargarlik, kulolchilik, yog‘ochsozlik, to‘qimachilik, kiyimkechak, poyabzal tikish kabi hunarmandchilik sohalari ham juda taraqqiy etgan. Yog‘ochdan eshik, beshik, deraza, arava, sandiq, qayiq va boshqalar yasalardi. Yog‘och o‘ymakorligi alohida ahamiyatga ega edi. Novdalardan savatlar to‘qilardi. Uy sharoitida namat, gilam to‘qish, oshlangan charmdan egar-jabduqlar, ayillar, pichoq qinlari,

hamyonlar tayyorlanardi. Bozorda har bir turdagi hunarmandchilik mahsulotlari alohida-alohida rastalarda sotilgan.

Ichki savdo XVI asrdan boshlab Buyuk ipak yo'li ahamiyatining yo'qola borishi bora-bora O'rta Osiyo davlatlari iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Bu esa Buxoroning jahon bozorida faol ishtirokchi bo'lishi mumkinligi imkoniyatini pasaytirdi. Oqibatda, davlat hayotida iste'mol ehtiyojlari ishlab chiqarishdan ustun bo'lolmadi. Bu esa, o'z navbatida, yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi yirik mashinalashgan ishlab chiqarishdan foydalanish ehtiyojini vujudga keltirmadi. Natijada oddiy hunarmandchilik ishlab chiqarishi sanoat ishlab chiqarishi darajasiga ko'tarilmadi. Shuning uchun ham ichki bozorda odatdagi hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi yetakchi o'rin egalladi.

Bozorlarda kimki xaridor haqiga xiyonat qilsa, qattiq jazoga duchor etilardi. Xususan, bundaylar yarimyalang'och holda aravada bozor ahliga sazoyi qilinardi va ovozi boricha: „Men shayton yo'liga kirib, xaridorni aldadim“, deb jar solishga majbur etilardi.

Bozorlar faqatgina xo'jalik vazifasini o'tab qolmagan. Ular ayni paytda o'ziga xos jamoat va madaniyat markazi vazifasini ham o'tagan. Xususan, bozorlarda hukmdorning farmonlari o'qib eshittirilgan. Aybdorlar jazolangan. Bayram kunlari esa turli tomoshalar namoyish etilar edi.

Tashqi savdo Buyuk ipak yo'li o'z ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa-da, mamlakatning tashqi savdo aloqalari to'xtab qolgani yo'q. Buxoro Hindiston, Afg'oniston, Eron, Xitoy bilan savdo aloqalari olib bordi. Bu davlatlarga amirlikda ishlab chiqarilgan ip gazlamalar, baxmal, qog'oz, egar-jabduqlar, qurollarning ayrim turlari, meva va boshqa mahsulotlar eksport qilinardi. Asosiy savdo transporti tuya edi. Ba'zi savdo karvonlarining tuyalari bir necha yuz boshga yetardi.

Mamlakatning Samarqand va Buxoro kabi shaharlariga ko'plab chet ellik savdogarlar kelib turishardi. Buxoroda hatto hind savdogarlari va sudxo'rlari yashaydigan alohida mahallalar ham bor edi. Ular hind gazlamalari, bo'yoqlari, shifobaxsh va ziravor o'tlar, dori-darmonlar, qand-shakar bilan savdo qilardilar.

Buxoro amirligining Rossiya bilan savdo aloqalari tobora o'sib

bordi. Chunki Rossiya sanoat mahsuloti taklif qila olar edi. Ayni paytda, Rossiya savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minlay oldi.

1804-yili Orenburgda Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi qurildi. Ular Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi savdoda muhim o'rin tutdilar. Savdogarlar qarorgohi tobora kengayib bordi.

Shu tariqa, amirlik iqtisodiyoti Rossiya bilan savdo qilishga mo'ljallangan o'ziga xos yo'nalishga ega bo'la bordi. Buni, xususan, amirlikda yetishtirilgan 16 ming tonna paxtaning hammasi Rossiyaga sotilganligi, amirlikka har yili faqat to'qimachilik sanoati mahsulotlarining o'zidan ikki million rubli tovar eksport qilinganligi, shuningdek, 1844-yilda O'rta Osiyo davlatlari – Rossiya tashqi savdosida amirlikning ulushi 25 foizni, 1864-yilga kelib esa 42 foizni tashkil etganligi ham tasdiqlaydi.



1. Buxoro shahriga berilgan ta'riflar haqida mulohaza yuring.
2. Buxoroning butun O'rta Osiyoda ma'rifat markazi bo'lganligiga misollar keltiring.
3. Samarqand shahriga berilgan ta'rif bilan Buxoroga berilgan ta'rifni solishtiring va xulosalaringizni bayon eting.
4. Samarqand shahrining qayta tiklanishida amir Shohmurodning o'rniga berilgan baho nimadan dalolat beradi?
5. Nega amirlik iste'mol ehtiyojlari ishlab chiqarishda ustun bo'la olmadi?
6. Buxoro amirligining Rossiya bilan savdo aloqalari o'sib borganligi haqida keltirilgan faktlardan qanday xulosa chiqarish mumkin?



Ota-onangiz yordamida Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston o'rtasidagi savdo aloqalariga oid ma'lumotlarni to'plang.

20-§. Buxoro amirligining tashqi siyosati

Amirlik tashqi siyosatining asosiy tamoyillari

Amirlik tashqi siyosatining asosiy tamoyillarini, birinchidan, O'rta Osiyoda mavjud uch o'zbek davlatlari orasida yetakchi mavqega ega bo'lish va qulay imkoniyat tug'ilganida ularni bo'ysundirish; ikkinchidan, Xurosonda mustahkam o'rnashib olish; uchinchidan, Rossiya va boshqa davlatlar bilan savdo munosabatlarini rivojlantirish; to'rtinchidan, O'rta Osiyo mintaqasidagi bar-

cha musulmonlarning amiri (mang'itlar o'zlarini shunday deb hisoblaganlar) sifatida musulmonlarning Astraxon orqali Makkaga Haj safariga borib kelishlarini ta'minlab turishni yo'lga qo'yishdan iborat bo'lgan.

Buxoro – Rossiya munosabatlari

Mang'it amirlari Rossiya bilan munosabatlarga doimo katta ahamiyat berdilar. (Buning sabablarini avvalgi mavzularda bilib olgan edingiz.) Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarning qaror topishida elchilar almashinuvi muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, XVIII asrning so'nggi choragida elchi Ernazarbiyning Rossiyaga ikki bor tashrifi bu o'rinda tengsiz bo'ldi. Ernazarbiy (Ernazar Maqsutov) keng dunyoqarashga va bilimga ega diplomat va savdogar edi. U har ikki davlat o'rtasida o'zaro ishonchga asoslangan munosabat qaror topishi uchun astoydil harakat qildi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash ishiga qo'shgan hissasi uchun Ernazarbiyga hatto Rossiya imperatori Yekaterina II Buxoroda madrasa qurish uchun pul ham ajratdi. Ana shu pulga qurilgan va Ernazarbiy nomi bilan ataluvchi madrasa hozirgacha qad ko'tarib turibdi.

U elchi sifatida savdo aloqalarini rivojlantirishdan tashqari Astraxon shahrida Rossiya tomonidan jome masjidi qurdirishga hamda amirlik fuqarolarining Astraxon orqali Haj safariga erkin borib kelishlarining kafolatlanishiga erishdi.

Ernazarbiy elchiligidan Doniyolbiy siyosiy maqsadlarni ham ko'zlagan edi. Chunonchi, Buxoro–Usmonli davlati munosabatlari haqida rus hukumatining qanday fikrda ekanligini bilish maqsadida, uning topshirig'iga ko'ra, elchi rus hukumatiga Buxoroning Usmonli davlati bilan do'stlik aloqalarini mustahkamlashga harakat qilishini ham ma'lum qildi. Shuningdek, Rossiya orqali Istanbul shahriga borish uchun ruxsat so'radi. Albatta, rus hukumati Buxoroning asosiy raqiblaridan biri Usmonli davlati qatorida turishini istamas edi. Shuning uchun ham rus hukumati Doniyolbiyning barcha iltimoslarini bajardi.

Buxoro–Rossiya siyosiy munosabatlarida 1797-yilda amir Shohmurod yuborgan Polvonquli qurchi elchiligi alohida o'rin egallaydi. Polvonquli elchiligining yuborilishiga Eronning Buxoro amirligi xavfsizligiga tahdid sola boshlaganligi sabab bo'ldi. Bu davrda Kavkazda Rossiya–Eron munosabatlari ham keskinlashgan edi. Amir Shohmurod bu omildan foydalanishga qaror qildi va Buxoro–Eron o'rtasida urush

kelib chiqqudek bo'lsa, birgalikda harakat qilishni taklif etdi. Biroq Yevropadagi muammolari bilan band bo'lgan Rossiya bu taklifni qabul qilmadi. Amir Haydar va Amir Nasrullo hukmronligi davrida ham Rossiya–Buxoro munosabatlari davom etdi. Har ikki tomon bir-biriga elchilar yuborib turishdi. Amir Haydar yuborgan elchilar Rossiya hukumati oldiga Ural daryosining Osiyo qit'asi qismidan amirlik savdogarlariga haq to'lamasdan chorva mollari boqishlari uchun joy ajratib berish, Buxoroga po'lat sotish, savdo karvonlarining talanishiga yo'l qo'ymaslik kabi masalalarni qo'ydilar.

Ko'tarilgan masalalardan chorva mollari boqishga ajratiladigan yerlar uchun haq to'lamaslik iltimosi qabul qilinmadi. Savdo karvonlari qarochilariga birgalikda qarshi kurashga rozilik berildi.

Amir Nasrullo hukmronligi davrida yuborilgan elchilar rus hukumati oldiga, asosan, Buxoro tovarlaridan olinayotgan boj to'lovlarini kamaytirish, tog'-kon ishlari olib borish uchun mutaxassislar yuborish hamda amirlikka zambarak quroli sotish kabi masalalarni qo'ydilar.

Bu davrda Buyuk Britaniya josuslari va tovarlarining O'rta Osiyoga kirib kelishining kengayishi Rossiyani xavotirga solib qo'ydi. Chunonchi, Banoras (Hindiston)dan kiritilayotgan ingliz tovarlari bu yerda o'z narxidan 6–9 marta arzon bahoda sotila boshlandi.

Amir Nasrulloning tog'-kon mutaxassislari yuborish to'g'risidagi iltimosi qabul qilindi. Ular Buxoroga qaytib kelayotgan savdo karvoniga qo'shib jo'natildi. Biroq karvon yo'lda hujumga uchradi va muhandislar ekspeditsiyasi katta qiyinchiliklar bilan Orenburgga qaytib ketdi.

1858-yilda Buxoroga polkovnik Ignatyev boshchiligida Rossiya elchilari keldi. Bu Buxoro amirligining mustaqil davlat maqomidagi oxirgi elchilik bo'ldi. Muzokaralar davomida Rossiya bilan savdo-sotiq ishlarida Buxoro savdogarlariga katta imtiyozlar berildi.

Ayni paytda, Amir Nasrullo Buyuk Britaniya elchilarini qabul qilmasligini, Afg'oniston amiridan ularni Buxoroga o'tishlariga ruxsat bermasligini so'rashini ma'lum qildi. Biroq Rossiya imperiyasi hukmron doiralari o'zlarini Buxoro amirligiga qanchalik do'st qilib ko'rsatmasinlar, ular O'rta Osiyoni butunlay bosib olishga zimdan tay-yorgarlik ko'rmoqda edilar. Shuning uchun ham Rossiya Ignatyev elchiligidan keyin boshqa elchi yubormadi.

Buyuk Britaniya – Rossiya raqobatchiligi

XIX asrning birinchi yarmida Buyuk Britaniya va Rossiya o'rtasida O'rta Osiyoda raqobat kuchayib ketdi. Bunga bu ikki mustamlakachi davlatlarning o'zbek davlatlari hisobiga yangi mustamlakalarga ega bo'lishga, ularning bozorlarini va boy xomashyo manbalarini qo'lga kiritishga intilishlari sabab bo'ldi.

Hindistonda mustahkam o'rnatilgan Buyuk Britaniya Rossiyaning o'zbek davlatlaridagi ta'sirini yo'qqa chiqarish hamda ularni o'z ta'sir doirasiga olish maqsadida maxsus ekspeditsiyalar yubora boshladi. Ekspeditsiyalar zimmasiga, ayni paytda, mahalliy nufuzli kuchlar bilan aloqa o'rnatish vazifasi ham yuklatildi.

Buyuk Britaniya ekspeditsiyalari

Buyuk Britaniya dastlab 1825-yilda zobit U. Murkford boshchiligida ekspeditsiya yubordi. Ekspeditsiya natijasida inglizlar Buxoro amirligini har tomonlama o'rganishga va mahalliy hukmdorlar orasida o'zlariga tarafdor guruhni shakllantirishga muvaffaq bo'ldilar.

Murkford ekspeditsiyasidan xabar topgan Rossiya tashvishga tushdi. Natijada, Rossiya hukumati Buxoro amiri Haydarga inglizlarning Buxorodagi xatti-harakatidan noroziligini bildirdi.

1832-yilda Aleksandr Byorns boshchiligida navbatdagi ingliz missiyasi Buxoroga keldi. U o'zini arman savdogari deb tanitdi va Buxoro amirligi qo'shbegisi bilan aloqa bog'lay oldi. Buyuk Britaniya hukumati Hindiston bilan O'rta Osiyo o'rtasida savdo aloqalarining kengayishiga o'zining o'zbek davlatlaridagi ta'sirini qaror toptirishning asosiy yo'li deb qarar edi. Shuning uchun ham Buyuk Britaniya hind savdogarlariga o'zbek davlatlari bilan savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yishlarida katta yordam ko'rsatdi.

A. Byorns mamlakat hududida katta razvedka ma'lumotlari ham to'play oldi. Bu elchilik missiyasi O'rta Osiyoda Buyuk Britaniya savdosining rivojlanishiga yordam berdi.

1839-yili Buyuk Britaniya Afg'onistonga qarshi harbiy harakatlar boshlaganida Rossiya–Buyuk Britaniya munosabatlari yanada keskinlashdi. Agar Afg'oniston bosib olingudek bo'lsa, navbat O'rta Osiyoga kelishi mumkin edi.

Rossiyaning Qrim urushidagi mag'lubiyati O'rta Osiyoning Rossiya uchun siyosiy va strategik ahamiyati qanchalik katta ekanligini ko'rsatdi.

Rossiyaga Buyuk Britaniya harbiy flotining Qora dengizdan xavf solish imkoniyatini yo'qqa chiqara oladigan omil zarur edi. O'rta Osiyoni egallash ana shunday omil bo'la olardi. Chunki Rossiya Buyuk Britaniya uchun o'ta muhim bo'lgan Hindistonga bevosita tahdid solish imkoniga ega bo'lardi. Buyuk Britaniya esa buni aslo istamas edi. Rossiyaning Hindistonga tahdid solishi mumkinligi Buyuk Britaniyani Qora dengiz sohillariga tutash Rossiya hududlariga xavf solish imkoniyatidan mahrum etdi. Ikkinchidan, O'rta Osiyoni egallash rivojlanib borayotgan Rossiya sanoatini arzon xomashyo bilan to'la ta'minlash imkonini ham berardi. Ana shu ikki omil bundan keyin Rossiyaning O'rta Osiyo davlatlari, jumladan, Buxoro amirligiga nisbatan tutadigan bosqinchilik siyosatini belgilab berdi.

- ?
1. Amirlik tashqi siyosatining asosiy tamoyillarini qayd eting.
 2. Nima uchun Buyuk Britaniya O'rta Osiyoga e'tibor bera boshladi?
 3. Rossiya elchisi polkovnik Ignatyev 1858-yilda amir bilan qaysi masalalarda kelishuvga erishdi?
 4. XIX asrning birinchi yarmida o'zbek davlatlari masalasida Rossiya-Buyuk Britaniya raqobati kuchayishiga nimalar sabab bo'ldi?
 5. Buyuk Britaniyaning O'rta Osiyoga yuborgan ekspeditsiyalari qanday vazifalarni bajardi?
 6. Rossiyaning O'rta Osiyoni harbiy kuch bilan egallashini tezlashtirishga undagan omillar haqida nimalarni bilib oldingiz?

Mulohaza yuriting!

Bugungi kunda davlatlararo munosabatlar qanday tamoyillarga asoslanadi?

21-§. Buxoro amirligida madaniy hayot

Tarix ilmi Ashtarxoniyalar hukmronligi davridan boshlab madaniy-ma'naviy hayot rivojining to'sig'iga aylangan diniy mutaassiblik mang'itlar hukmronligi davrida ham texnika va tabiiy fanlarning rivojlanishiga imkon bermadi. Chunki diniy mutaassiblik namoyandalari bu fanlar sohasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan har qanday kashfiyotni Xudoning irodasiga shak keltirish deb baholardilar. Shu tufayli bu davrda asosiy asarlar tarix, adabiyot, san'at va me'morchilik sohasida yaratilgan. XIX asr birinchi yarmida

ijod etgan tarixchi olim *Muhammad Ya'qub ibn Doniyolbiy* „Gulshan ul-muluk“ („Podshohlar gulshani“) nomli asar yozib qoldirdi. Bu asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi Buxoroning qadimgi tarixi, uning hukmdorlari shajarasi bayoniga bag'ishlangan. Asarning ikkinchi qismida esa O'rta Osiyoning XVIII va XIX asr boshlaridagi tarixi bayon etilgan. XIX asrda yozilgan *Mirzo Shams Buxoriyning* „Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro, Ho'qand va Qoshg'ar“ („Buxoro, Qo'qon va Qashqarning ayrim voqea-hodisalari bayoni“) asari, shuningdek, *Mir Olim Buxoriyning* „Fathnomayi sultoniyy“, *Muhammad Hakimxonning* „Yilnomalar to'plami“, shuningdek, bu davrda bitilgan „Tarixi Amir Haydar“ kabi asarlar tariximiz uchun muhim manbalar hisoblanadi.

Adabiyot Bu davr adabiyotida o'z davrining mashhur shoir va yozuvchilari ijod qildilar. Ulardan biri o'ziga xos iste'dod egasi *Muhammadniyoz Nishotiy* edi. Shoir 1778-yilda o'zining ajoyib „Husn-u Dil“ dostonini yaratdi. O'zbek adabiyotining katta yutug'i sanalgan bu asarni shoir majoziy shaklda yozgan. Doston qahramonlari – Aql, Husn, Yurak, Xayol, Vafo, Nazar, Ishq va boshqalarning har biri g'oyat go'zal insoniy fazilatlarga ega. Raqib, Fasod, Nafs obrazlari esa salbiy sifatlar hamda turli yovuzliklarning timsoli edi.

Dostonda odamlar va davlatlar orasidagi nizolar, baxillik va boshqa axloqiy qusurlar qoralandi. Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarashlarda xayrli intilishlar, aql va oliyjanob niyatlar ustun keladi. Bundan tashqari, Nishotiyning adabiy ijodidagi yana bir o'ziga xoslik – adabiyotda munozara janri taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligidir. Bu o'rinda uning „Qushlar munozarasi“ majmuasi katta ahamiyatga ega. Asarda o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumga xos illat, jaholat, mansabparastlik majoziy shaklda tanqid qilingan. Mehnat ahlining kamtarligi esa ulug'langan. Asarda laylak, zog', bulbul, to'vus, to'ti, humo kabi jami 14 ta qush o'rtasida bo'lib o'tgan bahs tasvirlangan.

Bu davrning yana mashhur shoirlari *Mujrim Obid* va *Volalar* edi. *Mujrim Obidning* asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik va odamlar fe'lidagi illatlar tanqid ostiga olinadi.

Volaning (1770–1842) ko'zi tug'ma ojiz bo'lsa-da, tabiat unga kuchli iroda, aql, xotira va qobiliyat hamda yoqimli ovoz in'om etgan edi. Shoir o'z she'rlaridan 2 ta devon tuzdi. Bizgacha 3 ming misra she'rlari yetib keldi. O'z she'rlarida xalq boshiga tushgan kulfat va mashaqqatlarni kuyladi.

Tasviriy san'at va musiqa

Buxoroda xattotlik, miniatura hamda qo'lyozmalarni naqshli bezash san'ati rivojlandi. Bu sohaning qator yetuk bilimdonlari zamonasiga yarasha yodgorlik qoldirdilar. Chunonchi, Amir Haydar davrida ijod qilgan *Mir Ma'sum Olamiyon* „Axloqi Muhsiniy“ kitobini hamda Sa'diyning she'riy asarlarini rasm bilan bezadi.

Mirzo Sodiq Jondoriy Nasrulloxon amirligi davrida qo'lyozma kitoblarga lavhalar, Sa'diy va Hofiz asarlariga turmush manzaralari tasvirlangan rasmlar ishladi.

Yirik olim, shoir *Ahmad Donish* (1827–1897) 20 yil mobaynida Buxoro saroy kutubxonasida xattotlik va rassomlik bilan shug'ullandi. U tibbiyot va riyozat fanlari, me'morchilik va musiqa san'atini ham o'rgandi. Ahmad Donish ko'chirgan, bezagan yoki rasm ishlagan qo'lyozmalar ichida „Shohi darvesh“, „Ajoyib at-tabaqot“ va boshqa asarlar buning dalilidir.

Buxoro yuksak ustozona musiqa san'atining markazlaridan biri bo'lgan. Chunonchi, Buxoroda vujudga kelgan „Shashmaqom“ buning yorqin dalilidir. Buxoro Shashmaqomi Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan iborat bo'lib, 250 dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula namunalaridan tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev bunday degan edi: „*Xalqimiz badiiy tafakkuri mahsuli bo'lgan „Shashmaqom“, ya'ni olti maqomni, ta'bir joiz bo'lsa, olti azim daryoga qiyoslash mumkin. Bu daryolar asrlar davomida jahon madaniyat ummoniga quyilib, uni har tomonlama to'ldirib, boyitib kelmoqda. Shuning uchun ham bu muazzam musiqiy durdona YUNESKO tomonidan jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgani chuqur ma'no va ahamiyatga ega.*

Maqom ashulalarining she'riy matni Rudakiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Bobur, Nodira va Mashrab singari turkiy va forsiy tilli mumtoz shoirlarning lirikasidan tuzilgan. Shashmaqom og'zaki tarzda ustoz-shogird an'anasi shaklida avloddan avlodga o'tib kelmoqda.



2018-yilning 6–10-sentabr kunlari Shahrizabz shahrida Xalqaro maqom san'ati anjumani bo'lib o'tdi. Unda dunyoning 73 davlatidan 300 ga yaqin yakkaxon ijrochi va musiqiy jamoalar ishtirok etishdi. Anjumanning bosh mukofotini Tojikiston maqom akademiyasi qo'lga kiritdi.

Ta'lim Buxoro amirligida ta'lim tizimi ashtarxoniyalar davridagi ko'rinishda saqlab qolindi. Ya'ni o'quv yurtlari amirlikda ham boshlang'ich (maktabxona) va oliy (madrasa) maktabdan iborat edi. Maktabxonalar, asosan, masjidlar qoshida ochilgan. Ularda imomlar o'qituvchilik qilishgan. Amir Haydar 1803–1804-yillarda islohot o'tkazdi. Unga ko'ra amirlikda hamma fuqarolar uchun zaruriy umumiy ta'lim joriy etildi. Islohotni amalga oshirish uchun har bir beklikka maxsus vakillar jo'natildi. Ayni paytda jiyani – Qarshi begi Sayyid Ahmad xoja Fayziy amirlik bo'yicha mas'ul etib tayinlandi. Amir Haydar jiyaniga yo'llagan xatida, jumladan, bunday deb yozgan edi: „Siz... muallimlarga tayinlangki, ular zaruriy umumiy ta'limni barcha tobe xalq puxta egallamog'ini ta'minlasinlar... Barcha kishilar umumiy zaruriy ta'limni puxta egallasinlar“. Madrasa ta'limi uch bosqich edi. Bu davrda Buxoroda 60 ta madrasa, 300 ta masjid faoliyat ko'rsatardi. Madrasalarda 9 mingdan 10 mingtagacha talaba ilm olgan.

Aniq fanlardan tashqari tarix, geografiya, til va adabiyot, arab tili, shuningdek, ilohiyot ilmidan ta'lim berilgan. Tabiiy fanlar, asosan, o'rta asrlar mualliflarining asarlarini takrorlashdan nariga o'tmagan. Tarix darslari esa muallifi noma'lum bo'lgan „Tarixi Iskandariy“ va XIII asrda yashab o'tgan Alouddin Otamalik Juvayniyning „Tarixi Jahonkushoy“ asarlari asosida olib borilgan.

Juvayniy (1226–1283) tarixchi olim va davlat arbobi bo'lgan edi. U arab, fors, mo'g'ul va uyg'ur tillarini mukammal egallagan. O'z asarini Mo'g'uliston, O'rta Osiyo hamda Eronning XIII asrdagi tarixiga bag'ishlagan. Asar uch qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida Chingizxonning istilochilik urushlari, shuningdek, Jo'jixon va Chig'atoy hamda ularning avlodlari tarixi haqida hikoya qiladi.

Ikkinchi qismi esa Xorazmshohlar va Xurosonning mo'g'ul hukmdorlari davri tarixiga bag'ishlangan.

Uchinchi qismida Xulokuxonning Eronni zabt etishi kabi voqealar tarixi yoritilgan.

Asarning 1–2-qismlari O'rta Osiyo tarixi uchun alohida qimmatga ega.

Maktabxona va madrasalardagi ta'lim xarajatlari vaqf mulki hisobidan amalga oshirilgan.

Hukmdorlar ta'lim tizimi moddiy ta'minotini nazoratda tutganlar. Madrasa ilmining ahvoli bilan qiziqib turganlar. Chunonchi, Amir Haydar o'z davrining bilimdon hukmdorlaridan biri edi. Qur'oni Karimni yoddan bilardi. Amir huzurida tez-tez diniy va ilmiy munozaralar o'tkazilib turilgan. Buxoro madrasalariga chet davlatlardan o'qishga keluvchilar soni ortib borgan. Ular uchun qulay sharoit yaratish choralarini ko'rilgan. Amir Haydarning o'zi ham madrasa talabalariga ma'ruzalar o'qib turgan.



Maqom – musiqada bir qisimli yoki turkumli cholg'u va ashula yo'llari; musiqiy uslub.



1. Tarix ilmi sohasida yaratilgan asarlarning ro'yxatini tuzing.
2. Muhammadniyoz Nishotiy ijodiga mansub asarlarning mazmuni haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Shoir Mujrim Obid she'riyatida tanqid qilingan illatlar nimadan dalolat beradi?
4. Xattotlik va miniatura san'ati sohasidagi ijod namunalari misollar keltiring.
5. Musiqa san'atining maqom janri haqida so'zlab bering.



Buxoroda XVI–XIX asrning birinchi yarmida hukmronlik qilgan sulolalar

№	Sulolalar nomi	Hukmronlik yillari	Sulolaning eng mashhur hukmdorlari	Yaratilgan tarixiy asarlar
1.				
2.				
3.				



III BOB. XIVA XONLIGI

22-§. Xiva xonligining tashkil topishi

Xorazmning mustaqilligi uchun kurash

Xorazm Shayboniyxon hujumi arafasida temuriy Sulton Husayn Boyqaro hukmdor bo'lgan Xuroson davlati tasarrufida edi. Husayn Boyqaro Xorazmga qo'ng'iroq qabilasidan chiqqan Chin So'fini noib etib tayinlagan.

1505-yili Shayboniyxon, 1510-yilda esa Eron hukmdori shoh Ismoil Xorazmni bosib oldilar. Biroq shoh Ismoilning hukmronligi uzoqqa bormadi. Xorazmliklar safaviylar hukmronligiga qarshi kurash boshladi. Bu kurashga mahalliy aslzodalar boshchilik qildi. Xususan, Xorazmni Eron safaviylaridan ozod etish va mustaqil davlat tuzish uchun boshlangan kurashning tashabbuskori o'sha davrda Xorazmning markazi bo'lgan Vazir shahrining qozisi Umar qori bo'ldi. U xorazmliklarni safaviylarga qarshi kurashga da'vat etdi. Xorazm xalqini mustaqillik uchun kurashga ko'tarishda Sayid Hisomiddin qattol ham katta rol o'ynadi.

Xorazmning bo'lajak hukmdori hokimiyatining qonuniy maqomga ega bo'lishi juda muhim edi. Shu sababli mustaqillik uchun kurashning rahnamolari Xorazm taxtiga Dashti Qipchoqdagi Shaybon avlodidan bo'lgan Berka Sultonning o'g'li Elbarsxonni taklif etdilar. Berka Sultonning xonadoni Shayboniyxon xonadoni bilan garchand bir shajaradan bo'lsa-da, bir-biriga dushmanlik munosabatida edilar. 1480-yilda o'zaro toj-u taxt uchun kurashda Muhammad Shayboniyxon tomonidan o'z bobokaloni Shaybonxon avlodiga mansub Berka Sultonning o'ldirilganligi buning sabablaridan biri edi. Elbarsxon 1512-yilda Xorazm taxtiga o'tqazildi.

Elbarsxon davrida mamlakat poytaxti Vazir shahridan Urganch shahriga ko'chirildi. Elbarsxon Vazir shahrini Eron qo'shinlaridan ozod etgach, bu g'alaba sharafiga o'z o'g'illari nomiga „g'ozi“ laqabini qo'shib aytishni buyurdi.



Erksevar Xorazm xalqining ozodlik uchun kurashida erishgan g'alabasi natijasida, 1512-yilda Xorazmning mustaqilligi tiklandi va bu mustaqil davlat keyinchalik **Xiva xonligi** deb atala boshlandi. Xiva xonligida shayboniylar hukmronligi 1770-yilgacha davom etdi. Xiva shayboniylari Jo'jixonning beshinchi o'g'li Shaybon naslidan bo'lgan Arabshoh ibn Po'lodning avlodlari bo'lganligi uchun arabshohiylar deb ham ataladilar.

Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot

Movarounnahrda Shayboniylar davlati singari Xiva xonligi ham bir qancha kattakichik mulklarga bo'lindi. Xonlikda yirik o'zbek qabilalarining boshliqlari amalda mustaqil mulk egalari aylandi. Ular xonlikning butun ijtimoiy-siyosiy hayotiga hal etuvchi ta'sir ko'rsatib keldilar.

Ayni paytda, ular markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka, mustaqillikka intilishdi. Bu hol o'zaro nizolarni chuqurlashtirdi. Buning ustiga, XVI asrning 70-yillarida Xiva xonligi iqtisodiy inqirozga duchor bo'ldi. Uning asosiy sabablaridan biri – Amudaryoning o'z o'zanini o'zgartirib, Orol dengizi yo'nalishida oqa boshlagani edi. Buning oqibatida eski o'zan atrofidagi yerlar cho'lga aylandi. Aholi esa xonlikning boshqa hududlariga ko'chib o'tishga majbur bo'ldi. Bundan tashqari, Xiva xonligining XVI asrda ikki marta Buxoro xonligi tomonidan bosib olinishi, shuningdek, o'zaro qabilaviy nizolar, og'ir soliqlar hamda turli to'lov va jarimalar mamlakat aholisini xonavayron qildi. Savdo-sotiqqa katta putur yetdi.

XVI asrda Xiva – Buxoro munosabatlari

Markaziy Osiyoda dastlab tashkil topgan ikki o'zbek davlati – Buxoro va Xiva xonligi o'rtasida o'zaro sovuq munosabatlar hukm surdi. Buning asosiy sababi – xonliklarning bosqinchilik urushlari hisobiga o'z hududlarini bir-birining hisobiga kengaytirishga urinishlari bo'lsa, ikkinchisi, Buxoro va Xiva xonligida hukmron sulolalarning bir-biriga g'anim bo'lib qolgan xonadonlarga mansubligi edi.

Buxoro xoni Ubaydullaxon 1537–1538-yillarda Xorazmga hujum qilib, Xiva xonligini bo'ysundirdi. Ubaydullaxon o'g'li Abdulazizni Xorazmga noib etib tayinladi. Biroq bu ahvol uzoq davom etmadi. Erksevar Xorazm xalqining ozodlik uchun kurashi natijasida mamlakatning mustaqilligi tiklandi. Ubaydullaxon yuborgan qo'shin esa

tor-mor keltirildi. Abdulazizxon Buxoroga qochib kelishga majbur bo'ldi. Keyingi hukmdorlar davrida ham bu ikki xonlik o'rtasidagi adovat va g'animlik to'xtamadi.

Jumladan, Buxoro xoni Abdullaxon II Xiva xonligini bir necha bor, 1598-yilda esa uzil-kesil bo'ysundirdi. Biroq shu yilda Abdullaxon II ning vafotidan keyin Buxoro xonligida boshlangan o'zaro toj-u taxt uchun kurashlar oqibatida Xiva xonligi yana mustaqil davlatga aylandi.



- 1510-yil – Ismoil Safaviy Xorazmni bosib oldi.
- 1512-yil – O'rta Osiyoda ikkinchi o'zbek davlati – keyinchalik Xiva xonligi deb atalgan davlat tashkil topdi.



1. Xiva xonligining tashkil topishi haqida so'zlab bering.
2. XVI asrda Xiva xonligi iqtisodiy hayotida ro'y bergan inqiroz sabablarini qayd eting.
3. Xiva va Buxoro xonliklari munosabatlarida g'animlik kayfiyati kuchli bo'lganligini misollar yordamida asoslab bering.

23-§. XVII–XVIII asrning birinchi yarmida xonlikdagi siyosiy ahvol

Siyosiy parokandalik

XVII asrdan boshlab Xiva xonlari davlat hayotiga bid har bir masalani qabila boshliqlarisiz mustaqil hal eta olmaydigan bo'lib qoldilar. Ayni paytda, ular xon taqdirini hal etardilar. Binobarin, bu holat Xiva xonligida davlat parokandaligi yuz berganligini anglatar edi. Parokandalik Arab Muhammadxon davrida (1602–1623) yuqori nuqtasiga yetdi. Amudaryo o'zanining o'zgarishi bu davrda ham davom etdi. Natijada, Arab Muhammadxon xonlik poytaxtini Urganchdan Xivaga ko'chirishga majbur bo'ldi. Xorazm davlati endilikda Xiva xonligi deb atala boshlandi. Yuz bergan iqtisodiy tanglik davlatning siyosiy ahvoliga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqi kuchlar foydalanib qolishga urindilar. Chunonchi, Arab Muhammad davrida Rossiya chegarasini qo'riqlab turgan ataman Nechay va ataman Shamay boshchiligidagi Yoyiq kazaklari birin-ketin Urganchga hujum qildilar. Garchand bu hujumlar muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsa-da, xonlik iqtisodini xonavayron qildi.

Abulg'oziy Bahodirxon Toj-u taxt orzusida Arab Muhammadxonning o'g'illari Habash va Elbars sultonlar ayrim qabilalarning boshliqlariga tayanib, otalariga qarshi isyon ko'tardilar. 1621-yildagi isyon chog'ida otalari Arab Muhammadxon tarafida uning boshqa ikki o'g'li – Asfandiyor va Abulg'oziy sultonlar urushda qatnashdilar. Bu urushda Habash va Elbars sultonlar g'olib chiqdi. Noqobil farzandlarning amri bilan ota asir olindi.

Abulg'oziy Bahodirxon Buxoro xoni Imomqulixon saroyida panohtopdi. Asfandiyor esa Eron shohi Abbos I huzuriga yo'l oldi. 1623-yilda uning yordamida Xiva taxtini egalladi va Habash hamda Elbars qatl etildi. Bu voqeadan xabar topgan Abulg'oziy Bahodirxon Xivaga qaytdi. Asfandiyorxon (1623–1643) uni Urganch hokimi etib tayinladi. Biroq tez orada aka-uka o'rtasidagi munosabatlar buzildi. Natijada, Abulg'oziy Bahodirxon Turkiston, Toshkent va Buxoroda qochib yurishga majbur bo'ldi. Asfandiyorxon siyosatidan norozi bo'lgan turkmanlarning chaqirig'i bilan u yana Xivaga qaytib bordi. Akasi unga Xivani topshirishga majbur bo'ldi. Biroq 1630-yilda uni Eron shohi huzuriga garov tariqasida jo'natib yubordi. Abulg'oziy Bahodirxon Eronda 10 yil tutqunlikda yashadi. Nihoyat, tutqunlikdan qochib, Orol o'zbeklari qarorgohiga yetib keldi. Asfandiyorxon vafot etgach, 1644-yilda Xiva xonligi taxtini egalladi.

Abulg'oziy Bahodirxonning davlatchilikni mustahkamlashga qaratilgan islohotlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. U davlatning boshqaruv tuzilmasini o'zgartirdi. Ayrim viloyatlarning hokimligiga urug' boshliqlari tayinladi. Bir-biri bilan o'zaro nizo qiluvchi urug'lar boshliqlari o'rtasidagi to'qnashuvlarning oldini olish uchun u Amudaryoning quyi oqimida yashovchi aholini to'rtta birlashmaga bo'ldi. Ularning har biriga yer ajratib berdi. Davlat apparatida muhim ma'muriy mansablarni egallaydigan shaxslar ularning orasidan tayinlanadigan bo'ldi.

Har bir qabilaviy guruhga inoq tayinlandi. Abulg'oziy Bahodirxonning farmoniga muvofiq, urug'larning yuqori tabaqasidan xonga maslahatchilik qiladigan kishilar guruhi ajratib olindi. Eng e'tiborli amaldorlar hisoblanuvchi inoqlar ham ularning orasidan chiqqan edi.

Abulg'oziy Bahodirxonning islohotlari ma'lum muddatga bo'lsa-da, hokimiyatning markazlashuviga hamda ko'chmanchilar va yarim ko'chmanchilarning o'troqlashish jarayonini kuchaytirishga xizmat qildi.

Xiva – Buxoro munosabatlari

Afsuski, Xiva–Buxoro munosabatlari keskin kechdi. Buxoro xonligi Xiva xonligini o‘z mulkiga qo‘shib olish uchun bir necha bor urinib ko‘rdi. Abulg‘oziy Bahodirxon Buxoroning hujumini qaytardi. Keyinchalik qulay imkoniyatlar bo‘lganida o‘zi ham bir necha bor Buxoro hududlariga bostirib kirdi. Va nihoyat, 1662-yilda Buxoro xonligi bilan sulh tuzdi. Abulg‘oziy Bahodirxon 1663-yilda hokimiyatni o‘g‘li Anushaxonga topshirdi. Uning davrida ikki davlat munosabatlari yanada keskinlashdi. Anushaxon davrida Xiva–Buxoro munosabatlari qanday kechganligi haqida avvalgi mavzularda bilib olgan edingiz. Anushaxonni taxtdan ag‘dara olgan Subhonqulixon eshikog‘aboshi Shohniyozni Xivaga noib etib tayinladi. Biroq tez orada Xiva xonligida Buxoro, Rossiya va Eron manfaatlarini to‘qnashdi.

Manfaatlar to‘qnashuvi Shohniyozning Subhonqulixonga xiyonat qilishidan boshlandi. Shohniyoz o‘z hokimiyatini mustahkamlashga va Buxoroga qaramlikdan qutulishga intilib, Rossiya siyomosida kuchli homiyga ega bo‘lmoqchi bo‘ldi. 1700-yilda u Subhonqulixonga bildirmay, Pyotr I huzuriga elchi yuborib, o‘ziga tobe bo‘lgan butun xalq bilan birga Rossiya qaramog‘iga qabul qilishni so‘radi. Pyotr I 1700-yilning 30-iyunidagi farmon bilan bu iltimosga rozilik bildirdi. Biroq bu farmon amalda hech naf keltirmadi. Xiva xonligining parokandaligi Sherg‘oziyxon davrida (1715–1727), ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ldi. O‘zaro ichki mojarolar tufayli yemirilayotgan davlatning ichki ahvoli chet davlatlarning aralashuvi sababli yanada mushkullashdi. Chunonchi, 1714-yilda Pyotr I uyushtirgan A. Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi ekspeditsiya o‘sha paytda qudratli Rossiya davlatining Xivani o‘z ta‘siriga bo‘ysundirish yo‘lidagi dastlabki urinishi bo‘ldi. Ammo bu ekspeditsiya fojiali tugadi. Shundan keyin Xiva ancha vaqtgacha Rossiya tomonidan hujum bo‘lishi xavfi ostida yashadi. Biroq „Shimoliy urush“ bilan band bo‘lgan Rossiya harbiy harakat boshlay olmadi. Shunday bo‘lsa-da, Bekovich-Cherkasskiy harbiy „ekspeditsiyasi“ning halokati Xiva–Rossiya munosabatlarini keskinlashtirib yubordi. Bunday sharoitda Sherg‘oziyxon Buxoro bilan munosabatlarni yumshatishga harakat qildi. Lekin Rossiya hujumi xavfi saqlanib turgan bir paytda har ikki o‘zbek xonligi o‘zaro hamjihat bo‘lishga intilish o‘rniga ularning munosabatlaridagi keskinlik yanada

kuchaydi. Bunga Buxoro xoni Abulfayzxonning orolliklarni Xiva xoniga qarshi gijgijlashi sabab bo'ldi. Natijada, Orolbo'yi aholisi Xiva xonligidan ajralib chiqdi. Xiva xonligida boshlangan o'zaro kurash goh u, goh bu tomonning ustunligi bilan to Sherg'oziyxonning vafotiga qadar davom etdi. Qabilalar o'zaro kelisholmagach, endi taxtga Qozoq xonligidan chingiziy sultonlarni o'tqazish boshlandi. 1728-yilda taxtga o'tqazilgan Elbarsxon ularning birinchisi bo'ldi (1728–1740). Eron shohi Nodirshoh xonlikdagi siyosiy beqarorlikdan foydalanib, 1740-yili Xivani bosib oldi va Xivaga o'z odamini hokim etib tayinladi. Xivada Eron boshqaruv tizimi o'rnatildi. Biroq Eronga qaramlik davrida ham ichki nizolar to'xtamadi. Aksincha, taxt uchun qabilalararo ayovsiz kurash boshlandi. Taxtga esa atayin chingiziylar avlodiga mansub xonlarni o'tqazish davom etdi va ular tez-tez almashtirib turildi. Bu hodisa xonlik tarixiga „xonlar o'yini“ nomi bilan kirdi.

Xonlar esa amalda inoqlar qo'lida itoatkor bo'lib qoldilar. O'zaro ichki kurashlarda ma'lum muddat turkman yovmutlarining qo'li baland keldi. Ular 1764-yilda hokimiyatni amalda o'z qo'lga oldilar. Biroq ular davlatni boshqarishni eplay olmadilar. Ularning zo'ravonlik va talonchiliklari xonlik aholisini, ularni qo'llab-quvvatlagan kuchlarni ham o'zlariga qarshi qilib qo'ydi. Xonlikdagi bu ichki boshboshdoqlik qo'ng'iroq qabilasi hokimiyat tepasiga kelgunga qadar davom etdi.

- ?
1. XVII asrdan boshlab Xiva xonligida kuchayib borgan ikki jaryonni qayd eting.
 2. Abulg'oziy Bahodirxon qanday qilib hokimiyat tepasiga keldi?
 3. Xiva–Buxoro munosabatlaridagi keskinlik qanday oqibatlariga olib keldi?
 4. Xiva xonligining Eron tomonidan bosib olinishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlang.
 5. Qanday omillar Xiva xonligida hokimiyatning qo'ng'iroqlar sulolasi qo'lga o'tishiga yo'l ochdi?

24-§. Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida xonlikning siyosiy ahvoli

Qo'ng'irot sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi

Xiva xonligidagi boshboshdoqliklarga va o'zaro to'xtovsiz ichki urushlarga kimdir chek qo'yishi tarixiy zaruriyatga aylandi. Chunki xonlikning iqtisodiy ahvoli, avvalo, siyosiy tarqoqlikdan va o'zaro ichki urushlardan, shuningdek, dushman davlatlar hujumidan katta zarar ko'rdi. Ikkinchidan, xalq o'zining beomon talanishi, tinimsiz urushlar tufayli xonavayron bo'lishi oqibatida tevarak-atrofdagi yurtlarga qochib ketib jon saqlashga majbur bo'ldi. Natijada, ko'plab yerlar tashlandiq holatga tushib qoldi. Bu omillar, o'z navbatida, zodagonlar va qabilalar o'rtasidagi mojarolarni to'xtatishga qodir bo'lgan kuchli markaziy hokimiyatning barpo etilishini taqozo etmoqda edi.

Bunday hokimiyatni barpo etishga qodir kuch sifatida maydonga o'zbeklarning qo'ng'irot qabilasi chiqdi. XVIII asrning 60-yillaridan boshlab Xiva xonligida hokimiyatni qo'ng'irot qabilasi o'z qo'liga ola boshladi. Yirik zodagonlar va ruhoniylar tabaqasining madadiga tayangan qo'ng'irot qabilasining yo'l boshchisi Muhammad Amin 1761-yilda inoqlik lavozimiga ko'tarildi. U turkman qabilalariga qarshi kurash olib bordi. Biroq dastlab muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Buxoro amirligiga – Doniyolbiy otaliq huzuriga ketdi. Turkman qabilalari Xorazmni egalladilar va ko'plab, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Kat, Shohobod shaharlarini xonavayron qildilar. Ocharchilik va vabo tarqalib, aholi Orolbo'ylari va Buxoroga ketishga majbur bo'ldi.

Buxoro amirligi madadiga tayangan Muhammad Amin inoq 1770-yilda Buxorodan qaytib keldi va turkman qabilasini Xivadan quvib chiqardi va mahalliy beklarni ham bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Shu tariqa Xiva xonligida hokimiyat uning qo'liga o'tdi.

Muhammad Amin mamlakatda nisbatan siyosiy osoyishtalik vaziyatini yaratishga erishdi. Bularning barchasi mamlakat iqtisodining ko'tarilishini ta'minladi. Jon saqlash uchun o'zga yurtlarga qochib ketgan fuqarolar yana qaytib kela boshladilar.



Shu tariqa, 1770-yilda xonlikda qo'ng'irotlar sulolasining hukmronligi o'rnatildi. Biroq bu sulola chingiziylar avlodiga mansub bo'lmaganligi uchun taxtda avvalgi sulola vakillarini saqlab keldilar. Ular aslida soxta xonlar bo'lib, amalda hech qanday hokimiyatga ega bo'lmaganlar.

Avaz Muhammad inoq davrida Xiva xonligi iqtisodiy jihatdan ancha mustahkamlandi. Muhammad Amin (1770–1790) ham, uning o‘g‘li Avaz (1790–1804) ham davlat hokimiyatini inoq unvonida boshqardilar. Faqat Avazning o‘g‘li Eltuzar 1804-yilda o‘zini xon deb e‘lon qildi. Bu sana xonlik tarixiga qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligi rasman o‘rnatilgan sana sifatida kirdi. Sulola 1920-yilga qadar Xiva xonligini idora qildi.

Eltuzarxon xonlikda markazlashgan davlat siyosati yuritish uchun harakat qildi. Biroq u 1806-yilda Xiva–Buxoro urushida halok bo‘ldi.

Muhammad Rahimxon I davrida Xiva xonligi

Eltuzarxon vafot etgach, taxtga uning ukasi Muhammad Rahimxon I o‘tirdi. Muhammad Rahimxon I Xiva xonligini siyosiy jihatdan birlashtirishga kirishdi. Bu juda muhim, kerak bo‘lsa, hayot-mamot masalasi edi. Chunki Rossiya tomonidan mustahkamlangan Orenburg liniyasining paydo bo‘lishi Xiva xonligiga bevosita tahdid solmoqda edi. Ikkinchidan, Buxoro amirligining hujumlariga qarshi tura olish ham zarur edi. Xonlikni siyosiy jihatdan birlashtirmasdan va markaziy hokimiyatni mustahkamlamasdan turib chet el davlatlari tahdidining kuchini kamaytirish qiyin edi. Birlashtirish jarayoni turkman qabilalarini bo‘ysundirishdan boshlandi. Turkmanlarning turli qabilalari qanchalik qattiq qarshilik ko‘rsatmasinlar, birin-ketin bo‘ysundirib borildi. Bo‘ysunishni istamagan yovmut qabilasi Xurosonga ko‘chib ketdi. Biroq Eron hukumatining tazyiqi ostida hamda yaylov maydoni yo‘qligi natijasida yana Xiva xonligi hududiga qaytib keldilar. Endi ular Xiva xoni tomonidan ajratib berilgan hududga joylashishga majbur bo‘ldilar. Shu davrdan boshlab, yovmut qabilasining taqdiri Xiva xonligi bilan uzil-kesil bog‘landi va xonlik fuqarolari tarkibiga olindi. Ularga ham soliq to‘lash belgilandi. Shuningdek, xon qo‘shiniga belgilangan miqdorda navkar yuborish majburiyati ham yuklandi.

Ular xon qo‘shinida sidqidildan xizmat qildilar. Muhammad Rahimxon I o‘zbeklar va turkmanlardan tuzilgan „xon navkarlari“ deb atalgan muntazam qo‘shinga tayanib yirik zodagonlar va Orolbo‘yi o‘zbeklari qarshiligini sindirdi. 1811-yilda esa qoraqalpoqlar ham bo‘ysunishga majbur etildi. Shu tariqa, Muhammad Rahimxon I davrida xonlik siyosiy jihatdan birlashtirildi. Ayni paytda, uning hududlari yanada kengaytirildi.

**Muhammad Rahimxon
islohotlari**

Mamlakatda nisbiy barqarorlik ta'minlandi. Ayni paytda, davlat boshqaruvi, soliq tizimida islohotlar o'tkazildi. Bojxona xizmati va zarbxona tashkil etildi. 1809-yilda tilla tangalar zarb etish yo'lga qo'yildi. Davlat boshqaruvi sohasida o'tkazilgan islohotga ko'ra, xon huzurida yuqori boshqaruv organi – *Oliy Kengash* ta'sis etildi.

Vakolati cheklangan bo'lsa-da, Kengash xon farmonlarini tasdiqlovchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vazifasini bajardi. Oliy Kengashga xonning o'zi rahbarlik qildi. Oliy Kengash ishida xonning yaqin qarindoshlari, mehtar, qo'shbegi, devonbegi, naqib, shayxulislom, bosh qozi, inoq, otaliq va biylar qatnashganlar. Oliy Kengash majlisi haftada bir marta o'tkazilgan va unda davlatning ichki va tashqi siyosatiga oid eng muhim masalalar muhokama etilgan. Ayni paytda, xonlik hayotiga oid kundalik masalalarni hal etish uchun *Kichik Kengash* ham ta'sis etildi. Bu kengash ishida xondan tashqari mehtar, qo'shbegi, devonbegi, naqib va shayxulislom qatnashganlar.

Soliq tizimida o'tkazilgan islohotga ko'ra, soliqlarning muntazam undirilishi ta'minlandi. Bunga yerdan olinadigan soliqning mahalliy hokimlar tomonidan yig'ilishiga chek qo'yish, soliqlarning xon tomonidan tayinlangan davlat amaldorlari tomonidan yig'ilishi tartibining o'rnatilishi orqali erishildi. Ayni paytda, yer solig'ining ancha qismi pul shaklida yig'iladigan va ularning hammasi umumdavlat xazinasiga topshiriladigan bo'ldi. Shuningdek, bojxona xizmatining tashkil etilganligi va oltin tangalar zarb etilib muomalaga chiqarilganligi davlat xazinasiga tushumning ko'payishiga xizmat qildi. Muhammad Rahimxon I mamlakatda ichkilikni taqiqladi.



1809-yilda zarb etilgan oltin tanga (Xiva)

**Xiva xonligi
Olloqulixon davrida**

Muhammad Rahimxon I 1825-yilda vafot etgach, taxtni katta o'g'li Olloqulixon egalladi (1825–1842). U mamlakat iqtisodini yanada

ko'tarish maqsadida yangi kanallar qazdirib, sug'oriladigan yer maydonlarini kengaytirdi. Bundan tashqari, mamlakat obodonchiligi yo'lida ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Chunonchi, Arabxon va Muhammad Amin inoq madrasalari qaytadan qurildi. Shuningdek, o'zining nomi bilan ataluvchi madrasa, karvonsaroy, tim, 111 xona va bo'lmali Toshhovli (Olloqulixon) saroyi va boshqa ko'plab memoriy binolar bunyod ettirdi. Uning davrida koshinkorlik san'ati yuksak cho'qqiga chiqdi. Bu san'at, ayniqsa, Pahlavon Mahmud maqbarasi va Ko'hna arkni koshin bilan bezatishda o'zining yorqin ifodasini topdi. Shuningdek, Xiva shahri atrofi mudofaa devori bilan o'raldi. Shaharning ichki qismidan tashqarisida yashayotgan aholining xavfsizligini ta'minlash maqsadida 6250 metrli tashqi qal'a qurildi.

Olloqulixon markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga harakat qilgan turkman va qoraqalpoqlarning qo'zg'olonlarini shafqatsizlik bilan bostirdi. U 1842-yilda vafot etdi va hayotligida tayyorlab qo'ygan Pahlavon Mahmud maqbarasiga dafn etildi.

- ?
1. Qo'ng'irotlar sulolasi hokimiyat tepasiga kelishi arafasida Xiva xonligidagi siyosiy ahvol haqida nimalarni bilib oldingiz?
 2. Qo'ng'irotlar sulolasi qay tariqa hokimiyatni egalladi?
 3. Muhammad Rahimxon I ning mamlakatda nisbatan siyosiy barqarorlikni ta'minlay olganligining sabablarini qayd eting.
 4. Muhammad Rahimxon I o'tkazgan iqtisodiy islohotlar qanday natija berdi?
 5. Muhammad Rahimxon I davlat boshqaruvi sohasida qanday islohot o'tkazdi?
 6. Olloqulixon amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

25-§. Xiva xonligida davlat boshqaruvi

Xonlik hududi va aholisi

Xiva xonligi tashkil topgan davrda uning hududi katta bo'lmagan. Xonlik g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda Orol dengizi havzasi, janubda esa Atrek daryosi (hozirgi Eron va Turkmanistondagi daryo, uzunligi 669 km, Kaspiy dengiziga quyiladi) hamda Saraxs (Turkmanistondagi shahar) atrofigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olar edi.

XIX asrning butun birinchi yarmi davomida xonlik hududi harbiy harakatlar natijasida tobora kengaytirilib borildi va shu asrning 40-yillarida uning hududi 19 ming km² ni tashkil etdi. Xonlik qozoq juzlari, Eron va Buxoro amirligi bilan chegaradosh bo'ldi. Ayni paytda, XVIII asrdan boshlab Rossiya chegarasining janubga siljib borishi natijasida ikki davlat chegaralari yaqinlashdi. Xonlik aholisining umumiy soni 800 ming kishiga yaqin edi. Uning 65 foizini o'zbeklar, 26 foizini turkmanlar, qolgan qismini esa qoraqalpoqlar, qozoqlar, qisman arablar tashkil etardi. Bu raqamlar qat'iy bo'lmagan. Chunki xonlik hududining kengayib borishi bilan aholi soni ham ortib bordi. Poytaxt Xiva shahrida 20 mingdan ortiq aholi yashagan.

Xonlikning butun hududi urug'-qabila tamoyili asosida taqsimlangan. Xususan, Abulg'oziy Bahodirxon ko'chib kelgan 32 ta o'zbek qabilalarini 4 ta guruhga bo'ldi. Bular: Uyg'ur-nayman, qo'ng'irot-qiyot, nukuz-mang'it, qang'li-qipchoq.

Bo'lish chog'ida qabilalarning urf-odatlari, turmush tarzi va qarindoshlik aloqalari hamda joylashgan yeri hisobga olindi. Har bir qabilani inoq boshqargan. Har bir qabilaviy guruhdan 4 nafar kishi eng yuqori davlat lavozimlariga tayinlangan. Xon inoqlar orqali qabilalar hayotiga tegishli masalalarni hal qilardi. Inoqlar xonning eng yaqin maslahatchisi sifatida saroyda istiqomat qilganlar.

Xonlik hududi 23 ta ma'muriy birlikka bo'lingan. Shundan 20 tasi bekklik (viloyat), 2 tasi noiblik edi. Yigirma uchinchi esa poytaxt Xiva shahri va uning atrofidagi hududlar edi. Viloyatlar esa shahar va masjid qavmlariga bo'lingan. Boshqaruvning eng quyi ma'muriy birligi masjid qavmlari (qishloq) deb atalgan. Viloyatlarni beklar, noibliklarni noiblar, shaharlarni hokimlar va masjid qavmlarini esa oqsoqollar boshqarishgan. Oqsoqollar masjid qavmlari tomonidan saylangan va xon tomonidan tasdiqlangan. Qolgan ma'muriy birliklar boshliqlari – beklar, noiblar va hokimlar xon tomonidan tayinlangan. Xiva va uning atrofidagi hududlarni xonning o'zi boshqargan.

Davlat tuzumi va boshqaruv tizimi Xiva xonligi ham Buxoro amirligi singari mutlaq monarxiya edi. Oliy hukmdor – xon davlat boshlig'i sanalardi. Xiva xonligi mutlaq monarxiya bo'lsa-da, Buxoro amirligidan farqli o'laroq xonlikda, avvalgi mavzularda ta'kidlanganidek, Oliy va Kichik Kengashlar faoliyat

ko'rsatgan. Oliy Kengash, ayni paytda, taxt vorisi masalasini ham hal etgan.

Taxt otadan katta o'g'ilga meros bo'lib o'tgan. Qo'ng'irotlar davrida ham bo'lajak xonni oq namat (kigiz)ga o'tqazib, uning to'rt uchidan xonlikning eng yuqori martabali a'yonlari taxtgacha ko'tarib olib borish an'anasi saqlanib qolgan. Bosh vazir mansabiga tayinlangan amaldor *mehtar* deb atalgan. Bu lavozimga o'troq aholi vakillari orasidan tayinlangan. Shuningdek, u vaziri a'zam, dasturi mukarram, nizom al-mulk sifatleri bilan ulug'langan.

Keyingi martabali mansabdor *qo'shbegi* esa xonlikda to'planadigan soliqlarning davlat xazinasiga tushishini ta'minlagan hamda moliya ishlari uchun, shuningdek, qo'shinning holati uchun javobgar bo'lgan. Barcha harbiy harakatlarda ishtirok etgan. U amir, „sohibi devoni a'lo“ sifatleri bilan ulug'langan. Qo'shbegi ko'chmanchi qabilalar vakillari orasidan tayinlangan. Markaziy hokimiyatning kuchayishi natijasida avvallari xonlikda juda katta nufuzga ega bo'lgan inoqlarning mavqeyi XIX asrning birinchi yarmidan boshlab pasayib bordi. Muhammad Rahimxon I saroydagi amaldorlar sonini 360 nafardan 100 nafarga tushirdi. *Biy, otaliq va inoq* mansablarini bekor qildi. Xonlikda 3 ta devon (vazirlik) faoliyat ko'rsatdi. Bular xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy va harbiy ishlar bilan shug'ullanuvchi devonlar edi. Ularning faoliyatiga *devonbegi* rahbarlik qilardi. Xonlik tarkibidagi qozoq va qoraqalpoqlar esa o'zlarining biylari, turkmanlar esa ularning vakili tomonidan boshqarilardi. Ularning lavozimi avloddan avlodga meros bo'lib o'tsa-da, nomzodini xon tasdiqlashi shart edi. Oliy Kengash a'zosi *yasovulboshi* xonlik xavfsizlik xizmatini boshqargan. Xonning qo'riqlanishi va maxfiy davlat hujjatlarining saqlanishi uchun javobgar bo'lgan. Urush harakatlari vaqtida qo'shinga qo'mondonlik qilgan hamda turkman qabilalaridan tuzilgan harbiy qismni ham boshqargan. Xonlikda *mirob, parvonachi, qutvol, shug'ovul* (chet el davlatlari elchilarini qabul qiluvchi va ularning ta'minoti uchun mas'ul amaldor), *mahram* (xonning maxfiy maslahatchisi, alohida topshiriqlarini bajaruvchi, zarurat bo'lganida elchi qilib jo'natiladigan mansabdor shaxs) kabi lavozimlar ham mavjud edi.

Sud ishlari Xonlikda sud ishlari islom dini huquqshunoslari qo'lida edi. Har bir beklikda 1 nafardan 4 nafargacha qozi bo'lgan. Qozilikka islom huquqining eng bilimdon vakillari

orasidan imtihon o'tkazish yo'li bilan saralab olingan. G'oliblar xon farmoni bilan taqdirlanganlar. G'olibning qozi etib tayinlangani to'g'risida ularga xon yorlig'i („Yorlig'i xumoyun-u ali“) berilgan.

Muftiy qozi hukmining shariatga qanchalik mos kelishi haqida fatvo chiqargan. Sud qarori muftiy unga o'zining muhrini qo'yganidan so'nggina rasmiy maqomga ega bo'lgan. Xiva shahrida 7 nafar muftiy faoliyat yuritgan. Ularga islom huquqining eng obro'li namoyandasi – *a'lam* rahbarlik qilgan. U muftiyalar bergan xulosani ko'rib chiqib uni yo tasdiqlagan, yo qaytargan. Sud ishi bo'yicha shikoyatlar Xiva shahridagi 2 nafar Oliy qozilar tomonidan o'rganib chiqilgan. Ularning biri *qozi kalon*, ikkinchisi esa *qozi o'rda* edi. Ayni paytda, *qozi xoss* mansabi ham bo'lib, u xon xonadoni a'zolari o'rtasidagi masalalarni ko'rib chiqqan.

Qozi askar esa qo'shinda sodir bo'lgan islom qonunlarining buzilishi bilan bog'liq ishlar ustidan hukm chiqargan. *Naqiblar* – payg'ambar avlodlari jamoasi vakillari bo'lib, jamiyatning diniy hayoti sohasi uchun mas'ul edilar. Ular xonning eng ishonchli kishilaridan sanalgan va harbiy harakatlar chog'ida doimo unga hamrohlik qilgan. Shuningdek, ular ta'lim sohasi ishlari uchun ham javobgar edi. *Rais* (qozi rais) esa jamiyatda shariat qonun-qoidalariga qanchalik amal qilayotganligi ahvolini, shuningdek, ota-onalarning bolalarini maktabga yuborayotganligini kuzatib borgan.

Harbiy ish Xiva xonligida Muhammad Rahimxon I davrida muntazam qo'shin tuzildi. Mazkur qo'shin *xon navkarlari* deb ataldi. Uning umumiy soni 2 ming askardan iborat edi. Qo'shinning Bosh qo'mondoni *yasovulboshi* deb atalgan.

Tinchlik paytida xon navkarlari xon va uning oilasini ham qo'riqlagan. Qo'shin va harbiy mansabdorlar Xiva shahriga yaqin atrofdan ma'lum miqdorda yer maydoni hamda maosh bilan ta'minlangan. Xonlikda, shuningdek, *nomuntazam qo'shin* – xalq lashkari ham mavjud edi. XIX asr o'rtalarida ularning soni 9–10 ming kishini tashkil etgan. Biroq Buxoro qo'shinidan farqli ravishda Xiva xonligi doimiy qo'shini maxsus harbiy kiyim-boshga ega bo'lmagan. Harbiylar, asosan, har xil chopon kiyishgan. Xonlikda davlat chegarasini qo'riqlash uchun ham qo'shin ajratilgan. Chegara qo'shiniga *qorovulbegi* qo'mondonlik qilgan.



1. Xiva xonligining hududi va aholisining tarkibi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Abulg'oziy Bahodirxon nega Dashti Qipchoqdan ko'chib kelgan qabilalarni guruhlariga bo'lib joylashtirdi?
3. „Inoqlar boshqaruvi“ deyilganda nima tushuniladi va u qachondan boshlandi?
4. Xonlikdagi eng yuqori mansab – mehtar va qo'shbegi lavozimlarini bir-biriga taqqoslang.
5. Xiva xonligida sudlovni amalga oshirish qanday tartibda olib borilgan?



Yasovul va mahram lavozimlarini bir-biri bilan taqqoslang. O'xshash va farq qiluvchi jihatlarini daftaringizga yozing.

26-§. Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Shaharlar hayoti

Yer egaligi munosabatlari

Yer xonlikning asosiy boyligi edi. Barcha yer davlat mulki sanalgan. Egalik shakliga ko'ra Xiva xonligi yerlari ham *davlat* (podshoh), *mulk* (xususiy yerlar) va *vaqf* yerlariga bo'lingan. Davlat yerlarining bir qismi xon va uning qarindosh-urug'lariga hamda oliy martabali ruhoniylarga tegishli bo'lgan.

Xonga tegishli yerlar *mulki xolis*, *mulki xossa*, *amloki xossa*, *mulki maxsusa* nomlari bilan atalgan.

Xonga tegishli yerlardan davlat xazinasiga soliq to'lanmagan. Yirik martabali amaldorlarga davlat oldidagi xizmatlari uchun *tarxon yerlari* berilgan. Tarxonni meros qoldirish, boshqaga o'tkazish man etilgan. Undan faqat vaqtincha foydalanish mumkin edi. Davlat yerlarining bir qismi xususiy mulk shaklida sotilgan. Shu tariqa, yer egaligining mulk (xususiy yerlar) shakli vujudga kelgan. Yerning xususiy mulk qilib sotilganligi haqida davlat nomidan bitim imzolangan. Shundan so'ng yerning sotib olinganligi haqida mulk egasiga vasiqa berilgan. Davlat yerlarining yana bir qismi mayda dehqon xo'jaliklari qo'lida bo'lgan. Davlat xazinasiga daromad, asosan, ana shu yerlardan tushgan. Chunonchi, 10 tanobdan ortiq yer berilgan xo'jaliklar 3 tildan, 5 tanobdan 10 tanobgacha yer berilganlar 2 tildan, 5 tanobgacha

yer berilganlar yiliga 1 tilladan soliq to'laganlar. Davlat yerini ijaraga oluvchilar *bevatan*, xususiy yerlarni ijaraga oluvchilar *koranda*, vaqf yerlarini ijaraga oluvchilar esa *vaqfchi* deb atalgan. Ijaraga olingan 15 tanob yerga ishlov beruvchi yersiz dehqonlar 34, 10 tanob yerga 23 va 5 tanob yerga esa 12 kumush tanga miqdorida soliq to'lagan.

Xonlikda keng tarqalgani vaqf yerlari edi. Uning hajmi sug'oriladigan va aholi yashaydigan yerlarning 40 foizga yaqinini tashkil etgan. Vaqf yerlari ham yuqorida aytilganidek, ijaraga berilgan.

Xiva xonligida shartli (vaqtincha) yer egaligining boshqa ikki o'zbek davlatlarida mavjud bo'lmagan *otliq* deb atalgan shakli ham mavjud edi. Xiva xonlari harbiy yurish chog'larida, asosan, turkman qabilalarining otliqlariga tayanganlar. Harbiy harakatning qanday natija bilan tugashi ko'p jihatdan ularga bog'liq edi. Shuning uchun ham har bir otliq hisobiga foydalanish uchun 30–50 tanob yer mulki berilgan. „Otliq“ olgan yer egasi xon talab qilgan vaqtda bir otliq askarni qurollantirib xon huzuriga yuborgan. Yerlar har uch yilda bir marta qayta xatlovdan o'tkazilgan.

Nihoyatda noqulay tabiiy sharoitda ekinzorlarga suv chiqarish va dehqonchilik qilish xonlikda ancha mashaqqatli mehnat talab etardi. Mehnatkash xalq bu mashaqqatlarni mardonavor yengib o'tgan.

Mehnatkash xalq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini juda og'ir tabiiy sharoitda yetishtirganlari uchun adolat yuzasidan ijaradorlarning ulushi yetishtirilgan hosilning 75% ini tashkil etgan.

Soliq va majburiyatlar Barcha davlatlarda bo'lganidek, Xiva xonligida ham aholi to'laydigan soliqlar va ular o'taydigan majburiyatlar belgilab qo'yilgan. Xonlikdagi asosiy soliq yer solig'i bo'lib, u *salg'ut* deb atalgan. Hunarmandlar, tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi savdogarlar, chorvadorlar *zakot* to'lashgan. Uning miqdori mulk qiymatining 2,5% ini tashkil etgan. Ba'zi hollarda barcha soliq yilning boshidayoq yoki bir necha yillik soliq avvaldan undirilishi mumkin edi. Soliqqa tortishning bu shakli *barot* deb atalgan. Bundan tashqari, aholi *begar* deb ataluvchi rasman 12 kunlik davlat majburiyatiga jalb etilgan. Begar chog'ida qishloqning har bir xonadonidan bir kishidan odam jalb etilgan. Ular har yili kanal qazishda, sug'orish inshootlarini bunyod etishda yoki ta'mirlashda, yo'llarni tuzatishda va turli binolar qurilishida mehnat qilganlar.

Poytaxt shaharlar Xorazm davlati (keyinchalik Xiva xonligi) tarixida Ko'hna Urganch, Vazir, Yangi Urganch va Xiva poytaxt maqomiga ega bo'lgan shaharlardir. Ko'hna Urganch (asl nomi Gurganj, miloddan avvalgi I asrdagi manbalarda uchraydi) X asrning ikkinchi yarmida Xorazmda markazi Gurganj shahri bo'lgan amirlik tashkil etildi. Amir Ma'mun ibn Muhammad 995-yilda Kot shahridagi xorazmshohlar hokimiyatini ag'dardi va o'zini Xorazm hukmdori – Xorazmshoh deb e'lon qildi.

Shu tariqa, Gurganj Xorazm davlatining poytaxtiga aylandi. Shahar tez sur'atlar bilan rivojlandi. Ilm-fan yuksaklikka ko'tarildi. Xorazmshoh ma'muniylar tashkil etgan ilm-fan markazi (Ma'mun akademiyasi)da zamonasining Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi o'nlab allomalari shu ilm maskanida faoliyat yuritdilar. Ko'hna Urganch Buyuk Xorazmshohlar davlatining ham poytaxti bo'lgan. Biroq shahar Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shini tomonidan vayron qilindi.

22-mavzuda ta'kidlanganidek, Amudaryo o'z o'zanini o'zgartirib Kaspiy dengiziga emas, Orol dengiziga quyila boshlashi tufayli Gurganj shahri suvsiz qoldi. Natijada, odamlar har tomonga ko'chib keta boshladi. Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon 1646-yilda boshqa shahar – Yangi Urganch shahrini qurdirdi. Sarson-sargardon bo'lib yurgan aholini shu shaharga ko'chirtirib keldi. Avvalgi Gurganch (Urganch) shahri endi Ko'hna Urganch deb ataladigan bo'ldi. Abulg'oziy Bahodirxonning o'g'li Anushaxon hukmronligi davrida Yangi Urganch yaqinida Shohobod nomi berilgan katta kanal qazildi. Kanal shahar obodonchiligida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Xiva shahri Xiva Xorazmning eng mashhur va eng qadimiy shahridir. U mil.avv. V asrda bunyod etilgan. Uning butun tarixi Xorazm tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib keldi. Xivaning mashhurligi bunyod etilgan davrlardanoq u orqali Sharq bilan G'arbni bog'lovchi savdo yo'li o'tganligi bilan izohlanadi. Xiva XVII asrning birinchi choragidan 1920-yilgacha xonlikning poytaxti bo'lib keldi. 1997-yilda (xalqaro YUNESKO tashkilotining qarori bilan) Xiva shahrining 2500 yilligi katta shodiyona va faxr bilan nishonlandi. Shahar dunyoda „Ming gumbaz shahri“ nomi bilan ham mashhurdir.

XIX asrning birinchi yarmida Xiva shahrida ikkita xon saroyi, o'n yettita masjid va yigirma ikkita madrasa mavjud bo'lgan. XIX asrda Xiva shahri bir-biridan devor bilan ajralib turuvchi ikki qismga – Ichan qal'a (Ichki shahar) va Dishan qal'a (Tashqi shahar)ga bo'lindi.

Ichan qal'a Ichan qal'a bobolarimizdan qolgan O'rta Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlikdir. Ichan qal'a Xiva shahrining ichki qal'a (Shahriston) qismidir. Ichan qal'a Dishan qal'adan devor bilan ajralib turadi. Unga Bog'cha, Polvon, Tosh va Ota deb nomlangan to'rtta darvoza orqali kirilgan. Xorazm o'lkasi me'morchiligining ajoyib obidalari – madrasa, masjid, xon saroyi, ma'muriy binolar, bosh maydon va minoralar Ichan qal'ada joylashgan. Muhammad Rahimxon, Olloqulixon va Muhammad Aminxon hukmronliklari davrida Ichan qal'ada keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Muhtasham saroy, madrasa va maqbaralar barpo etildi. Ko'hna arkdagi saroy qurilishi tugallandi. Muhammad Aminxon Ichan qal'aning g'arbiy qismidagi Ko'hna ark yoniga Kalta minor nomi bilan mashhur bo'lgan minorani qurdirdi.



Xiva. Ichan qal'a

Ichan qal'ani bunyod etishda Xiva me'morlari O'rta Osiyoda qadimdan davom etib kelayotgan an'ana – inshootlarni ro'parama-ro'para qurish usulidan foydalanishgan. Bu usul „qo'sh“ deb ataladi. Bundan tashqari, binolarni alohida ansambl holida qurish an'alariga ham amal qilingan. Masalan, Polvon darvozasi oldidagi bir necha masjid, madrasa, hammom, toqi, karvonsaroy va xon saroyi ana shunday o'ziga xos ansamblni tashkil etadi. Noyob me'morchilik obidasi bo'lgan Ichan qal'a 1961-yilda me'moriy yodgorlik sifatida alohida muhofazaga olindi va muzey-qo'riqxonaga aylantirildi. Uning maydoni 26 ga.ni tashkil etadi. Unda 54 ta tarixiy-me'moriy obida joylashgan. 1969-yildan muzey-qo'riqxonaga „Ichan qal'a muzey-qo'riqxonasi“ deb ataldi. 1990-yilda Ichan qal'a Butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi.

Dishan qal'a Dishan qal'a – Tashqi qal'a Xiva shahrining rabod qismi hisoblanadi. Unda savdo va hunarmandchilik do'konlari, mahallalar joylashgan. 1842-yilda Xiva xoni Olloqulixon Xiva shahrini tashqi dushmanlar hujumidan saqlash maqsadida shaharni uzunligi 6250 metr, balandligi 7–8 metr, qalinligi esa 5–6 metr bo'lgan devor bilan o'ratgan. Ichan qal'a 4 darvozali bo'lsa, Dishan qal'a 10 darvozali bo'lgan.

Ichki va tashqi savdo Xonlikning ichki va tashqi savdosi tobora rivojlanib bordi. Ichki savdo-sotiqda Xivaning usti yopiq bozori alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Xonlikdan, asosan, qorako'l teri, gilam, hunarmandchilik mahsulotlari Eron, Hindiston, Xitoy va Usmonli kabi davlatlarga eksport qilingan. Xiva xonligining Buxoro, Eron va Afg'oniston bilan savdo qiluvchi savdogarlari „buxorochi“ deb atalgan. Xivaliklar Eronga ipak, qorako'l teri, barra qo'zi terisi, kunjut, bug'doy va turkman otlarini olib borishgan. Xiva savdogarlari Erondan murch, imbir kabi hind mollari bilan birga ipak mato, feruza, salla uchun ishlatiladigan kirmonshoh shollari olib kelishgan. Rossiya bilan bo'lgan savdo-sotiq Xiva xonligining iqtisodiy hayotida katta ahamiyatga ega edi. Xiva Rossiyaga paxta, jun, ipak chiqarardi. Rossiyadan esa ip, gazlama, movut, qand-shakar, metall buyumlar, temir, mis, cho'yan keltirardi. Savdo-sotiq tekis bormasa-da, lekin o'sib borardi. 1844-yilda Xiva Rossiyaga 137 ming rublli, 1867-yilda 1,5 million rublli tovar eks-

port qildi. Rossiyadan tegishli ravishda 270 va 486 ming rublli tovar keltirildi. Bu Xivaning tovar chiqarishi 23 yil ichida 10 baravar, tovar keltirishi esa 1,5 baravar ko'payganini bildiradi. Rossiya, ayni paytda, Xivani jahon bozori bilan bog'lay oladigan tayanchiga ham aylandi. Shuning uchun ham savdogarlar bu aloqani yanada mustahkamlashga intildilar.



1. Xiva xonligida yer egaligi shaklida Buxoro amirligida uchramaydigan jihatni toping.
2. Yerdan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqlar miqdori nimaga bog'liq edi?
3. Davlat qanday soliqlar joriy etgan edi?
4. Ko'hna Urganch va Vazir shahri haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Xiva nimasi bilan dunyoni lol qoldirib kelmoqda?
6. Xiva–Rossiya savdo aloqalarining rivojlanganligini tasdiqlovchi misollar keltiring.

27-§. Xiva xonligining tashqi siyosati

Xonlikning Osiyo davlatlari bilan aloqalari

XIX asr birinchi yarmida Xiva xonligining Buxoro, Qo'qon, Afg'oniston, Eron, Hindiston va Usmonli kabi davlatlar bilan savdo-iqtisodiy va elchilik aloqalari rivojlandi. Bunga, bir tomondan, Xiva xonligi hududining O'rta Osiyo savdogarlari va Haj safariga boruvchilarning Kaspiy dengizi orqali muqaddas Makka va boshqa shaharlarga o'tish manzilgohiga aylanganligi, ikkinchidan esa chet davlatlar bilan savdo-sotiqni rivojlantirish davlat xazinasiga daromad keltirayotganligi sabab bo'ldi.

Avvalgi mavzulardan Sizga ma'lumki, Xiva–Buxoro munosabatlari har doim ham silliq kechmadi. Bu holat keyinchalik ham davom etdi. Chunonchi, ularning manfaati Marv viloyatida ham to'qnash keldi. Chunki Marv O'rta Osiyo davlatlarini Eron bilan bog'lovchi muhim savdo yo'li ustida joylashgan edi. Shuning uchun ham XIX asrning birinchi yarmida bu ikki davlat o'rtasida bir necha bor o'zaro urushlar yuz berdi. Chunonchi, Muhammad Rahimxon I 1822-yilda Marvni Buxorodan qaytarib oldi. Shundan keyin ham Marv uchun kurash to'xtamadi. Ikki davlat o'rtasida bir necha bor yuz bergan

urushlardan so'ng, nihoyat, 1845-yilda Xiva xonligi Marvni uzil-kesil o'ziga qo'shib oldi. Biroq munosabatlar qanchalik keskin bo'lmasin, o'zaro savdo aloqalari to'xtab qolmadi.

1812-yilda Xivaga Eron va qozoqlarning O'rta juz xonligidan elchilar kelishdi. Ular bilan davlat chegaralari xavfsizligi va savdosotiq masalalarida kelishuvga erishildi. XIX asr boshlarida Xiva va Afg'oniston o'rtasida elchilik munosabatlari o'rnatildi. Muhammad Rahimxon I hatto Afg'onistonda hokimiyat uchun kurashayotgan shoh Mahmudning ikkinchi marta hokimiyat tepasiga kelishida yordam ham berdi. Buning evaziga Afg'oniston Xiva xonligi savdogarlariga Kobul bozorida erkin savdo qilish huquqini berdi.

Xiva xonligi Qo'qon xonligi bilan ham o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga harakat qildi. Chunonchi, 1843–1844-yillarda Xivaga Qo'qon xonligi elchilari keldi. Muzokaralar davomida ikki davlat o'rtasida hamdo'stlik va o'zaro savdo aloqalarini yanada rivojlantirishga kelishildi. Tabiiyki, u yoki bu davlatga chet ellardan savdogarlarning muntazam kelishi ularga yaratiladigan qulay sharoitga ham bog'liqdir. Shuning uchun ham Xiva xonlari chet ellik savdogarlarga shunday sharoit yaratish masalasiga katta e'tibor berganlar. Chunonchi, Olloqulixon ajoyib me'moriy obida, xonlik ustalari yuksak mahoratining ko'zgularidan biri bo'lgan Karvonsaroy majmuasini bunyod ettirdi. Bu majmua 14 gumbazli tim (yopiq bozor), karvonsaroy va omborxonadan iborat qilib qurilgan. Bozorda Hindiston, Xitoy, Eron, Rossiya, Buxoro va Qo'qon kabi davlatlardan keltirilgan mollar sotilardi. Karvonsaroy ikki qavatli bo'lib, 105 hujrali edi. Xiva xonligining anori, qovuni, uzumi, nashvatisi, anjiri va o'rigining shirinligi chet ellarda ham mashhur bo'lgan.

Xiva – Rossiya munosabatlarining o'ziga xos jihatlari

Xiva–Rossiya munosabatlarida muhim jihat shunda ediki, o'zaro savdodan har ikkala davlat ham birdek manfaatdor edi. Xiva savdogarlari uchun Rossiyaga boradigan savdo yo'llari xavfsiz edi. Shuningdek, Xiva xonligida Rossiya sanoatining tayyor iste'mol mahsulotlariga ehtiyoj baland edi. Ayni paytda, Rossiya Xiva xonligiga o'z mahsulotlarini sotadigan bozor deb qarar edi. Rossiya mahsulotlari Yevropaning ilg'or davlatlari tovarlari bilan raqobat qila olmayotgan bir davrda bu juda muhim edi. Ikkinchidan,

Xiva xonligi Rossiya sanoati uchun zarur xomashyo mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib beruvchi o'lka ham hisoblanardi. Xivadan Rossiyaga paxta, ipak, bo'z, gilam, hunarmandchilik mahsulotlari, quritilgan meva va boshqa mahsulotlar olib borilgan. Xiva savdogarlari Nijniy Novgorod shahrida o'tkaziladigan yarmarkalarda qatnashganlar. Rossiyadan esa Xivaga metall, to'qimachilik mahsulotlari, turli rangli bo'yoqlar, mo'yna terilari, qurol-aslaha keltirilardi.

Biroq har ikki davlat o'rtasida yaxshi qo'shnichilik munosabatlarining qaror topishiga har ikki tarafning Kichik juz qozoqlarini va qoraqalpoqlarni o'z fuqarolari deb hisoblashlari, shuningdek, har ikki tomonning o'zaro savdodan olinadigan boj hajmi masalasida uzoq vaqt bir to'xtamga kela olmaganliklari ham to'sqinlik qilmoqda edi.

Xiva – Rossiya munosabatlarining keskinlashuvi

Maqsadi O'rta Osiyoni egallashdan iborat bo'lgan Rossiya o'zbek davlatlariga, xususan, Xiva xonligiga turli bahonalarni ro'kach qilib, bosim o'tkazishni kuchaytirib bordi.

Rossiya 1822-yilda O'rta juz va 1824-yilda esa Kichik juz xonliklarini bo'ysundirdi. Endi Rossiya chegarasi bevosita Xiva xonligi chegarasiga yaqinlashib qoldi. Bunday sharoitda Xiva xonligi qozoq cho'llarining ikki davlat o'rtasida bir-birini ajratib turuvchi hudud bo'lib qolishi uchun harakat qildi. Biroq Rossiya buni istamadi. Oqibatda, ikki davlat o'rtasidagi munosabat keskinlasha bordi.

Bu orada Buyuk Britaniya razvedkasi o'zbek davlatlariga suqilib kira boshladi. Buyuk Britaniya tovarlarining xonliklar bozorini to'ldirish xavfi ham vujudga keldi. Shunday sharoitda Rossiya hukumati Xiva xonligiga nisbatan o'z talablari ko'lamini tobora kengaytirib bordi. Chunonchi, u Xivadan Amudaryoda Rossiya savdo kemalarining suzishiga ruxsat berilishini ham talab etdi. Bora-bora Rossiya Xiva bilan munosabatni harbiy kuch orqali tartibga solish yo'lini tanladi. Shu maqsadda 1839-yilda V.Perovskiy harbiy ekspeditsiyasi tashkil etildi. Biroq Ustyurtning qattiq sovug'i, oziq-ovqat va yem-xashakning yetishmasligi oqibatida ekspeditsiya talafot ko'rdi. Oqibatda, V.Perovskiy orqaga qaytishga majbur bo'ldi. Lekin ekspeditsiya izsiz ketmadi. V.Perovskiy ekspeditsiyasi Xiva xonini Rossiya bilan kelishuv yo'lini axtarishga majbur etdi.

„Majburiyatlar akti“ Rossiya hukumati endi Xiva xonligiga o‘z hukmini majburan o‘tkazishga kirishdi. Bu maqsadga erishish uchun G. Danilevskiy boshchiligidagi elchilik missiyasini yubordi.

Muzokaralar yakunida Rossiya bosimi ostida 1842-yilning 27-dekabrda Xiva–Rossiya o‘rtasida „Majburiyatlar akti“ deb ataluvchi shartnoma imzolandi. Shartnomada Xiva xonining Rossiya bilan tinchlik, mustahkam do‘stlik munosabatida bo‘lishi e‘lon qilindi. Xiva xoniga, bundan tashqari, Rossiyaga nisbatan dushmanlik harakatlari sodir etmaslik, savdo karvonlarining talanishiga yo‘l qo‘ymaslik, Rossiya fuqarolarining shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta‘minlash kabi majburiyatlar yuklandi.

Bular aslida Rossiyaning o‘z xohish-istaklarini majburan bajar-tirishidan boshqa narsa emas edi. Shuningdek, ikki davlat o‘rtasidagi savdo aloqalariga ham katta e‘tibor berildi. Mazkur masalada ham Rossiya o‘z xohish-istagini majburan qabul qildirdi. Chunonchi, boj to‘lovlari Rossiya tovarlari qiymatining 5 foiz miqdoridan oshmasligi belgilab qo‘yildi. Biroq Rossiya shartnomaning ana shu bandini ham amalda bajarmadi. Oqibatda, o‘zaro munosabatlar tobora keskinlashib bordi.

1847-yilda Rossiya xonliklarga olib boradigan yo‘lda harbiy istehkomlar qurdi. Bu istehkomlar Rossiya siyosatida O‘rta Osiyoni harbiy yo‘l bilan ishg‘ol etish tomon burilish ro‘y berganligining tasdig‘i edi. Bu hol o‘zbek davlatlarini tashvishga solib qo‘ydi. O‘zbek davlatlarining Rossiyaga qarshi turishda Buyuk Britaniyaga suyanishi mumkinligi ehtimoli ham o‘zini oqlamadi. Bunga Rossiya–Buyuk Britaniya munosabatlarida o‘zgarish yuz berganligi sabab bo‘ldi. Afg‘onistonga qarshi urushda mag‘lubiyatga uchragan Buyuk Britaniya Rossiya bilan kelishishga qaror qildi. Bu kelishuvga binoan Rossiya O‘rta Osiyo bilan cheklanadigan bo‘ldi. Ayni paytda, Hindistonga chiqish niyatidan voz kechdi. Buyuk Britaniya esa Rossiyaning o‘zbek davlatlariga nisbatan tutadigan siyosatiga qarshilik qilmaydigan bo‘ldi. Afg‘oniston esa Buyuk Britaniya va Rossiyaning Osiyodagi mustamlakalari o‘rtasida ularni ajratib turuvchi hudud sifa-tida e‘tirof etildi.

O'zbek davlatlari endilikda yakkalanib qoldi. Ularni faqat o'zaro ittifoqliklarigina saqlab qolishi mumkin edi. Afsuski, o'zaro ziddiyatning kuchliligi hamda Rossiyaning harbiy qudrati oldidagi ojizlikdan paydo bo'lgan qo'rquv tufayli ular birlasha olmad.



• 1842-yil – Rossiya–Xiva o'rtasida „Majburiyatlar akti“ imzolandi.



1. Xiva xonligining Osiyo davlatlari bilan munosabatiga doir faktlar ro'yxatini tuzing.
2. Xiva xonligi chet ellik savdogarlar uchun qulay sharoit yaratish maqsadida qanday tadbirlarni amalga oshirdi?
3. Xiva–Rossiya munosabatlarida keskinlik boshlanishiga qanday omillar sabab bo'ldi?
4. „Majburiyatlar akti“ shartnomasining mazmuni haqida so'zlab bering.
5. Nega o'zbek davlatlarining Rossiyaga qarshi turishda Buyuk Britaniyaga tayanishlari mumkinligi ehtimoli ro'yobga chiqmay qoldi?
6. Nega o'zbek davlatlarining o'zlari Rossiya xavfiga qarshi o'zaro ittifoq tuza olmadilar?

28-§. Xiva xonligida madaniy hayot

Madaniy hayot manzarasi

Xiva xonligida boshqa ikki o'zbek davlati – Buxoro amirligi va Qo'qon xonligiga qaraganda iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirishga intilish kuchliroq edi. Buning sababi Xiva xonlarining maqsadi bilan izohlanadi. Xonlarning maqsadi esa Xorazmning avvalgi salobatini tiklash va O'rta Osiyoning markazi bo'lish edi. Ko'hna Xorazm – bu o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilgan diyor. Bu diyorda ma'muniy xorazmshohlar davrida birinchi ilm-fan markazi – Xorazm Ma'mun akademiyasi tashkil etilgan. Shuningdek, Xorazm dunyoning eng yirik va qudratli saltanatlaridan biri – Anushtegin Xorazmshohlar saltanati vujudga kelgan yurt.

To'g'ri, Xiva xonligida ilm-fan darajasi ma'muniy xorazmshohlar davri ilm-fani darajasi bilan tenglasha olmaydi. Biroq davlatning iqtisodiy imkoniyatlari yetarli bo'lmasa-da, xonlikda shahar qurilishiga, kanallar qazilishiga, eng boy kutubxona yaratilishiga juda katta mab-

lag' sarflanganligi o'sha maqsad bilan izohlanadi. Maqsad qanday bo'lishidan qat'i nazar u ezgulikka xizmat qildi. Bobolarimizdan biz avlodlarga dunyoni lol qoldiradigan me'morchilik namunalari meros qoldi.

Adabiyot Bu davr xonlik adabiyotida *Amir Avazbiy o'g'li Shermuhammad* (taxallusi Munis Xorazmiy) va uning jiyani *Erniyozbek o'g'li Muhammad Rizo* (taxallusi Ogahiy) lar alohida ajralib turadilar. *Munis Xorazmiy* yoshlik chog'laridan adabiyot va tarix faniga mehr qo'ydi. 1800-yilda otasi vafot etgach, saroy kotibi etib tayinlandi. 1804-yilda birinchi she'rlarini o'z ichiga olgan devon – „Devoni Munis“ni yaratdi. Munisning „Oshiqlar do'sti“ devoni 20 mingdan ortiq misradan iborat. U xattotlar tomonidan ko'chirilib, ajoyib kitob holiga keltirilgan.

Bu davr adabiyotining yana bir mashhur namoyandasi Ogahiy 1809-yilda Qiyot qishlog'idagi mirob oilasida tug'ildi. Xiva madrasalarida ilm oldi. Arab va fors tillarini puxta egalladi. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini qunt bilan o'rgandi. 1829-yilda amakisi Munis vafot etgach, Olloqulixon uni amakisining o'rniga mirob mansabiga tayinladi. Uning shoir sifatida yaratgan asarlar to'plami „Oshiqlar tumori“ deb ataladi va u 19 ming misradan iborat. Uning g'azallari „Shashmaqom“ning hamma kuylariga tushadi. Ogahiy o'z davrining mohir tarjimoni ham edi. U *Sa'diy Sheroziyning* „Guliston“, *Abdurahmon Jomiyning* „Yusuf va Zulayho“ hamda *Nizomiy Ganjaviy* „Xamsa“sining ba'zi dostonlarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

Tarix Xorazm tarixnavislik maktabiga asos solgan shaxs *Abulg'oziy Bahodirxon*dir. U ham hukmdor, ham tarixchi olim sifatida tarixda nom qozondi. O'zining „Shajarayi turk va mo'g'ul“ asari bilan tarixda nom qoldirdi. Asarning „Taqi Shaybonxon avlodidin Xorazm mamlakatinda podshohlik qilg'onlarning zikri“ deb nomlangan I bobi Xorazmning 1512–1663-yillardagi tarixiga bag'ishlangan. Abulg'oziy Bahodirxon yozgan bu asarning qimmatini yana shundaki, u o'zbek tilida yozilgan.

„Dastur ul-amal“ asari Abulg'oziy Bahodirxonning topshirig'i bilan yozilgan. Afsuski, bu asar muallifining nomi aniqlangan emas. Mazkur asarda Sohibqiron Amir Temurdan tortib, Zahiriddin Muhammad Boburga qadar temuriylar shajarasi qisqacha sharhlangan. Har bir

hukmdorga qo'lyozmaning bir bo'limi bag'ishlangan. Xorazm tarixi bo'yicha eng qimmatli asarlardan biri „Firdavs ul-iqbol“ („Jannat bog'i“) asari *Munis* qalamiga mansub bo'lib, unda Xorazmning qadimgi davridan 1825-yilgacha bo'lgan tarixi bayon etilgan. Biroq *Munis* asarni yozib tugata olmadi. Asarning qolgan qismi jiyani *Ogahiy* tomonidan yozildi. Ayni paytda, *Ogahiyning* o'zi ham „Davlatning jannat bog'i“, „Tarixlar sarasi“, „Sulton voqealarining majmuasi“ hamda „Davlatlar gulshani“ kabi tarix faniga oid asarlar yozib qoldirdi. *Ogahiy* „Davlatning jannat bog'i“ („Riyoz ud-davla“) asariga 1825-yildan 1842-yilgacha, „Tarixlar sarasi“da („Zubdat ut-tavorix“) 1843–1846-yillargacha, „Sulton voqealarining majmuasi“ („Jomi ul-voqeati sultoniy“) asarida esa 1846–1855-yilgacha bo'lgan Xorazmning tarixini bayon etdi.

Qo'lyozma kitob san'ati

XVI asrda Xiva xonlari kutubxonalarida xattotlik, husnixat maktabi shakllandi. Mashhur xattot *Hamadoniy* 1556-yilda *Eshmuhammad*-xonga „Shohnoma“ni miniaturalar uchun ochiq joy qoldirib ko'chirib berdi. XVII–XVIII asrlarda Xiyada *Muhammad Yusuf Roziy*, *Bobojon Sanoiy*, *Muhammad Rizo Oxund* kabi usta xattotlar ijod qildilar. Ular she'riy asarlar, tarjima va tarixiy kitoblarni katta mahorat bilan ko'chirdilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bitta kitobni husnixat bilan yozish bir kishining mehnati emas edi. Shuning uchun har bir kitobni bezashda bir necha soha ustalari, xususan, qog'oz qirquvchi, kotib-xattot, muzahhib (oltin suvi yurituvchi), lavvoh (sarlavha bituvchi), miniaturachi rassom va sah Hof (muqovalovchi)lar ishtirok etishgan.

Xonlikda ta'lim tizimi Xiva xonligida ham ta'lim ikki bosqichli edi. Quyi bosqich – boshlang'ich maktab bo'lib, unda o'quvchilar o'qish-yozishni o'rganganlar. XIX asrda xonlikda 1,5 mingga yaqin boshlang'ich maktab faoliyat ko'rsatgan. Madrasalar soni esa 103 tani tashkil etgan. Shundan 22 tasi Xiva shahrida joylashgan. *Munis* ta'lim sohasi rivojiga o'zining 1804-yilda yozgan „Savodi ta'lim“ asari bilan hissa qo'shdi. Bu she'riy qo'llanma savod chiqarishni yengillashtirishga, shuningdek, husnixatni rivojlantirishga mo'ljallangan edi.

Madrasa ta'limning oliy bosqichi bo'lib, unda diniy ilm bilan birgalikda arab tili grammatikasi, mantiq, nutq madaniyati, matematika,

geografiya, tarix fanlari o'qitilgan. Madrasani bitirganlar qozi, uning yordamchisi, masjid imomi lavozimlarida ishlaganlar. Ayrımlari mudarrislik ham qilishgan. Ta'limning barcha xarajatlari, mudarris va talabalarning ta'minoti vaqf mulki daromadlari hisobidan amalga oshirilgan.

- ?
1. Xiva xonligida Buxoro amirligi va Qo'qon xonligiga qaraganda madaniy sohada bunyodkorlik ishlari keng ko'lamda olib borilganligining sababi nimada?
 2. Xiva xonligida ijod qilgan adabiyot namoyandalari va ular yaratgan asarlar haqida nimalarni bilib oldingiz?
 3. Tarix fani sohasida yaratilgan asarlar ro'yxatini tuzing.
 4. „Firdavs ul-iqbol“ va „Riyozi ud-davla“ asarlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
 5. Xiva qo'lyozma kitob san'ati haqida so'zlab bering.

29-§. Xiva xonligi tarixi bo'yicha manbalar

Arxiv hujjatlari

Mana, Siz Xiva xonligining XVI–XIX asr birinchi yarmi tarixi bilan tanishib bo'ldingiz. Xo'sh, Siz bilib olgan tarixiy ma'lumotlar qayerlardan olingan? Ular, birinchi navbatda, tarixiy hujjatlarni o'rganish natijasida to'plangan. Xiva xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, 1873-yilda xon devonida saqlanayotgan hujjatlar ham Peterburg shahriga olib ketildi. Olib ketilgan hujjatlar faqat 1962-yildagina Toshkentdagi O'zbekiston Davlat arxiviga olib kelindi. Xiva xonligi hujjatlarining ma'lum qismi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida ham mavjud.

Arxiv hujjatlari Xiva xonligining davlat tuzumi, soliq va majburiyatlar, pul muomalasi, davlatning ma'muriy-hududiy bo'linishi, aholining xo'jalik mashg'uloti, savdo-sotiq ishlari kabi masalalar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Mahalliy tarixchilarning Xiva xonligi tarixi to'g'risidagi asarlari

XVII asrda yashagan *Hasanbek Rumlu*ning „Eng go'zal tarix“ asari XVI asrning birinchi yarmidagi Xiva tarixiga bag'ishlangan. Xiva xoni, tarixchi olim *Abulg'oziy Bahodirxonning* (1603–1664) „Shajarayi turk“ asari, ayniqsa, katta ahamiyatga egadir. Asarda juda katta tarixiy dalil-

lar to'plangan. Asar turkiy qabilalar shajarasi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. U kitobxonni Xiva va xivaliklar, shuningdek, Abulg'oziy Bahodirxonning o'zaro urushlar oqibatida parchalanib ketgan davlatni birlashtirish yo'lida olib borgan shiddatli kurashi bilan ham tanishtiradi. Asarning 1512–1663-yillardagi Xiva ijtimoiy-siyosiy tarixiga, Xiva–Buxoro munosabatlariga bag'ishlangan IX bobi tarix fani uchun katta ahamiyatga ega.

Mahalliy mualliflar orasida *Munis* va *Ogahiylarning* tarixiy asarlari ham tarix uchun muhim manba hisoblanadi. Munisning „Firdavs ul-iqbol“ deb ataluvchi tarixiy asarining ahamiyati shundaki, unda Xorazmning 300 yillik tarixi (1572–1825) yaxlit, tarixiy ketma-ketlikda bayon etilgan.

Munis vafot etgach, xonlik tarixini yozish ishini Ogahiy davom ettirdi. Uning tarix fani bo'yicha yozib qoldirgan asarlari haqida oldingi mavzuda ma'lumotga ega bo'ldingiz.

Xudoyberdi Avaz Muhammadning 1831–1832-yillarda yozilgan „Dili g'aroyib“ asari ham Xiva xonligi, uning shaharlari haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Xiva tarixi bo'yicha rossiyalik mualliflarning asarlari Rossiya elchisi *I. D. Xoxlov* 1620–1622-yillarda Buxoro va Xiva xonliklarida bo'ldi. Unga ikki xonlik hukmdorlarini Rossiya bilan do'stlashishga, savdo va elchilik aloqalarini kengaytirishga ko'ndirish, ularni Rossiyaning qudratli davlat ekanligiga ishonitirish, tabiiy boyliklari va harbiy qudratini aniqlash kabi vazifalar yuklatilgan edi.

Uning elchiligi natijalari Rossiya podshosiga yuborilgan ma'lumotlarda yozib qoldirilgan. Ma'lumotlar uning o'ziga yuklatilgan vazifaning katta qismini bajarganligini tasdiqlaydi. Chunonchi, u Xiva va Buxoro munosabatlarining sovuq ekanligini, Xiva va Eron munosabatlari ham yaxshi emasligini, bojxona to'lovlari savdoni rivojlantirishga to'siq bo'layotganligi, chunonchi, boj bir davlatdan ikkinchisiga o'tgandagina emas, balki bir mamlakatning o'zida bir viloyatdan ikkinchisiga o'tganda ham olinishini qayd etgan.

1725-yilda Xivaga Rossiya elchisi bo'lib kelgan *Florio Beneveni* esdaliklarida ilmiy jihatdan muhim ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Rossiya imperatori Pyotr I unga juda muhim vazifalarni yuklagan.

Chunonchi, u Buxoro xoniga Xivaga qarshi ittifoq tuzishni taklif etishi lozim edi. Beneveni o'z esdaligida, jumladan, quyidagilarni qayd etgan: „Agar Xiva xoni Sherg'oziyxon yo'qotilsa, bu yerda tinchlik o'rnatiladi va hamma yo'llar ochiq bo'ladi. Rossiya Sherg'oziyxonga qarshi kuchlarni qo'llab-quvvatlashi foydali bo'ladi“.

Rossiya elchisi sifatida Xiva xonligiga 1819-yilda kelgan *N.I. Muravyov* ham yozib qoldirgan esdaliklar eng qimmatli manbalar qatorida turadi. „Esdaliklar“ Xiva to'g'risida, qadimiy obidalar, davlat boshqaruvi tizimi, hunarmandchilik va savdo-sotiq to'g'risida batafsil ma'lumotlardan iborat. Shuning uchun ham bu kitob fransuz va nemis tillariga tarjima qilingan edi. Muallif asarida o'zbek xalqiga xos xususiyatlar haqida to'xtalib, o'zbeklarni „aql-idrokli, suhbatlari yoqimli va o'tkir, qat'iyatli, matonatli, urf-odati oddiy, yolg'on va aldovdan nafratlanuvchi, harbiy ishda hormay-tolmaydigan mard va jasur kishilar“, deb ta'riflagan. *N.I. Muravyov* o'z fikrini davom ettirib, yana quyidagilarni qayd etgan: „Xiva aholisi o'zining mashaqqatli mehnati bilan cho'l-u biyobonni hosildor o'lkaga aylantirgan. Atrof ekinzor maydon – bug'doyzor, sholipoya, uzumzor va shirin-shakar bog“.

1842-yilda Xiva va Rossiya o'rtasida „Majburiyatlar akti“ shartnomasining imzolanishiga erishgan elchi *G. Danilevskiy* o'zi bilan Xivaga kelgan tabiatshunos olim *R. Baziner* hammuallifligida „Xiva va xonlikning boshqa shaharlari hamda qishloqlari savdo-sotig'i va sanoati“ nomli asar yozib qoldirdilar.

1858-yilda Xiva va Buxoroga yuborilgan diplomatik missiya rahbari *N. Ignatyev* yozib qoldirgan esdaliklar ham Xiva tarixi bo'yicha muhim manba hisoblanadi.

Taniqli sharqshunos olim *N. Vasilevskiyning* „O'zbeklar Xorazmda“, „Inoqlar hukmdorligi“ va „Qo'ng'iro't sulolasi“ asarlari Xiva xonligining XVI asr va undan keyingi asrlar tarixiga bag'ishlangan. Bundan tashqari, Xiva bilan Rossiyaning XVIII–XIX asrlardagi o'zaro aloqalari yana bir sharqshunos olim *S. Jukovskiyning* „Rossiyaning keyingi 300 yilda Buxoro va Xiva bilan aloqasi“ asarida o'z ifodasini topgan.

Yevropa sayyohlari va olimlari yozib qoldirgan manbalar

haqida muhim ma'lumot

Yevropa mamlakatlari sayyohlari va olimlari yozib qoldirgan asarlar ichida ingliz savdo va diplomatiya vakili *A. Jenkinsonning* esdaliklari Xiva xonligining XVI asr tarixi beradi. Bu esdalik „Jenkinsonning Rossi-

yadagi Moskov shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahriga sayohati“ deb nomlangan. Yevropa sayyohlari ichida taniqli venger sharqshunos olimi *X. Vamberi* yozib qoldirgan „O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat“ deb ataluvchi asar Xiva tarixi bo‘yicha ham eng qimmatli manbalardan hisoblanadi. Bu esdalik o‘zbek tilida ham chop etilgan.

**O‘zbekiston olimlarining
Xiva xonligi tarixiga oid
asarlari**

O‘zbekiston olimlari ham Xiva xonligi tarixini o‘rganish ishiga katta hissa qo‘shdilar. Ular orasida akademik *I. Mo‘minov* boshchiligida yaratilgan „Xorazmning qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo‘lgan tarixi“ (1976-yil) alohida qimmatga ega. Shuningdek, akademik *Y. G‘ulomov*ning „Xorazmning sug‘orilish tarixi“ (Qadimgi zamonlardan hozirgacha), akademik *M. Yo‘ldoshev*ning „Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi“ hamda *D. Alimova* tahriri ostida chop etilgan „O‘zbekiston tarixi“ (XVI–XIX asrning birinchi yarmi. Rus tilida) kitobi, shuningdek, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasining 9- va 12-jildlaridagi Xiva xonligi tarixiga oid maqolalar ham muhim ahamiyatga ega.

Xorazmning eng qadimgi davrdan to hozirgi kungacha, shu jumladan, XVI–XIX asrlar birinchi yarmi tarixi haqida Xiva shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan chop etilgan „Xiva – ming gumbaz shahri“ kitobi ham tarixiy dalillarga juda boy asardir (1997-yil).



- 1962-yil – Xiva xonlari arxivi Toshkent shahriga olib kelindi va u hozir O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanmoqda.



1. Nima uchun davlatlar tarixiga oid o‘tmish manbalarini bilish zarur?
2. Xiva xonligining arxiv hujjatlari bu xonlik tarixini o‘rganishda qanday ahamiyatga ega?
3. O‘rtaosiyolik olimlardan kimlar Xiva xonligining XVI–XIX asrlar tarixiga oid asarlar yozib qoldirganlar?
4. Rossiya diplomatlari, olimlarining Xiva tarixiga oid asarlari va ularning ahamiyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Yevropa sayyohlari Xiva xonligi tarixi bo‘yicha qanday asarlar yozib qoldirganlar?

30-§. XVI–XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar

Qoraqalpoq xalqining shakllanishi

Dunyoda xalqlar juda ko'p. Ulardan ikki yuzdan ortig'i o'z milliy davlatiga ega. O'zining davlatiga ega xalqlardan biri qoraqalpoq xalqidir. Ularning davlati O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasidir. Xo'sh, uzoq tarixda bu xalqning o'tmishi qanday kechgan? Qoraqalpoqlarning Amudaryo quyi etagida turkiy bijanaklar negizida xalq sifatida shakllanish jarayoni VIII asrda boshlangan edi. Bu jarayon X–XI asrlarda nihoyasiga yetdi. Shu davrda ularning davlati ham tashkil etilgan. O'z hukmdori va davlat boshqaruvi tizimiga ega bo'lgan Kerder shahri (hozirgi Kegeyli tumani hududida joylashgan shahar edi) poytaxt etib belgilangan. Qoraqalpoq davlati Chingizxon hujumi natijasida XIII asrning 20-yillarida barham topdi.

Turli ko'chmanchi qabilalarning siquviga bardosh bera olmagan qoraqalpoqlarning bir qismi Volga daryosi ortlariga, janubiy rus dashtlariga ko'chib o'rinishganligiga tarix guvoh. Shuning uchun ham o'sha davr rus yilnomlarida ular „чёрные клобуки“ („qora qalpoqlar“) deb qayd etilgan.



Qoraqalpoqlar tepa tomoni ingichkalashib chiqqan bosh kiyim – qalpoq kiyib yurganlari uchun shunday nom bilan atalganlar.

Chingizxon Xorazmshohlar davlati poytaxti Urganch shahrini egalagach, uni suvga bostirish maqsadida Amudaryo to'g'onini buzdirib tashlaganligi oqibatida Amudaryoning o'zani ham o'zgardi. Oqibatda, suvsiz qolgan Orolbo'yi qoraqalpoqlarining bir qismi Volga va O'rol (Yoyiq) daryolari bo'ylariga, Sirdaryo vohalariga ko'chib ketishga majbur bo'ldilar.

Oltin O'rda zaiflashgach, uning tarkibidan qator mustaqil davlatlar ajralib chiqdi. Bu davlatlarning biri – XIV asr oxirida tashkil topgan No'g'ay (Mang'it) xonligi edi. Uning chegarasi – Volga daryosidan Irtish daryosigacha, Kaspiy va Orol dengizi bo'ylaridan Kama daryosigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olardi. Binobarin, qoraqalpoqlar ko'chib borib joylashgan hududlar XIV–XVI asrlarda No'g'ay xonligi hududiga kirdi. No'g'ay va qoraqalpoq xalqlari o'zaro siyosiy hamkorlikda, birlashma bo'lib yashadilar. Ayni paytda, qo-

qoraqalpoqlar No'g'ay xonligi tarkibida o'zlarining boshqaruv tizimiga ega edi. Keyinchalik No'g'ay xonligi parchalangach, 1556-yilda qoraqalpoqlar Sirdaryoning quyi etagiga ko'chib keldilar va qozoqlarning Kichik Juz xonligi tarkibiga kirdilar. Shunday bo'lsa-da, ular poytaxti Jankent shahri bo'lgan o'z davlatlariga ega edi. Qoraqalpoqlarning bir qismi esa Xiva xonligi hududi chegarasida Orolbo'yi o'zbeklariga yaqin hududda yashab qolgan qoraqalpoqlarga kelib qo'shildilar. Bir guruhi Sirdaryoning yuqori oqimi – Toshkent tomonga, yana bir guruhi Sirdaryoning quyi oqimiga borib joylashdi. Shu tariqa qoraqalpoqlar shartli ravishda „yuqori qoraqalpoqlar“ va „quyi qoraqalpoqlar“ga bo'linib ketdi. Quyi qoraqalpoqlar Sirdaryo bilan Amudaryo o'rtasida bo'sh yotgan yerlarga ham o'rnashib, bu yerlarga Quvondaryodan suv chiqarib, dehqonchilik bilan shug'ullandilar.



Qoraqalpoqlarning alohida bir xalq ekanligini 1598-yilda Buxoro xoni Abdullaxon II ning bir yorlig'ida „qoraqalpoqlar“ degan so'z qayd etilganligi ham tasdiqlaydi.

Qoraqalpoq va Rossiya munosabatlari

1723-yilda jung'orlar bostirib kelib, Sirdaryoning o'rta qismini egallagach, qoraqalpoqlar yana ko'chishga majbur bo'lishdi. Ko'chish oqibatida qoraqalpoqlar ikkiga bo'linib ketdi. Qoraqalpoqlar shunday sharoitda Rossiya bilan aloqa o'rnatishga harakat qildi. Chunki jung'orlar hujumidan omon qolish juda muhim edi. Ikkinchidan, Rossiya bilan savdoni yo'lga qo'yish ham zarur edi.

1726-yilda qozoqlarning Kichik Juz xoni Abulxayrxon Peterburgga o'z elchilarini jo'natdi. Uning tarkibida qoraqalpoqlar vakili ham bor edi. Bunga javoban, 1731-yilda Rossiya o'z elchisi M.Tevkelevni Abulxayrxon huzuriga jo'natdi. Muzokaralar natijasida Kichik Juz tarkibidagi qoraqalpoqlar Rossiya fuqaroligiga qabul qilindi. Ayni paytda, qoraqalpoqlarning Rossiyaga emas, Kichik Juz xonligiga yasoq to'lashi tan olindi. Qoraqalpoqlarning Rossiya fuqaroligiga qabul qilinishi – ularni Eron hukmdori Nodirshoh hujumidan saqlab qoldi.

Asta-sekin qoraqalpoqlarning Orolbo'yi o'zbeklari bilan yaqinlashuvi yuz bera boshladi.

Orolbo'yi o'zbeklari Xiva xonligi hokimiyatiga bo'ysunishni istamas edi. Xon hukumati o'z oldiga Orolbo'yi o'zbeklarini hamda

qoraqalpoqlarni bo'ysundirish maqsadini qo'ydi. Nihoyat, uzoq kurashlardan so'ng, 1735-yildagina Orolbo'yi o'zbeklari va qoraqalpoqlar Xiva xonligi hokimiyatini tan olishga majbur etildi. 1811-yilda esa qoraqalpoqlar Xiva xonligiga to'la bo'ysundirildi.

**Oydo'stbiy
boshchiligidagi
qo'zg'olon**

1827-yili Xiva xonligi zulmiga qarshi qoraqalpoqlar qo'zg'olon ko'tardi. Qo'zg'olonga qoraqalpoqlar biyi Oydo'stbiy boshchilik qildi. 1827-yil 25-iyul kuni Xiva xoni Olloqulixon Oydo'stbiy boshchiligidagi qo'zg'olonni bostirish uchun qo'shin jo'natdi. Kuchlar noteng bo'lgan jangda qo'zg'olonchilar tor-mor qilindi. Oydo'stbiy esa qatl etildi. Qo'zg'olon bostirilsa-da, xalqning zulmga qarshi nafari kuchayib bordi. 1859-yilda Xiva xoni Said Muhammadxon qoraqalpoq xalqining qattiq bosimi ostida ularga o'zini o'zi boshqarish huquqini berdi. Bu bilan Xiva xonligi tarkibida bo'lsa-da, qoraqalpoq davlatchiligi amalda tiklandi. Butun hokimiyat Biylar og'asi qo'lida to'plandi. Uning maqomi xon maqomiga tenglashtirildi.

Ijtimoiy hayot

Qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotida urug'chilik, qabilachilik munosabatlari ancha kuchli edi. Har bir urug' yoki qabilaga *biylar* boshchilik qilardi. Harbiy qismlarni *botirlar* boshqarardi. Aholi orasida *ruhoniylar*, *shayxlar*, *xo'jalarning* ham o'rni katta edi. Ovul boshlang'ich ma'muriy bo'g'in bo'lib, ularning butun hayotiga Oqsoqollar kengashi rahbarlik qilardi. Shuningdek, qoraqalpoqlarda *yuzboshi*, *mirobboshi*, *qozi*, *rais* kabi ma'muriy mansablar ham bor edi.

Biylar og'asi ilgari urug' yig'inlarida saylangan bo'lsa, qoraqalpoqlar Xiva xonligiga bo'ysundirilgach, xon tomonidan tayinlanadigan bo'ldi. Xon tomonidan tayinlangan Biylar og'asiga urug' biylari bo'ysungan. Amudaryoning so'l sohilidagi Qo'ng'iro't, o'ng sohilidagi Chimboy shaharlari qoraqalpoqlarning bosh ma'muriy markaziga aylandi.

Xo'jalik hayoti

Qoraqalpoqlar qadimdan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib keldilar. Qoraqalpoqlar Orol bo'ylarida, Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi yerlarda dehqonchilik bilan shug'ullanardilar. *Bug'doy*, *arpa*, *tariq* va boshqa ekinlar ekib, mo'l hosil olganlar. Yangi (Jana)daryo va Quvondaryo havzalarida qoraqalpoqlar tomonidan barpo etilgan kanal va sug'orish inshootlari dehqonchilikning yetakchi o'rinda turganligidan guvohlik beradi. XVIII

asr oxirlarida Amudaryo quyi tarmoqlarida Qalliko‘l, Kegayli, XIX asr o‘rtalarida Chimboy, Qo‘ng‘irot dehqonchilik vohalari vujudga keldi. Dehqonchilikda *omoch, mola, ketmon, belkurak, o‘roq* kabi mehnat qurollaridan foydalanilgan. Qoraqalpoqlar iqtisodiy hayotida chorvachilik ham muhim o‘rin tutgan. Chorvadorlar ho‘kiz va tuya qo‘shilgan aravalarda poda va otarlari bilan yil davomida sero‘t yaylovlarga ko‘chib yurganlar.

Qoraqalpoqlar iqtisodiy hayotida baliqchilik va ovchilik ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.



1. Qoraqalpoq xalqining shakllanish jarayoni haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. „Qoraqalpoq“ atamasi qanday kelib chiqqan?
3. Yurtimizda dastlab „qoraqalpoqlar“ deb tilga olingan hujjat kimga tegishli edi?
4. Qoraqalpoq–Rossiya, Qoraqalpoq–Xiva munosabatlariga oid faktlar ro‘yxatini tuzing.
5. Oydo‘stbiy qo‘zg‘olonining sababi va oqibatlari haqida so‘zlab bering.
6. Nega Xiva xoni Qoraqalpoqlarga o‘zini o‘zi boshqarish huquqini berishga majbur bo‘ldi?



Ma‘lumki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bugungi kunda O‘zbekiston tarkibidagi davlat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi bobi va moddalarida O‘zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlar qanday tartibda hal etilishi belgilab qo‘yilganligini aniqlab, mazkur moddalarning mazmunini o‘rganib keling.

31-§. Qoraqalpoqlarda madaniy va ma‘naviy hayot

Turmush tarzi Qoraqalpoqlar uzoq yillar davomida ko‘chmanchilik turmush tarzidan o‘troqlikka o‘tish jarayonini boshidan kechirdilar. Aholining asosiy qismi *o‘tov* va *paxsa* uylardan iborat *ovullarda* yashardi. Keyinchalik *qo‘rg‘on* (qal‘a) va shaharlar vujudga keldi.

Qoraqalpoqlar bir necha urug‘lardan iborat bo‘lib, har urug‘ a‘zosi o‘z urug‘ining mustahkamligini ta‘minlashga intilardi. Bir urug‘

8–O‘zbekiston tarixi, 8-sinf

ichida o'zaro nikoh taqiqlangan. To'yda baxshilar dostonlardan qo'shiqlar kuylashardi, aytishuvlar avjiga chiqardi. Polvonlar kurashga tushardi.

Qoraqalpoqlar qishlovni ko'pincha dengiz va daryo bo'ylarida o'tkazganlar. *Arava, qayiq, sol* va *ot* asosiy transport vositasi bo'lgan. Qoraqalpoqlar kiyim-kechagida milliylikka alohida e'tibor berganlar. Bu narsa, ayniqsa, ayollar va qiz bolalar savkeli (qalin bo'zdan tiki-lib, kumush va marjonlar bilan bezatilgan bosh kiyim)da yaqqol namoyon bo'lgan.

Shaharlar Qoraqalpoqlar *Qo'ng'iroq, Chimboy, Xo'jayli* kabi yirik shaharlarni bunyod etganlar. Shulardan Qo'ng'iroq va Chimboy qoraqalpoqlarning ma'muriy markazlari edi. Bu shaharlar XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida barpo etildi. Xo'jayli shahri Orol va Xiva oralig'idagi savdo markazi bo'lib, bojxona shu shaharda joylashgan. Shaharlar baland devorlar bilan o'rab olingan. Shahar ichkarisida ko'rkam binolar, saroylar barpo etilgan. *Janaqal'a, Oydo'stqal'a, Ernazarqal'a, Ko'ko'zakqal'a, Eshonqal'a* kabi qal'a shaklida qurilgan shaharlar qoraqalpoq xalqi tomonidan yaratilgan me'morchilik madaniyati yodgorliklari hisoblanadi.

Shaharlarda XIX asr boshlarida 318 ta maktab, Qoraqum eshon, Qalila oxun, Egambergan oxun, Oyimbet eshon mavzellarida, Eshonqal'ada madrasalar mavjud bo'lgan. Hunarmandlar 12–13 yoshli bolalarni shogirdlikka qabul qilib, ularga hunar sirlarini o'rgatganlar. Qoraqalpoq yoshlari Xiva va Buxoro madrasalarida ham ta'lim olganlar.

Folklor, tasviriy san'at va musiqa Qoraqalpoqlarning xalq og'zaki ijodi juda boy. Qoraqalpoq folklor namunalari 20 jildligining nashr etilgani fikrimizning dalilidir. Ular so'z ustalari bo'lgan chechanlarni, baxshi (jirov)larni sevadilar. El oqsoqollari, rahbarlari yonidan qissaxonlar arimagan. O'zbeklarning Afandisi kabi qoraqalpoqlarning qiziqchisi – O'mirbek laqqisi bor. O'mirbek laqqi o'z latifalarida jamiyatdagi kamchiliklar ustidan kuluvchi xalq qahramoni sifatida gavdalanadi. U adolatsiz amaldorlar, qozilar, so'zi bilan ishi mos kelmaydigan ruhoniylarning kirdikorlarini fosh qilib, mardlik, to'g'rilik, haqiqat, adolatni kuylagan. Latifalarini yengil mutoyiba, achchiq hajv bilan ixcham ifodalab, tinglovchilarni xursand qilgan.

Qahramonlik dostonlari „*Qirgqiz*“, „*Alpomish*“, „*Qublon*“, „*Mastposhsho*“, „*Edigey*“ dostonlarida qoraqalpoqlarning voqعالarga boy tarixi kuylanadi. Masalan, „*Edigey*“ dostonida Amir Temur, To‘xtamish faoliyati bilan bog‘liq voqealar bayon etilsa, „*Qirgqiz*“da qoraqalpoq xalqining ozodlik kurashi, Xorazm xalqining Eron shohi Nodirshohga qarshi kurashi o‘z badiiy ifodasini topgan.

Qoraqalpoqlarning xalq qo‘shiqalarida el-yurt yo‘lboshchilari, qahramonlari – Maman botir, Esangeldi mahram, Oydo‘stbiy, Ernazarbiylar ulug‘lanadi.

Qoraqalpoqlar tasviriy san‘atidagi o‘ziga xoslik, ayniqsa, ular to‘qigan gilam va kashta buyumlarda yorqin ifodasini topgan. Ularga tushirilgan naqshli bezaklar suv ramzini aks ettiruvchi to‘lqin ko‘rinishiga ega bo‘lgan. Bu bejiz emas edi. Chunki qoraqalpoqlar qadimdan daryo va ko‘l bo‘ylarida yashab kelganlar. Bundan tashqari, qoraqalpoq tasviriy san‘atining yana bir o‘ziga xosligi uning *qadama naqshli* yog‘och o‘ymakorligida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Qoraqalpoqlar qo‘shiqchiligi mazmuniga ko‘ra xalq, tarixiy va marosim qo‘shiqalariga bo‘lingan. Ular *qo‘biz*, *dutor*, *g‘ijjak*, *surnay*, *nog‘ora* kabi musiqiy cholg‘u asboblari yordamida ijro etilgan. Doston ijrochilari jirovlar, baxshilar va qissaxonlar deb ataluvchi uch guruhga bo‘linganlar. Ular bir-biridan aytadigan dostonlarining mazmuni, ijro etish uslublari, kuy va musiqiy cholg‘u asboblari bilan farq qilganlar. Masalan, jirovlar qahramonlik dostonlarini qo‘biz jo‘rligida, baxshilar esa *dutor* va *g‘ijjak* jo‘rligida ijro etganlar. Qissaxonlar esa doston qo‘lyozmalarini zo‘r mahorat bilan o‘qib yoki yoddan aytib berganlar.

Qoraqalpoq yozma adabiyoti

XVIII–XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoq adabiyotining ko‘zga ko‘ringan bir nechta namoyandalari qalam tebratganlar-kim, ularning nomlari bugungi kunda ham ardoqlanadi. Ulardan biri Jiyen Jirov (1730–1784) mashhur baxshi, hajvchi shoir sifatida kamol topdi. „*Hoy yig‘illar, yig‘illar*“ va „*Yuragimda ko‘p dog‘im*“ kabi qator she‘rlarida jamiyatdagi nohaqliklarni, hukmron tabaqalarning kirdikorlarini, xalqqa o‘tkazgan jabr-zulmlarini fosh etadi. Qoraqalpoqlar – erksevar xalq. Shuning uchun ham ular doimo o‘z erklari uchun ozodlik kurashi olib borgan. Ma‘lumki, qozoqlarning Kichik Juz xoni Abulxayrxonga qarshi olib borilgan urushda qoraqalpoqlar yengilgan edi. Bu mag‘lubiyat natijasida ular

azob-uqubatlarga duchor etildi. Xususan, Sirdaryo bo'ylaridagi qoraqalpoqlar har yoqqa tarqab ketdi. Ularning bir qismi Toshkent atrofiga (Chirchiq bo'ylariga), boshqa bir qismi esa Qizilqum orqali Xorazmga (Orol dengizining janubiy sohillariga) ko'chib ketdi. Mana shu ko'chishlarning guvohi bo'lgan Jiyyen Jirov „*Darbadar el*“ nomli doston yozib, unda qoraqalpoqlarning mashaqqatli davri tarixini haqqoniy bayon etdi. Baxshi sifatida „*Alpomish*“, „*Qirqqiz*“ kabi dostonlarni zo'r mahorat bilan kuyladi.

Qoraqalpoq adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan yana biri Kunxo'ja Ibrohim (1799–1880) edi. Uning ayniqsa „*O'roqchilar*“, „*Cho'ponlar*“, „*El bilan*“ kabi she'rlari xalq orasida mashhur edi. Bu asarlarda qoraqalpoq xalqining Xiva xonligi tobeligiga tushib qolgan davrdagi og'ir ahvoli, erksiz turmushi va hukmron tabaqalar kirdikorlari katta mahorat bilan fosh etilgan.

Ajiniyoz Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li (taxallusi Zevar) ham (1824–1878) qoraqalpoq xalqining atoqli shoirlaridan biridir. U boshlang'ich ta'limni Mo'ynoqdagi eski maktabda o'qidi. Keyin Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida ilm oldi. Ajiniyozdan yuzdan ortiq she'r va dostonlar meros qoldi. She'rlarida Vatan, insonparvarlik g'oyalarini kuyladi. Shoirning „*Bo'zotov*“ dostonida esa qoraqalpoq xalqining boshqa yurtlarga ko'chib ketishga majbur etilganligi katta mahorat bilan tasvirlangan. „*Kerak*“, „*Bo'ladi*“, „*Bo'lmasa*“, „*Yaxshi*“, „*Yigitlar*“ kabi asarlarida Ajiniyozning insonparvar g'oyalari, falsafiy qarashlari ifodalangan. Asarlari xalq orasida keng tarqalgan, „*Qiz Mengesh bilan aytishuv*“ (1878) asari mashhur. Uning hayoti haqida shoir Ibroyim Yusupov „*Ajiniyoz*“ asarini yaratgan. Uning asarlari o'zbek tilida nashr etilgan („*Tanlangan asarlar*“ va boshqalar).



Ajiniyoz



1999-yilda Ajiniyoz tavalludining 175 yilligi nishonlandi. Nukusda Ajiniyoz maydoni barpo etildi va unga haykal o'rnatildi.

Berdaq

Qoraqalpoq adabiyotining asoschisi Berdaq (1827–1900) (taxallusi; asl ismi Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li) nomi bilan mashhurdir. Berdaq avval ovul maktabida, so‘ngra madrasada tahsil oldi. Navoiy, Fuzuliy, Mahtumquli, Kunxo‘ja asarlarini mutolaa qilib, she‘riyat san‘atini ulardan o‘rgandi. Berdaq tarixni, xalq og‘zaki ijodini mukammal o‘zlashtirib oldi. Uning ijodi 18–19 yoshlarida do‘mbira chertib, she‘r aytishdan boshlandi. 25 yoshida xalq orasida iste‘dodli shoir sifatida xalqqa tanildi. Uning „Bo‘lgan emas“, „Umrin“ va „Soliq“ kabi she‘rlarida mehnatkash xalqning og‘ir hayoti, shuningdek, Xiva xonlari va amaldorlari zulmiga qarshi xalq noroziligi o‘z aksini topdi.



Berdaq

„O‘g‘limga“, „Ahmoq bo‘lma“ kabi she‘rlari orqali esa yoshlarni Vatanni sevishga, ma‘rifat cho‘qqilarini egallashga chaqirdi. Berdaq xalq hayotini, uning ezgu orzu-istaklarini yaxshi bilgan shoir edi. Shuning uchun ham uning she‘rlarida xalqparvarlik ruhi kuchli edi. Berdaq tarixiy mavzularda ham qalam tebratdi. U „Omgeldi“, „Oydo‘stbiy“, „Ernazarbiy“ kabi asarlarida xonlar zulmiga qarshi kurashgan xalq qahramonlarini faxr bilan kuyladi. „Avlodlar“ asari esa tarixiy voqealar solnomasi bo‘lib, unda xalqlarning kelib chiqishi, qoraqalpoq xalqining boshqa turkiy xalqlar bilan aloqasi, ularning hayotidagi umumiylik kabi jihatlar bayon etilgan. Xiva xonligi zulmiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon „Ernazarbiy“ dostonida ham aks ettirildi.



1998-yilda mamlakatimizda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlandi. Toshkent shahridagi xiyobonlarning biriga Berdaq nomi berildi va haykali o‘rnatildi. Shoir tug‘ilgan joy – Bo‘zatovda va Nukus shahrida ham haykal qo‘yildi.



1. Qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Nega adabiyotning asosini she‘riyat va dostonchilik tashkil etgan?
3. Jiyen Jirov, Kunxo‘ja va Ajiniyozlarning qanday asarlarini bilib oldingiz va ularning mazmuniga nisbatan o‘z munosabatingizni bildiring.
4. Qoraqalpoq adabiyotining asoschisi – Berdaq asarlarida qanday g‘oyalalar ilgari surilgan?



IV BOB. XVIII–XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA QO‘QON XONLIGI

32-§. Qo‘qon xonligining tashkil topishi

Shohruxbiy – xonlik asoschisi

Farg‘ona vodiysi ashtarxoniyalar hukmronligi davrida Buxoro xonligi tasarrufida edi. XVIII asr boshlarida Buxoro xonligida markaziy hokimiyat ichki kurashlar oqibatida zaiflashdi. Bunday vaziyatdan foydalangan jung‘orlar Farg‘ona vodiysiga tez-tez bostirib kirib, talon-taroj qila boshladilar. Ikkinchi tomondan Sin imperiyasi (Xitoy) ham xavf solmoqda edi. Vaziyat ichki kuchlarni birlashishga, mustaqil davlat tuzishga undamoqda edi. Shunday sharoitda vodiydagi o‘zbeklarning ming urug‘i oqsoqollari yig‘ilishib, Buxoro xonligidan alohida mustaqil davlat tuzishga qaror qildilar.



1709-yilda ming urug‘i vakillari Farg‘ona vodiysida hokimiyatni o‘z qo‘llariga oldilar. Shu tariqa, keyinchalik Qo‘qon xonligi deb atalgan yangi o‘zbek davlati vujudga keldi. Hukmdorlik taxtiga Shohruxbiy o‘tqazildi.

Tepaqo‘rg‘on Shohruxbiyning qarorgohiga aylantirildi. To‘g‘ri, bu o‘zbek davlati hukmdorlari birdaniga xon unvonini olmaganlar. Aksincha, bu davlatga rasman Buxoro xonligining tarkibiy qismi deb qaralgan. Shuning uchun ashtarxoniy Abulfayzxon Shohruxbiyga „otaliq“ unvonini bergan. Qolaversa, mustaqil davlatning asosiy belgilaridan biri – pul zarb etilmagan. Aksincha, Buxoro xonligining puli muomalada saqlanib turdi. Biroq bu holat uzoq davom etmadi. Chunki ashtarxoniyalarning Farg‘onani o‘z qo‘l ostilarida saqlab turishga kuchi yetmas edi. Abulfayzxon hokimiyatining umri esa nihoyasiga yetib borardi.

Xonlik Shohruxbiy vorislari davrida

Endi minglar sulolasi oldida sulola hokimiyatiga qonuniy tus berish muammosi ham turar edi. Chunki Farg‘ona vodiysida katta

nufuzga ega bo'lgan qipchoqlar qabilasi minglar hokimiyatini tan olmadi. Shohruxbiy vafot etganidan so'ng taxtga o'tirgan o'g'li Abdurahimbiy otasi davrida boshlangan Qo'qon shahrini obod qilish va keng ko'lamli obodonlashtirish ishlarini davom ettirdi va uni xonlik poytaxtiga aylantirdi. Shuningdek, davlatning hududini kengaytirish maqsadida Buxoro xonligi tasarrufida bo'lgan Xo'jand, O'ratepa viloyatlarini qo'shib oldi. Afsuski, u fitna qurboni bo'ldi. Taxtni ukasi Xo'jand hokimi Abdulkarimbiy egalladi (1733–1750). U akasining Qo'qon shahrini obodonlashtirish borasida olib borgan ishini davom ettirdi. Shuningdek, shahar atrofini devor bilan o'ratdi.

1740-yilda Farg'ona vodiysiga jung'orlar hujum qildi. Hujum juda qiyinchilik bilan qaytarildi. Jung'orlarga qarshi kurashda minglarga qipchoqlar yordam berishdi. 1745-yilda jung'orlar yana hujum qildi. Dahshatli dushmanga qarshi minglar, yuzlar, qipchoqlar va qirg'izlar birgalikda kurashdilar. Ularga o'ratepaliklar ham yordam berishdi. Garchand xonlikning mustaqilligi saqlab qolingan bo'lsa-da, bu hujum xonlikning iqtisodiy va siyosiy ahvolini juda mushkul holatga solib qo'ydi. Ayni paytda, jung'orlarga qarshi birgalikda kurashgan o'zbek qabilalarining ittifoqi uzoqqa cho'zilmadi. Bunga qipchoqlarning zo'rvonligi, talonchiligi sabab bo'ldi. Barcha qiyinchiliklarga qaramay markaziy hokimiyat qipchoqlar isyonini bostirdi. Abdulkarimbiy vafotidan so'ng toj-u taxt uchun boshlangan kurashda oxir-oqibat Abdurahimbiyning o'g'li Erdonabiy g'olib chiqdi (1751–1762). Tez orada Qo'qon xonligi Xitoy hujumiga uchradi. Unda Qo'qonning yengilishi Erdonabiyning hokimiyatini inqirozga uchratdi. To'g'ri, Erdonabiy hukmronligi davrida xonlikning ichki va tashqi siyosatda muvaffaqiyatlarga erishilgan davrlar ham bo'ldi. Chunonchi, u O'sh va O'zgan viloyatlarini ham bo'sundirdi. Qo'qonni Buxoro amirligi va Sin imperiyasi (Xitoy) bilan tengma-teng kurasha oladigan davlatga ham aylantira oldi.

**Xonlik Norbo'tabiy
hukmronligi davrida**

1763-yilda taxtga Abdulkarimbiyning nabirasi Norbo'tabiy o'tqazildi (1763–1798). Norbo'tabiy tez orada Chust (hozirgi Namangan viloyatidagi tuman)ni bo'ysundirdi. So'ng o'zining yana bir raqibi Namangan hokimi Irisqulibiyga qarshi qo'shin tortdi. Bu yurish ikki tomon o'rtasida sulh tuzish bilan yakunlandi. Norbo'tabiy

o'zidan norozi bo'lgan shahzodalarni turli viloyat va tumanlar hokimi etib tayinladi. Shu yo'l bilan muxolifatning qarshiligini susaytira oldi.

1776-yilda Norbo'tabiy Qo'qon xonlaridan birinchi bo'lib xonlikning *fals* deb atalgan o'z pulini zarb ettirdi. Manbalarda qayd etilishicha Norbo'tabiyning bir falsiga bir bosh qo'y sotib olish mumkin bo'lgan. Xonlikning mustaqil ravishda o'z pulini zarb etishining tarixiy ahamiyati bu davlatning amalda ham mustaqil davlat ekanligini anglatishi bilan belgilanadi. Norbo'tabiy davrida ekinlardan mo'l hosil olinishi evaziga bozorda narx-navo arzonlashdi. Xonlikning qudrati har tomonlama oshdi. Norbo'tabiy siyosiy barqarorlikka erishgach, vafotidan oldin, katta o'g'li Muhammad Aminbekni Marg'ilonga, o'r-tancha o'g'li Olimbekni To'raqo'rg'onga hokim etib tayinladi. Norbo'tabiyning vafotidan so'ng xonlikda bir-biriga muxolifatchi bir nechta guruh vujudga keldi. Ulardan biri Olimxon va ukasi Umarxonni, Norbo'tabiyning o'gay akasi Xo'jibiy boshchiligidagi ikkinchi guruh esa Norbo'tabiyning kenja o'g'li Rustambiyi qo'llab-quvvatladilar.



- 1709-yil – O'rta Osiyoda uchinchi o'zbek davlati – Qo'qon xonligi tashkil topdi.
- 1776-yil – Norbo'tabiy xonlikda birinchi bo'lib Qo'qonning o'z pulini zarb ettirdi.



1. Qanday omillar Farg'ona vodiysini yagona davlatga birlashtirishga zamin yaratdi?
2. Nima uchun Shohruxbiy davlatni „otaliq“ unvonida boshqargan?
3. Norbo'tabiyning xonlik tarixidagi o'rni uning qaysi xizmati bilan belgilanadi?

33-§. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligida siyosiy ahvol

Olimxonning taxtga chiqishi

Avvalgi mavzularda qayd etilgan ikki guruh o'rtasidagi kurashda Olimxonni qo'llab-quvvatlagan guruhning qo'li baland keldi. Olimxon 1798-yilda taxtga o'tqazildi. Uning hukmronligi davrida (1798–1810) xonlikning mavqeyi har qachongidan ham yuksaldi. Davlat endi Qo'qon xonligi nomi bilan atala boshlandi. 1805-yilda Olimxon

o'zining xonlik nomi yozilgan kumush tanga pul (dinor)ni zarb ettirdi va o'zini xon deb e'lon qildi.

Mazkur pul davlatning moliya va soliq tizimida tartib o'rnatishga xizmat qildi. Olimxon minglar sulolasi hokimiyatining qonuniyligi e'tirof etilishi uchun sulolaning kelib chiqishi Bobur Mirzodan boshlanishi haqidagi rivoyatdan foydalandi.

! *Rivoyat tarixiy kitoblarga „Oltin beshik“ nomi bilan kirgan. Rivoyatga ko'ra, Bobur Mirzo shayboniylardan yengilib, Movarounnahrda Farg'ona orqali chiqib ketadi. Yo'lda Bobur Mirzoning ayollaridan biri o'g'il farzand ko'radi. Biroq uni olib ketmaydilar, aksincha, qimmatbaho ziynat buyumlar bilan bezatilgan beshikka belaydi va xizmatkorlardan birini bola bilan birga qoldiradilar. Bola qoldirilgan joyda o'zbeklarning qirq, qipchoq, qirg'iz va ming urug'larining ovullari bor edi. Ular bolani topib oladilar va unga Oltinbeshik deb ism qo'yadilar. Oltinbeshik ming urug'i orasida tarbiyalanadi. Voyaga yetgach uylanadi. Ming urug'idan uylangan turmush o'rtog'i o'g'il farzandni dunyoga keltiradi. Unga Tangriyor deb ism qo'yadilar. Rivoyatda qayd etilishicha, Tangriyor keyinchalik Farg'ona hukmdori bo'lgan. Davlatni esa biy unvonida boshqargan.*

Xalq orasida hukmron sulola shajarasining temuriylarga borib taqalishi mamnuniyat bilan qabul qilindi. Qolaversa, Olimxon nomiga „Sohibqiron“ unvoni ham qo'shib yoziladigan bo'ldi. Bu ham minglarning kelib chiqishi temuriylarga borib taqalishini asoslashga xizmat qilishi lozim edi.

Xonlik hududining kengaytirilishi

Olimxon muntazam qo'shin tuzish maqsadida harbiy islohot o'tkazdi. Bu islohot unga xonlik hududini kengaytirish maqsadida keng miqyosda harbiy harakatlar olib borish imkonini berdi. Chunonchi, Ohangaron vohasi, Chimkent, Sayram, Turkiston bosib olindi. Rossiya bilan savdo aloqalari yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Sirdaryo o'rta oqimining deyarli barcha o'ng qirg'og'i (Qurama)ni xonlik tarkibiga qo'shib oldi. Bundan tashqari, O'ratepa va Xo'jand uchun Buxoro amirligi bilan ketma-ket urush harakatlari olib bordi. Bu ikki viloyat

goh u tomon, goh bu tomon tasarrufiga o'tib turdi. Bir so'z bilan aytganda, Olimxon hukmronligi davrida xonlik hududi deyarli ikki marta kengaydi.

Olimxon ichki siyosatda markaziy hokimiyatni yanada mustahkamlashga harakat qildi. Bu yo'lda qattiqqo'llikka ham yo'l qo'ydi. Bu esa turli qabila rahnamolarining, ayrim yuqori mansabdorlarning keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Olimxon kambag'al va qalandarlariga yer hamda chorva mollari berib, ularni mehnatga jalb etdi.

Olimxonga qarshi kuchlar taxtga uning ukasi Umarxonni o'tqazishga zimdan tayyorgarlik ko'rdilar. Olimxon bu xabarlariga dushmanlar tarqatayotgan ig'vo deb qaradi. Yaqinlashib kelayotgan davlat to'ntarishining oldini olish o'rniga hozirgi Qozog'iston Respublikasi hududidagi Chimkent, Sayram, Turkiston viloyatlariga 1810-yilning fevral oyida harbiy yurish uyushtirdi. Qishning sovug'i qo'shinda norozilik uyg'otdi. Qo'shinning noroziligi fitnachilar uchun ayni muddao bo'ldi. Ular qo'shin orasida Olimxon vafot etdi, degan uydirmani tarqatdilar. Taxtga esa ukasi Umarxonni o'tqazdilar. Olimxon xiyonatdan xabar topgach, Qo'qonga qaytdi. Biroq yo'lda fitnachilar tomonidan otib tashlandi. Olimxon tarixda davlatni xonlik maqomiga ko'targan jasur hukmdor sifatida nom qoldirdi.

Xonlik Umarxon hukmronligini davrida

Umarxon ham barcha o'tgan hukmdorlar qatori o'z hokimiyatini mustahkamlashga kirishdi. Avvalo, kelgusida xonlik taxtiga xavf solishi mumkin bo'lgan shaxslarni o'rtadan olib tashladi. So'ng o'zining nomi bilan kumush dirham zarb ettirdi. 1817-yildan boshlab zarb etila boshlangan kumush va tilla pullarga „Musulmonlar amiri, Sayid Muhammad Umar sulton“ deb yozila boshlandi. Umarxon pul zarb etish orqali rasman o'zining hukmdorlik maqomini tasdiqlab oldi.

Xonlik hududini yanada kengaytirish maqsadida 1812-yilda Buxoroga qaramlikni e'tirof etgan Turkistonga ham qo'shin jo'natdi va uni ishg'ol etdi.

Bu yurishdan keyin din peshvolari Umarxon hokimiyatining qonuniyligini asoslash maqsadida „Qaysi hukmdor 12 ming lashkarni kerakli qurol-yarog' va anjomlar, otlarini esa yem-xashak bilan ta'minlasa, uni musulmonlar amiri (Amir al-muslimin) deb atash joiz“ degan fatvo chiqardilar.

Hisob-kitoblar xonlik bo'yicha Umarxondan fatvoda qayd etilganidan ancha ko'p kishi ta'minot olishini aniqlab berdi. Shundan so'ng Umarxon o'ziga *Amir al-muslimin* unvonini qabul qildi va bu haqda xutba ham o'qildi.

Usmonli davlati sultoni Qo'qon xonligining Buxoro amirligidan to'la mustaqil davlat ekanligini tan oldi.

Umarxon davrida xonlik hududi yanada kengaytirildi. Endilikda xonlik chegarasi shimolda Rossiya chegaralaridan Ko'xiston va Qashqargacha ulandi.

Umarxon 1822-yilda vafot etdi. Taxtga katta o'g'li Muhammad Alixon (Madalixon) o'tirdi.

Muhammad Alixon Qo'qon xonligining hududi Umarxonning o'g'li va vorisi Muhammad Alixon (Madalixon) davrida (1822–1841) yanada kengaydi. Qo'qon qo'shini Farg'onaning janubida joylashgan, asosan, tojik o'troq aholisi yashaydigan Qorategin, Darboz va Ko'lobni ishg'ol etdi. Biroq Madalixon tez orada ko'ngli tusagan ishlarni qilaverishini qo'llab-quvvatlovchi a'yonlar ta'siriga tushib qoldi. Yosh xon marhum otasining eng obro'li a'yonlarini ta'qib qila boshladi. Umarxon davrida xon hokimiyati bilan mahalliy zodagonlar o'rtasida mustahkamlangan ittifoq buzila boshladi. Amaldorlarning ayrimlari surgun qilindi, ba'zilar qatl etildi va ba'zilar esa Buxoroga qochib ketishdi. U hatto ammasi Oftoboyimning oilasiga ham shafqat qilmadi. Uning turmush o'rtog'i, xonlikning shayxulislomi va o'g'li Hakimxonni badarg'a qildi. Viloyat (beklik) hokimlari esa tez-tez almashtirib turildi. Bular aholining barcha tabaqalarini Madalixonga qarshi qilib qo'ydi. Ruhoniylar xonni turli axloqsizlik va shariatga qarshi jinoyatlarda ayblab, unga qarshi ochiq targ'ibot olib borishdi. Oxir-oqibat, 1841-yilda Madalixon o'z ukasi Sulton Mahmudxon foydasiga taxtdan voz kechishga majbur bo'ldi. Shuningdek, xondan norozi kuchlar Buxoro amiri Nasrullodan yordam so'radilar. Amir Nasrullo 1842-yilda o'z qo'shinini Qo'qonga qarshi safarbar etdi va Qo'qonni bosib oldi. Madalixon, ukasi Sulton Mahmudxon o'z a'yonlari bilan tutib olindi va Amir Nasrullo buyrug'iga binoan qatl etildi. Amir Nasrullo hatto Madalixonning onasi Nodirabegimga ham shafqat qilmadi.

Amir Nasrullo istilosidan keyingi siyosiy ahvol

Amir Nasrulloning Qo'qon xonligidagi hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi. Chunki amirning Qo'qondagi noibi Ibrohim dod-

xoh Qo'qon xonligi aholisini avval undirib kelingan soliqqa qo'shimcha ravishda Buxoro amirligida joriy etilgan soliqlarni ham to'lashga majbur qildi. Natijada, butun Qo'qon xonligi hududida 1842-yili katta qo'zg'olon ko'tarildi. Uning oqibatida amirning Qo'qondagi noib va beklar hokimiyati tugatildi. Buxoro amiri hukmronligiga qarshi qo'zg'olonni tashkil etgan mahalliy kuchlar *qipchoqlar* madadiga tayangan edilar. Qo'zg'olon natijasida Qo'qon xonligining mustaqilligi tiklandi. Taxtga Norbo'tabiyning ukasi Hojibekning o'g'li Sheralixon (1842–1845) o'tqazildi. Qo'qon xonligi mustaqilligini tiklashda minglar qabilasiga katta madad bergan qipchoqlar xonlikning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta mavqega ega bo'lib oldilar.

Ularning sardori Musulmonqul mingboshi etib tayinlandi. Qo'qondagi mag'lubiyatga chiday olmagan Amir Nasrullo yana Qo'qonga yurish qildi. U Qo'qon shahrini 40 kun qamalda tutdi. Biroq Amir Nasrulloning qamalni davom ettirishiga Xiva xoni Olloqulixonning Buxoro amirligiga qilgan hujumi xalaqit berdi. Amir Nasrullo Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi.

Musulmonqul 1845-yilda O'sh aholisining soliqlarning haddan tashqari og'irligidan norozi bo'lib ko'targan qo'zg'olonini bostirish uchun qo'shin bilan yuborildi. Bundan foydalangan Isfara hokimi Samarqandda istiqomat qilib turgan marhum Olimxonning o'g'li Murodxonni olib kelib, Qo'qon taxtiga o'tqazdi. Biroq Musulmonqul Namanganga qaytib keldi va qizini marhum Sheralixonning o'g'li Xudoyorga nikohlab berdi. 13 yoshli Xudoyorxon bu davrda Namangan hokimi edi. Shundan keyin Musulmonqul Murodxonni taxtdan ag'dardi va kuyovi Xudoyorni o'tqazdi.

Ichki nizolarning kuchayishi

Xudoyorxon yosh bo'lganligi tufayli xonlikni amalda qaynotasi Musulmonqul boshqarardi. Shunday qilib, xonlikda qipchoqlar hukmronligi davri boshlandi. Endilikda qipchoqlar Qo'qonga yoppasiga ko'chib kela boshladilar. Mahalliy aholini shahardan haydab chiqarib, ularning uy-joylariga o'rnashib ola boshladilar. Sug'orish inshootlarini qo'lga kiritdilar. Aholi endi suv uchun ham soliq to'laydigan bo'ldi.

Bu siyosat mahalliy aholining qattiq noroziligiga sabab bo'ldi va xonlikda hukmronlarga qarshi qo'zg'olon ko'tarish xavfini tug'dirdi. Bunday vaziyatda Musulmonqul o'z mavqeyini yo'qotmaslik uchun ruslar bilan aloqa o'rnatishga intildi va rus qo'mondonligi vakili

V. Velyaminov-Zernov bilan maxfiy ravishda uchrashdi. Qaynotasining bu harakati Xudoyorxonni qattiq cho'chitib qo'ydi. Shuning uchun ham u endi qaynotasi Musulmonqul va qipchoqlar hukmronligiga xotima berishga qaror qildi.

1852-yil 9-oktabr kuni Xudoyorxon Toshkentdan chaqirilgan qo'shin bilan qipchoqlar qirg'inini uyushtirdi. Qaynotasi Musulmonqul asir olinib, qatl etildi. Qipchoqlarning mol-mulki musodara qilindi. Shu tariqa, Musulmonqul va qipchoqlar hukmronligi barham topdi.

Qipchoqlarning hokimiyatdan chetlashtirilishi mamlakat ichida siyosiy barqarorlikka olib kelmadi. Aksincha, ichki beqarorlikdan foydalangan mahalliy bekliklar ayirmachilik harakatini kuchaytirdilar. Oqibatda shimoldan Rossiya imperiyasi bosqini xavfi ostonaga yaqinlashib qolganiga qaramay ichki nizolarga barham bera olmadilar. Toj-u taxt uchun beayov kurash davom etdi.



- 1798-yil – Olimxon taxtga o'tirdi.
- 1805-yil – Olimxon o'ziga xon unvonini qabul qildi va shu sanadan boshlab davlat rasman Qo'qon xonligi deb atala boshlandi.
- 1842-yil – Amir Nasrulle Qo'qonni bosib oldi.
- 1842-yil – xonlikda hokimiyat amalda qipchoqlar qo'liga o'tdi.
- 1852-yil – Xudoyorxon tomonidan qipchoqlar hokimiyatiga chek qo'yildi.



1. Olimxonning xonlik tarixidagi o'rni nima bilan belgilanadi?
2. Nima uchun hukmdorlarga o'z hokimiyatining qonuniyligini asoslash zarur sanalgan?
3. O'ylab ko'ring! Nega Buxoro amirlari va Qo'qon xonlari Usmonli davlati sultonlariga murojaat qilardilar?
4. Nega Madalixon davrida davlat parokandaligi yuz berdi va u qanday oqibatlariga sabab bo'ldi?
5. Xonlikda qipchoqlar hukmronligi o'rnatilmasligi mumkin edimi?
6. Qipchoqlar hukmronligiga qay tariqa chek qo'yildi?



Aka-uka Olimxon va Umarxonlar o'z hokimiyatlarining qonuniyligini qanday usullar bilan asoslaganliklarini taqqoslang.

34-§. Qo‘qon xonligida davlat boshqaruvi

Xonlikning hududi va aholisi

Dastlab faqat Farg‘ona vodiysi hududi bilan cheklangan Qo‘qon xonligi hududi jihatdan XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyoda eng katta davlatga aylandi. Xonlik shimolda Rossiya (ularni Bedpakdala cho‘li ajratib turgan), sharqda Sharqiy Turkiston, g‘arbda Xiva xonligi va Buxoro amirligi bilan, janubda esa Madalixon davrida xonlikka qo‘shib olingan Qorategin, Darvoz, Ko‘lob va Shug‘nan beklilari bilan chegaradosh bo‘lgan. Mazkur chegara Sirdaryo o‘rta oqimining o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan Qurama, Toshkent vohasi, Dashti Qipchoq (hozirgi Qozog‘istonning janub va janubi-g‘arbi), Yettisuv, shuningdek, Issiqko‘l qirg‘oqlarigacha hududlarini o‘z ichiga olgan. Bundan tashqari, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi o‘rtasida qo‘ldan qo‘lga o‘tib turgan Xo‘jand va O‘ratepa ham ma‘lum muddat xonlik hududi tarkibida edi.

Bir so‘z bilan aytganda, Qo‘qon xonligi hudud jihatdan uch o‘zbek davlati orasida eng kattasi edi. Qo‘qon xonligi ma‘muriy jihatdan *bekliklarga* (viloyatlar), *sarkorliklarga*, *oqsoqolliklarga* va *aminliklarga* bo‘lingan. Xonlikda 15 ta bekklik mavjud bo‘lib, ularda 3 millionga yaqin aholi yashagan. Aholining asosiy qismini o‘zbeklar tashkil etgan. Shuningdek, tojiklar, qirg‘izlar va qashqar (uyg‘ur)lar ham yashashgan.

Oqsoqolliklar katta-katta qishloq yoki bir qancha kichik-kichik qishloqlar birlashmalari edi. Ularni aminlar, oqsoqollar va sarkorlar boshqarganlar. Yashash tarziga ko‘ra, aholi o‘troq, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchilardan iborat edi.

Xonlikda davlat boshqaruvi

Qo‘qon xonligi ham Buxoro amirligi va Xiva xonligi kabi davlat tuzumiga ko‘ra mutlaq monarxiya edi. Cheklanmagan huquqqa ega bo‘lgan *xon* davlatni hukmron minglar urug‘i, shuningdek, boshqa qabilalarning nufuzli tabaqalari, yuqori mansablarga tayinlangan davlat amaldorlari, ruhoniylar va harbiylarga tayanib boshqargan.

Buxoro amirligidan farqli o‘laroq Qo‘qon xonligida harbiy lavozim egalarining, ayniqsa, qo‘shin Bosh qo‘mondoni – *mingboshining* nufuzi nihoyatda yuqori bo‘lgan. Mingboshi nafaqat qo‘shinning Bosh

qo'mondoni, ayni paytda, Bosh vazir ham hisoblangan. Butun ijro etuvchi hokimiyat uning qo'lida to'plangan.

Bundan tashqari, har bir ma'muriy birlik *harbiy okrug* ham sanalardi va hokimlar harbiy kuchlarning qo'mondonlari ham edilar. Harbiy okrug hududida yashovchi barcha urug'lar hamda ko'chmanchi qabila a'zolari yashash joyi yoki manzili bo'yicha okrugda yuritilgan ro'yxatga yozib qo'yilardi. Ro'yxatga olinganlar xonning birinchi chaqirig'idayoq belgilangan joyga yetib kelishi shart edi. Bu tartib xonga agar zarurat taqozo etsa 60 mingga yaqin askarni va oziq-ovqat ortilgan 12 ming aravani tezda yig'a olish imkonini berardi.

Mahalliy *hokimlar* amaldorlarni, soliq tushumini kuzatib boruvchi nazoratchilarni tayinlardi. Soliqlar miqdorini tasdiqlardi va moliya ishlarini boshqarardi. Shu bilan birga, yuqorida aytilganidek, qo'shinga qo'mondonlik ham qilardilar.

Qo'qon, Toshkent, Marg'ilon, Shojixon, Andijon, Baliqchi, Chor-toq, Koson beklilari yirik okruglar bo'lib, ular orasida Toshkent eng muhim o'rin tutgan. Shuning uchun ham xon Toshkentga o'z qarindoshlarini yoki eng ishonchli kishilarini hokim etib tayinlagan.

Qo'qon xonligida davlat boshqaruvining o'ziga xos yana bir xususiyati shunda ediki, markaziy hokimiyat mamlakatda barqarorlikni saqlash uchun o'troq va ko'chmanchi turli urug' va qabilalar o'rtasida manfaatlar muvozanatini hisobga olishga majbur edi. Umarxon va Madalixonlar bu omilni eng ko'p darajada hisobga olgan hukmdorlar edi.

Qo'qon xonligi Buxoroga qaramlikdan ko'chmanchi qipchoq va qirg'iz qabilalari yordamida ozod etilgach, ular xonlik siyosiy hayotida yetakchi mavqega da'vo qila boshladilar va bunga erishdilar. Ularga xonlik taxti kerak emas edi. Aksincha, ular uchun taxtda minglarning balog'atga yetmagan vakilini o'tqazish muhim edi. Chunki shunday qilinsa, ular regentlikni qo'lga kiritgan bo'lardilar. Regentlik ularga xonlikni istagan yo'sinlarida boshqarish imkonini berardi. Avvalgi mavzuda bilib olganingizdek, amalda shunday bo'ldi ham.

Qipchoq va qirg'iz qabilalarining ayrim yetakchilari madrasa ilmi nima ekanligini u yerda o'qigachgina tushunib yetgan edi, xolos. Ulardan biri, keyinchalik xonlikda qo'shin qo'mondoni lavozimini

egallagan qipchoq qabilasidan bo'lgan Aliquli „Diniy ta'lim menga o'zimni tanitdi“, deb tan olganligi tarixiy kitoblarda qayd etilgan.

Xonlik hayotining yana bir o'ziga xos jihati – bu davlat ishlarida ruhoniylarning ta'siri Buxoro amirligidagidek sezilarli darajada bo'lmaganligi edi.

Xonlikda yuqori davlat lavozimlari

Xonlikda boshqa o'zbek davlatlari kabi mansabdorlar ikki toifaga bo'linganlar. Birinchi toifa *umaro* (dunyoviy ishlar masalalari bilan shug'ullanuvchilar), ikkinchisi esa *ulamo* (din ishlari bilan shug'ullanuvchilar).

Umaro mansabdorlari ichida eng nufuzlisi *mingboshi* – Bosh vazir, qo'shinning Bosh qo'mondoni va tashqi siyosat masalalarida xonning bosh maslahatchisi edi. (Xiva xonligida Bosh vazir qanday nom bilan atalganligini eslang.)

Devonbegi ham yuqori davlat mansabi bo'lib, u xonlik devonxonasiga rahbarlik qilgan, shuningdek, moliya ishlarini boshqargan.

Mirza xazinaga tushgan tushumning hisob-kitobini olib borgan.

Dasturxonchi – xon dasturxoniga taom tortuvchi mansabdor edi.

Tarixdan ko'plab hukmdorlarning zaharlab o'ldirilgani, zahar ko'pincha taomga yoki ichimlikka qo'shib berilganligi ma'lum. Shuning uchun ham xon dasturxonchi lavozimiga eng ishonchli odamni qo'ygan.

Xiva xonligida bo'lganidek, Qo'qon xonligida ham *mehtar* lavozimi bo'lgan. Biroq bu xonlikda u xonlikning moliya ishlariga mas'ul bo'lgan devonbegining o'rinbosari edi, xolos. Shuningdek, xonlikda *shig'ovul*, *inoq*, *otaliq*, *dodxoh*, *qo'shbegi*, *parvonachi*, *xazinachi* kabi yuqori martabali lavozimlar mavjud edi.

Ulamo mansablari ichida *shayxulislom*, *qozi kalon*, *xo'ja kalon* (*naqib*), *qozi askar*, *muftiy*, *qozi a'lam* va *rais* lavozimlari alohida o'rin tutardi. Ulamo mansablarini egallagan har bir shaxsning qanday masalalar bo'yicha mas'ul ekanligini avvalgi mavzularda bilib oldingiz.



1. Xonlik joylashgan va egallab olgan hududlar haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Xonlik hududi ma'muriy jihatdan qanday birliklarga bo'lingan?

3. Xonlikning davlat boshqaruvi qaysi jihatlari bilan Buxoro amirligiga o'xshaydi va qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
4. Xonlikdagi mavjud bo'lgan yuqori davlat mansablarini Xiva xonligidagi shunday mansablar bilan taqqoslang.

Mulohaza yuriting!

Nima uchun o'zbek xonliklarida davlat tuzumi boshqaruv shakli va yuqori davlat lavozimlari deyarli o'xshash bo'lgan?



„O'zbek davlatlarining siyosiy hayotida ro'y bergan o'zgarishlar, davlat boshqaruv shakli va davlat lavozimlari“ jadvalini to'ldiring.

№	Savollar	Buxoro amirligi	Xiva xonligi	Qo'qon xonligi
1.	XVIII asrda davlatlarning siyosiy hayotida ro'y bergan muhim o'zgarishlar			
2.	Hokimiyat tepasiga kelgan sulolalarning nomlari			
3.	Davlat tuzumiga ko'ra o'xshashliklar			
4.	Ma'muriy birliklarning soni			
5.	Eng quyi ma'muriy birliklarning nomi			
6.	Bosh vazirning atalishi			
7.	Moliya ishlariga javobgarlar			
8.	Qo'shinning Bosh qo'mondoni			

35-§. Qo'qon xonligida harbiy ish

Muntazam qo'shinning tuzilishi

Qo'qon xonlari ham ichki va tashqi siyosatda qo'shinning ahamiyatini juda yaxshi anglaganlar. Shuning uchun ham Olimxon 1805-yilda birinchi bo'lib xonlikda 10 ming kishilik muntazam qo'shin tuzdi. Bu qo'shinning asosini tog'li tojiklar tashkil etdi. *Navkariya* deb atalgan mazkur muntazam qo'shin o'qotar qurollar bilan qurollantirildi va tez orada barcha qo'shinning zarbdor kuchiga

aylandi. Umarxon davrida ularning soni 12 ming kishiga yetkazildi. Xudoyorxon esa Usmonli davlatidan sifatli tayyorlangan *miltiq* (vintovka) olib keltirdi. Ayni paytda, xonlikda *qilquyruq*, *qoraqozon* va *qoracherik* deb ataluvchi nomuntazam qo'shin ham saqlab qolindi. Ular yordamchi bo'linma hisoblanardi. Yordamchi bo'linma zaruratga qarab aholi soniga va hududlarning iqtisodiy ahvoriga qarab to'plangan.

XIX asrning 30–40-yillarida xonlikda jami 30 ming askar bor edi. Xonlikdagi barcha mehnatga yaroqli erkaklar harbiy xizmatga chaqirilishi mumkin edi. Qaysi hudud qancha askar yuborishini hukumat oldindan belgilab qo'yardi. Muntazam qo'shinga olish meros tarzida bo'lgan. Ya'ni ota vafot etsa yoki harbiy xizmatga noloyiq bo'lib qolsa, o'rniga o'g'li chaqirilgan. Askarlik ro'yxatiga kiritilgan kishi o'z xohishiga ko'ra undan chiqa olmagan. Ayni paytda, oilaning yolg'iz erkagi xizmatga olinmagan. Tinchlik vaqtlarda har kuni askarlarning 1/10 qismiga oila a'zolari bilan ko'rishib kelishga ruxsat etilgan.

Qo'shinning tarkibiy qismi va boshqarish tartibi

Qo'shin tarkibiy jihatdan *sipoh* (otliq), *to'pchi* (artilleriya), *sarboz* (piyoda) va saralangan *maxsus bo'lim* (galabotit va merganlar) deb ataluvchi 4 qismdan iborat bo'lgan.

Tabiiyki, u davrda otliq qo'shin qo'shinning asosini tashkil etgan. Muntazam tartibda xizmat qiladigan har bir otliq askarga davlat tomonidan bahosi 80 tillagacha turadigan ot va egar-jabduq berilgan. Xonlikda 20 ming nafar otliq askar xizmat qilgan.

Xudoyorxon nisbatan zamonaviy *to'pchi qo'shimi* tuzdi. Qo'shin qo'mondoniga harbiy harakat chog'ida *amiri lashkar* unvoni berilgan. U qo'shinning Bosh qo'mondoni sanalib, harbiy harakat uchun shaxsan mas'ul bo'lgan. Qo'shinda *mingboshi* (oliy qo'mondon), *amiri lashkar*, *qo'shbegi* (o'z qo'shiniga ega beklilik hokimi), *botirboshi* (bekliklardagi harbiy ishning ahvoli uchun mas'ul), *valiy* (noib, artilleriya qo'mondoni), *qal'abon* (harbiy qal'alar uchun mas'ul shaxs), *qo'rboshi* (qurol-aslaha ishlab chiqarish ustaxonasi va omborxonasi boshlig'i), *yovar* (amiri lashkar maxsus bo'linmasi boshlig'i), *to'pchiboshi* (to'pchilar bo'linmasining boshlig'i), *to'qsoba* (o'z tug'iga ega bo'lgan harbiy bo'linma boshlig'i) va *ponsadboshi* (500 nafardan iborat harbiy qo'shin qo'mondoni) kabi oliy darajali harbiy mansablar mavjud edi. Harbiy harakatlar paytida xonning *xos*

soqchilari askarlarni jangda ruhlantirib turgan. Chekinayotganlarga burch haqida eslatib turish ham ularning vazifalariga kirgan.

Qozi askar harbiy harakat boshlanishidan oldin xon nomidan jihat e'lon qilgan. Bundan tashqari, o'ljani baholagan va qo'shinning ma'naviy qiyofasi uchun ham javobgar bo'lgan.

Qozi rais esa qo'shin muftiysi bergan fatvo ijrosining ta'minlanishini nazorat qilgan.

Harbiy harakatlar chog'ida har bir bo'linmada 5 kishilik guruh ham faoliyat yuritgan. Ularning vazifasi yarador bo'lgan askarlarni jang maydonidan olib chiqish hamda halok bo'lganlarni dafn etishdan iborat edi.

Harbiy harakatlarni boshlashdan oldin qo'shin *ilg'or* (oldingi qism), *maymana* (o'ng qanot), *maysara* (chap qanot) va *markaz* qismlariga bo'lingan. Xonlikda 1000 kishidan iborat qo'shin bo'linmasi *tug'* (minglik), 500–1000 tagacha qo'shin bo'linmasi *bayroq* deb atalgan. Yuzlik bo'linma esa *elliklikka*, elliklik esa *o'nlikka* bo'lingan.

Qo'shin ta'minoti Har bir davlatda, ayniqsa, kam taraqqiy etgan davlatlarda qo'shin saqlash juda katta xarajat talab qilgan. Xarajatlarning bari soliq tushumlari hisobiga qoplangan, albatta. Shuningdek, harbiy xarajatlarni qoplash uchun aholiga „*miltiq puli*“ deb ataluvchi soliq ham joriy etilgan bo'lib, u o'rtahol oilalar uchun 2,5 tilla, boy oilalar uchun 5 tilla miqdorida belgilangan. Harbiy xizmatchilarga unvoniga qarab bir yilga 200 tangadan 8 ming tangagacha pul, shuningdek, 20 botmondan 2 ming botmongacha g'alla berilgan.

Yuzboshiga bir yilda 147 kumush tanga, ellikboshiga 98 tanga, o'nboshiga 65 tanga, oddiy askarga esa 43 tanga haq to'langan. Harbiy harakatlar oldidan esa yuzboshiga 2 tilla, ellikboshi va oddiy askarga 1 tilladan berilgan. To'g'ri, xonlikning harbiy kuchlari, ularning harbiy tayyorgarlik darajasi juda past bo'lgan. Chunki qo'shin uchun zobitlar tayyorlaydigan maxsus harbiy bilim yurtlari tashkil etilmagan. Askarlarga harbiy ish maxsus harbiy ta'lim olmagan kishilarning o'z saviyalariga yarasha, to'plagan tajribalariga tayangan holda o'rgatilgan, xolos. Bunday kishilar *shogirdpeshalar* deb atalishgan. Muntazam qo'shin yiliga ikki marta harbiy ko'rikdan o'tkazib turilgan.

**Sarhadlarni
mustahkamlash
uchun ko'rilgan
choralar**

Xonlik sarhadlarining xavfsizligini mustahkamlash uchun o'sha davrda harbiy qal'a va istehkomlar qurilishi muhim bo'lgan. Shuning uchun ham bu masalaga alohida e'tibor bilan qaralgan. Harbiy qal'alar ahamiyati va kattalikligiga qarab 3 guruhga bo'lingan.

Birinchi guruh – bir necha ma'muriy birliklarning markazlarida joylashgan qal'alar (Toshkent, Marg'ilon, Qo'qon, Andijon, Namangan shaharlari).

Ikkinchi guruh – mahalliy boshqaruv ixtiyoridagi qal'alar (Turkiston, Chimkent, Avliyoota, O'ratepa, Pishpak, Oqmasjid).

Uchinchi guruh – yirik markazlarni bir-biri bilan bog'lovchi yo'l-larda qurilgan kichik qal'alar.

Qo'qon shahri qal'asi ikkita himoya devori bilan o'ralgan. Uning ichida yana devor bilan o'ralgan bir nechta binolar ham qurilgan. Binolarda askarlarning otlari, qurol-yarog'lari, zaxirasi saqlangan. Ayni paytda, askarlarning yashashi uchun ham xonalar bo'lgan. Qal'alar xonlikning tashqi xavfsizliginigina emas, balki mamlakatni uzoq-yaqin hududlar, davlatlar bilan bog'lovchi savdo yo'llarini qo'riqlashda ham tayanch vazifasini bajargan.

Xonlikning shimoliy qismi mustahkam himoyalangan bo'lib, bu yerda Turkiston, Chimkent kabi shahar-qal'alar, shuningdek, yirik iqtisodiy va siyosiy markaz – Toshkent shahri ham joylashgan edi.

Ohangaron va Chirchiq vohasida Kerovchi, To'ytepa va Bo'ka istehkomlari bunyod etilgan. Xonlikning g'arbiy qismida esa strategik jihatdan katta ahamiyatga ega O'ratepa, sharqiy qismida O'sh va Pishpak (hozirgi Bishkek shahri, Qirg'iziston Respublikasi poytaxti) qal'alari bunyod etilgan edi. Qal'alarning barchasi devor bilan o'ralgan. Devorning tashqarisida chuqur xandaklar qazilib suv bilan to'ldirilgan. Qal'a himoyachilari dushmanga qarata o'q otishlariga qulaylik yaratish uchun maxsus teshiklar (burjlar) qo'yilgan. Qal'a minorasidan tevarak-atrof kuzatib turilgan. To'plar qal'a darvozasi tepasiga hamda minoralar ustiga o'rnatilgan.



Botmon – og'irlik o'lchov birligi, 1 botmon taxminan 164 kg.ga teng.

Strategik – umumiy maqsadga erishish uchun muhim bo'lgan.



1. Muntazam qo'shin bilan nomuntazam qo'shinni taqqoslang, xulosalaringizni daftaringizga tushiring.
2. Qo'qon xonligida nomuntazam qo'shin qanday nomlar bilan atalgan va ular qanday tartibda to'plangan?
3. Xonlik qo'shinining tarkibiy qismlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Oliy martabali harbiy lavozimlar ro'yxatini tuzing.
5. Qo'shin ta'minoti qanday amalga oshirilgan?



Yurtimizda joriy etilgan „Safarbarlik chaqiruv rezervi“ xizmati qanday maqsadda joriy etilganligini va u qanday tartibda o'talishini aniqlab keling.

36-§. Qo'qon xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Yer egaligi

Qo'qon xonligida ham barcha yer davlat mulki edi. Ayni paytda, u egalik shakliga ko'ra, *amlok* (davlat), *xususiy* va *vaqf* yerlariga bo'lingan.

Amlok yerning ma'lum qismi xonga tegishli bo'lgan va u 3 qismga bo'lingan. Birinchisi *xos mulk* deb atalgan. Undan olingan daromad saroy ahli va soqchilari xarajatlari uchun sarflangan. Ikkinchi qismi esa *taqiq yer* (qo'riq yer) deb atalgan va u yaylov, qamishzor va chakalakzorlardan iborat bo'lgan. Uchinchi qismi esa *chek yerlar* deb atalib, bevosita xonga tegishli bo'lgan. Xususiy yer egaligi yirik davlat amaldorlariga davlat oldidagi xizmatlari uchun yer ajratib berish, shuningdek, xususiy kishilarga sotish (mulki hur xolis) orqali vujudga keltirilgan. Xususiy yer egasi bo'lgan birinchi toifa vakillari yerga emas, balki undan olinadigan daromadga hamda shu yerda qurgan imoratiga egalik qilganlar. Shuningdek, yetishtirilgan hosilning 1/5 qismi miqdorida soliq to'laganlar. Yerni meros qilib qoldirish huquqiga ega bo'lmaganliklari uchun hozircha egalik qilib turgan yerlarning ma'lum qismi farzandlarida saqlanib qolishi uchun *vaqf avlod* qilganlar. Ma'lumki, vaqf yerlar sotilmaydi, hadya qilinmaydi va meros qilib ham qoldirilmaydi. Shuning uchun diniy muassasalar ixtiyoriga vaqf avlod qilingan yerdan olinadigan daromadning vaqf hujjatida ko'rsatilgan qismi yerni vaqf mulki ixtiyoriga o'tkazgan amaldorning avlodlariga tegishli bo'lardi. Ikkinchi toifa esa sotib olingan yerga bevosita egalik qilgan. Bunday yerlardan soliq

olinmagan. Davlat yerining sotilganligi va sotib olinganligi to'g'ri-sidagi hujjat qozixonalarda imzolangan. Unda yer sotuvchining, ya'ni xonning o'zi ham ishtirok etgan. Xususiy yer-mulk egaligi harbiy xizmatchilarga yer berish orqali ham shakllantirilgan. Harbiylarga berilgan yerlar *tanho yerlari* deb atalgan.

Mulklarning ko'pchiligi 30 sotixdan 60 sotixgacha bo'lgan. Yerlar ishlov berish uchun dehqonlarga ijaraga berilar edi. Dehqonlar xon yerlarida ham mehnat qilar edilar. Xon yerlarida ishlash uchun sa-farbar etilganlarning soni 10 ming nafargacha yetardi. Ular *mardi-korlar*, xususiy yerlarda hosilning 1/4 qismi uchun yollanib ishlovchi yersiz, ot-ulovsiz kambag'allar esa *chorikorlar* deb atalar edi. Bundan tashqari, *korandalar* deb ataluvchilar ham bo'lib, ular hosilning 1/2 qismini olish sharti bilan yerlarni ijaraga olib, o'z mehnat qurollari, ot-ulovlari bilan yollanib ishlar edilar.

Soliq va majburiyatlar

Asosiy soliq – *xiroj* bo'lib, uning miqdori ekin ekiladigan yer maydoni va ekin turiga qarab hosilning 1/3–1/5 qismigacha belgilanar edi. Ko'chmanchi chorvadorlardan olinadigan zakotning turlari ko'p edi. Ularning asosiylari „*qo'raboshi*“, „*tutun haqi*“, „*yig'im soliq*“ deb atalar edi.

„*Qo'raboshi*“ – ko'chmanchi chorvadorlardan mol boshiga va qo'-rasiga qarab olinadigan zakot. Bu zakot qishda mollar qo'ralarda tur-ganida yig'ib olingan.

„*Tutun haqi*“ – bahor kelganda yangi o'tloqlarga ko'chishdan ol-din xonadon boshiga bittadan qo'y bilan olinadigan soliq (zakot).

„*Yig'im soliq*“ esa zakot to'lamaydigan toifalarning bekka beradi-gan 9 buyumdan iborat in'omlari yig'imi bo'lgan.

Mehnatkash xalq deyarli hamma narsa uchun soliq to'lar edi. Chunki hamma qo'riq yerlar, chakalakzorlar, to'qaylar, daraxtzorlar, ko'llar va barcha yaylovlar xonning ixtiyorida edi. Aholi qal'a devor-larini ta'mirlash, istehkomlar qurish, kanallar qazish, ariqlarni tozalash va yo'l qurilishida ishtirok etish kabi majburiyatlarni o'tagan.

Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo Qo'qon xonligida ham Xiva xonligi va Bu-xoro amirligida bo'lgani kabi sun'iy sug'o-rish mahorati mukammal egallangan va suv-dan oqilona foydalanilgan. Asosiy qishloq xo'jaligi ekini bug'doy va paxta edi. Shuningdek, meva, sabzavot va poliz ekinlarining deyarli

barcha turlari yetishtirilgan. Chorvachilikda makkajo‘xori va beda yetakchi o‘rinda turgan.

Farg‘ona vodiysida paxtachilik yildan yilga rivojlana bordi. Rossiyaning o‘zbek davlatlaridan, jumladan, Qo‘qondan paxta sotib olib boshlashi bu ekin maydonlarining yanada kengayishiga sabab bo‘ldi. Paxta savdosiga hatto boj ham bekor qilindi.

Qo‘qonda hunarmandchilikning miskarlik, zargarlik, o‘ymakorlik, kulolchilik, qog‘ozgar, to‘quvchi, do‘ppi tikuvchi, kashtachi, ko‘priksoz, temirchi, novvoy, aravaso, baxmalbof, bo‘yoqchi, dorukash, devorzan, degrez, ko‘nchi, miltiqsoz, nayzagar, panjaraso, pillakash, po‘stindo‘z, taqachi, paranjido‘z, chevar, chitgar, gilamchi kabi turlari nihoyatda rivojlangan.

Qo‘qon xonligining iqtisodiy hayotida Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qashqar, Hindiston, Afg‘oniston, Eron, Xitoy va Rossiya bilan olib borilgan savdo aloqalari katta o‘rin egallagan. 1832-yilda imzolangan Qo‘qon–Xitoy shartnomasiga ko‘ra, Qo‘qon xoni Qashqarda savdogarlardan boj yig‘ish huquqini olgan.

Xonlik shaharlari Xonlikning bosh shahri – Qo‘qonga oid ma‘lumotlar X asrdan boshlab uchraydi. Manbalarga ko‘ra, uning yoshi 2000 yildan ortiqdir. Ma‘lumotlarda „Havoqand“, „Ho‘qand“ degan nomlar bilan qayd etilgan. Havoqand so‘zi „go‘zal“, „yoqimli“, „xushmanzara“, „shamol shahri“ degan ma‘noni anglatadi, degan fikrlar ham mavjud. Mahalliy aholi o‘z shahrini Ho‘qandi latif yoki Qo‘qon deb ataganlar. Qo‘qon shahri XVIII–XIX asr birinchi yarmida nafaqat xonlikning, ayni paytda, O‘rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri edi. 1842-yilda Qo‘qon mustahkam devor bilan o‘raldi. Shaharga 12 darvozadan kirilardi. Shaharning 12 darvozali bo‘lishiga sabab, uning ma‘muriy jihatdan 12 dahaga bo‘linganligi edi. Bu davrda shaharda 30000 aholi yashagan. XIX asr o‘rtalarida Qo‘qondagi madrasalar ichida Madalixon, Norbo‘tabiy, Jome, Hokimoyim, Hoja dodxoh, Mingoyim madrasalari alohida ajralib turadi. Ularning har birida 38 tadan 100 tagacha hujrasi bo‘lgan.

Andijon O‘rta Osiyoning mashhur shaharlaridan biri bo‘lgan Andijon „Buyuk ipak yo‘li“da bunyod etilgan. Arablar istilo qilgan davrda shahar „Andukon“ deb atalgan. Tarixchi olim, akademik A. Muhammadjonovning ta‘kidlashicha, „Andijon“ soy

bo'yidagi shahar, degan ma'noni anglatadi. Andijon XV asrdan boshlab Farg'ona vodiysining markaziga aylandi. Zahiriddin Muhammad Bobur davrida Andijonda xo'jalik, fan va madaniyat ravnaq topdi. U „Boburnoma“da Andijonga „*Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur... Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. To'qqiz tarnov suv kirar*“, deya ta'rif bergan.

Qo'qon xonligi tashkil topgach, shahar Andijon bekligining markazi bo'lib qoldi. XIX asr o'rtalarida Andijon 4 *dahaga* bo'lindi. Har *dahaga qozi va mingboshi* tayinlandi. *Dahalar mahallalarga* bo'lingan bo'lib, ularni oqsoqol boshqargan.

Toshkent 2009-yilda 2200 yilligi nishonlangan Toshkent ham

O'rta Osiyoning qadimgi shaharlaridan biridir. U turli davrlarda Choch, Shosh, Binkat kabi nomlar bilan atalib kelindi. XI asrdan boshlab esa hozirgi nomi bilan atala boshlandi.

Toshkent o'z tarixida turli vaqtlarda yurtimizga bostirib kirgan davlatlarga qaramlik davrlarini boshidan kechirdi. 1503-yilda esa Shayboniylar davlati tarkibiga kiritildi. XVI asrda shaharda katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Chunonchi, Baroqxon, Ko'kaldosh madrasalari kabi me'moriy obidalar bunyod etildi. 1723-yilda Toshkentni ko'chmanchi jung'orlar egallab oldilar. Jung'orlarga qaramlik 1758-yilgacha davom etdi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkentda *to'rt hokimlik* vujudga keldi (Shayxontohur, Beshyog'och, Ko'kcha va Sebzor). 1784-yilda *to'rt hokimlik* tugatildi va yagona *Toshkent bekligi* tashkil etildi. 1810-yilda Olimxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligi tarkibiga qo'shib olindi.

Toshkent muhim xalqaro savdo yo'li chorrahasida joylashgani sababli hunarmandchilik yuksak darajada rivojlandi. Chorsu shahar hayotining markazi edi.



1. Xonlikda yer egaligi munosabatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Vaqf avlod tushunchasi nimani anglatgan?
3. Mardikor, chorikor, koranda tushunchalariga izoh bering.
4. Soliq turlarini qayd eting.
5. Rossiya–Qo'qon, Qo'qon–Qashqar savdo munosabatlarining rivojlanib borganligiga misollar keltiring.
6. Xonlikning Toshkent va Qo'qon shaharlarini bir-biri bilan taqqoslang va xulosalaringizni daftaringizga qayd eting.



2019-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida fuqarolar to'laydigan soliq tizimida qanday o'zgarishlar amalga oshirilganligini soliq to'lovchi ota-onangiz yordamida aniqlab keling.

37-§. Qo'qon xonligining tashqi siyosati

Qo'qon – Xitoy munosabatlari

Qo'qon xonligining Sin imperiyasi bilan munosabatlari juda og'ir kechdi. Bunga, bir tomondan, Xitoyning 1755–1759-yillar mobaynida Sharqiy Turkistonni o'ziga bo'ysundirishi, ikkinchidan, Qo'qon xonligini kuchsizlantirishga urinishi sabab bo'ldi.

Erdonabiy hukmronligi davrida Xitoy jung'orlarni tor-mor etib, qozoq juzlari yeriga hujum boshladi va Toshkent chegaralariga yaqinlashib keldi. Sharqda esa O'sh viloyatini (hozirgi Qirg'iziston Respublikasi hududida) bosib oldi. Andijon, Marg'ilon va Namangan beklklari esa Xitoyga vassalligini tan oldilar. Shunday sharoitda Erdonabiy Xitoy bilan Qo'qon xonligi uchun tahqirli shartnoma imzolashga majbur bo'ldi. Unga ko'ra, Qo'qon xonligi o'zining Xitoyga qaram ekanligini tan oldi. Xitoyga katta tovon to'ladi, imperatorga esa qimmatbaho sovg'a-salomlar jo'natdi.

Sharqiy Turkiston (Qashqar) – uyg'ur xalqining vatani. Uni Xitoy bosib olgach, Qashqar hukmdorlari Qo'qondan boshpana topgan edilar. Xitoy hukumati Umarxonga ularni Qashqarga o'tkazmaslik shartini qo'ydi. Madalixon davrida Qo'qon–Xitoy munosabatlari yanada keskinlashdi. Bunga Madalixonning Xitoyga umuman bo'ysunmaslikka qaror qilganligi hamda davlat chegarasini tobora Sharqiy Turkiston tomon kengaytirib borayotganligi, shuningdek, 1825-yilda Qashqar aholisining Xitoyga qarshi ozodlik kurashini qo'llab-quvvatlagani sabab bo'ldi. Xitoy hukumati bunga javoban 1829-yilda Qo'qonning Sharqiy Turkistonda yuritadigan savdo ishlarini taqiqladi. Qo'qonlik savdogarlarning aksariyat qismini haydab, mol-mulklarini musodara qildi.

Madalixon esa Sharqiy turkistonliklarning Xitoyga qarshi ozodlik kurashi rahbari Jahongirxo'ja va uning ukasi Yusufxo'ja ixtiyoriga yordam uchun qo'shin jo'natdi. Natijada, Yusufxo'ja Qashqarni egalladi va Yorkentni egallash uchun harbiy harakatni davom ettirdi. Bu esa Xitoy hukumatini qattiq tashvishga solib qo'ydi va Yusufxo'jaga qarshi katta qo'shin yubordi.

Qo'zg'olonchilarning safida mustahkam birlik yo'qligi hamda Buxoro–Qo'qon munosabatlari yomonlashuvi oqibatida Qo'qon xonining Sharqiy Turkistonga yuborgan qo'shinini chaqirib olishi tufayli Yusufxo'ja mag'lubiyatga uchradi. Oqibatda, Yusufxo'ja Sharqiy Turkistonni tashlab chiqdi. U bilan 70 ming uyg'ur oilasi Farg'ona vodiysiga ko'chib keldi. Keyinchalik ham Qo'qon xonligi o'z chegaralarini tobora Sharqiy Turkiston tomon kengaytirish siyosatini davom ettirdi. Ayni paytda, Xitoy moliyaviy qiyinchiliklar tufayli Qo'qon xonligiga qarshi ochiqdan ochiq urush harakatlari olib borishga qodir emas edi. Natijada, 1832-yilda Pekinda Xitoy–Qo'qon shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, Qo'qon Jahongirxo'ja avlodlarini Sharqiy Turkistonga o'tkazmaslik majburiyatini oldi. Bundan tashqari, Xitoy Sharqiy Turkistonda qo'qonlik savdogarlar faoliyatini taqiqlashni bekor qildi. Shuningdek, Qo'qon savdogarlariga Sharqiy Turkistonda boj to'lamasdan savdo qilish huquqi ham berildi. Sharqiy Turkistondan Qo'qon savdogarlari chiqarib yuborilganda ulardan tortib olingan mol-mulkulari evaziga Qo'qon xonligiga tovon to'landi. Va nihoyat, Sharqiy Turkistonda savdo qiluvchi o'rtaosiyolik savdogarlar to'laydigan bojlarni yig'ib olish huquqi Qo'qon xonligiga berildi.

Qo'qon–Buxoro munosabatlari

Buxoro amirligining Qo'qon xonligi hududi shayboniylar va ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi tarkibida bo'lganligiga urg'u berishi, avvalo, ikki davlat munosabatlarida dushmanlik kayfiyatining ustunlik qilishiga sabab bo'ldi.

Ikkinchidan, Buxoro amirligi o'zini uchta o'zbek davlati o'rtasida yetakchi deb hisoblardi va bu maqomning qolgan ikki o'zbek davlati tomonidan e'tirof etilishini istar edi.

Uchinchidan, Qo'qon xonligi o'z hududini Buxoro amirligi ko'zlagan yoki uning hokimiyatini tan olgan viloyatlar hisobiga ham kengaytirib bordi. O'zaro qurolli to'qnashuvlarda goh Buxoro amirligining, goh Qo'qon xonligining qo'li baland kelib turdi.

Umarxon davrida Buxoro amiri Haydar hatto butun musulmon olamining xalifasi deb e'tirof etilgan Usmonli davlati sultoni Mahmud II ga Xiva va Qo'qon xonliklari ustidan arz qilib xat ham jo'natgan. U xatida Movarounnahr, Qo'qon, Dashti Qipchoq, Marv, Balx, Ko'lob va Badaxshon avvaldan Buxoroga bo'ysunib kelganligini, Qo'qon va Xiva xonlari esa Buxoro amirligining oliy hokimiyatini tan

olmayotganligini qayd etgan. Biroq sulton Mahmud II Qo‘qon xonligining Buxoro amirligi oldida mustaqil davlat maqomini tan olganligi Umarxonga katta ma‘naviy quvvat bag‘ishladi.


Madalixon ham Usmonli sultonligiga elchi jo‘natgan. Sulton nomiga yozilgan xatda Madalixon sultonning „musulmonlar xalifasi“ maqomini tan olishini, Xitoyga qarshi muqaddas urush olib borganligini ma‘lum qildi. Ayni paytda, sultondan Qo‘qonga qurol-aslaha ustalarini yuborishni so‘radi. Ustalarining yuborilishi Buxoro–Qo‘qon munosabatlari tobora keskinlashayotgan bir davrda juda muhim edi. Biroq bu iltimos rad etildi.

Qo‘qon–Rossiya munosabatlari

Madalixon Sharqiy Turkistondagi musulmonlarni Xitoy tazyiqidan himoya qilishda Usmonli sultonidan zarur madad va qo‘shinni zamonaviy asosda qurollantirish uchun mutaxassislar yuborilishiga erisha olmagach, endi Rossiya bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga qaror qildi. Shu maqsadda 1831-yilda Rossiyaga elchi yubordi. Lekin elchilik muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Buning asosiy sababi har ikki davlatning ham O‘rta juz qozoqlari homiysi bo‘lishga da‘vogarligi edi. Shuning uchun ham Rossiya hukumati Qo‘qon elchilarini Orenburgdan nariga o‘tkazmaslik haqida ko‘rsatma berdi.

Tabiiyki, Madalixonning qurol-yarog‘ sotish va artilleriya zobitlari yuborish haqidagi iltimosi ham rad etildi. Nihoyat, oradan 10 yil o‘tgach, 1842-yilda Madalixondan keyin taxtga o‘tirgan ukasi sulton Mahmudxon Rossiyaga ikkinchi elchilar guruhini jo‘natdi. Chunki xonlikka Buyuk Britaniya xavf solishi ehtimoli aniq bo‘la boshlagan edi. Bu xavfga qarshi tura olish uchun Rossiyaning madadiga erishish juda muhim masala edi. O‘rta Osiyoda Rossiya–Buyuk Britaniya manfaatlari to‘qnash kelayotgan bir paytda Qo‘qon elchilari Rossiya imperatori Nikolay I tomonidan qabul qilindi. Ayni paytda, asosiy e‘tibor ikki davlat o‘rtasida savdo aloqalarini yanada rivojlantirish, shuningdek, Qo‘qon xonligiga tog‘-kon mutaxassislarini yuborish masalasiga ham qaratildi. Biroq 1842-yilning bahorida Buxoro amirligining Qo‘qon xonligiga hujumi elchilik natijalarini yo‘qqa chiqardi. Endi Rossiya Qo‘qon xonligining zaiflashib qolganligidan foydalanib qolishga qaror qildi.

Shuning uchun ham Qo‘qon xoni Xudoyorxonning Rossiya Qo‘qonga nisbatan yuritayotgan siyosati xususida bildirgan e‘tirozlari inobatga olinmadi.



Shunga qaramay, Xudoyorxon Qo‘qon chegarasida yangi istehkomlar qurilganligidan norozi bo‘lib Rossiyaga elchi yubordi. Xudoyorxon Nikolay I ga yo‘llagan maktubida Qo‘qon xonligida jamoat tartibi tiklanganligini, savdo yo‘llari yaxshi qo‘riqlanayotganligini, rus savdogarlari uchun hech qanday xavf-xatar yo‘qligini bildiradi. Ayni paytda, Raim istehkomi qurilganligidan norozi ekanligini ham ma‘lum qildi.

Nikolay I javob maktubida Qo‘qonda tartib o‘rnatilganligidan mamnun ekanligini, ikki davlat o‘rtasida yaxshi munosabatlarni saqlab qolinishini xohlashini bildirdi. Tashqi ishlar vaziri esa Raim istehkomi buzilmasligini ma‘lum qildi. U o‘z fikrini Raim istehkoming, avvalo, Rossiya hududida qurilganligi, ikkinchidan esa, bu istehkom u qurilgan hududda tartib va tinchlikni hamda savdo karvonlari xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qilayotganligi bilan asosladi. Biroq tez orada Qo‘qon qal‘asi bo‘lgan Oqmasjidni Rossiya bosib olishni mo‘ljallayotgani ma‘lum bo‘lgach, Rossiya–Qo‘qon munosabatlari yanada keskinlashdi. Endi ertami-kechmi, Rossiyaning Qo‘qon xonligiga qarshi bosqinchilik yurishi boshlashi muqarrarligiga shubha qolmadi.



- 1759-yil – Xitoy Sharqiy Turkistonni bo‘ysundirdi.
- 1825-yil – Madalixon Sharqiy Turkiston aholisining Xitoyga qarshi ozodlik kurashini qo‘llab-quvvatladi.
- 1832-yil – Pekinda Qo‘qon–Xitoy shartnomasi imzolandi.



1. Qo‘qon–Xitoy munosabatlarida saqlanib turgan keskinlikning sababini qayd eting.
2. Erdonabiy va Umarxon davrida Qo‘qon–Xitoy munosabatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Madalixon hukmronligi davrida Qo‘qon–Xitoy munosabatlarining keskinlashuviga nimalar sabab bo‘ldi?
4. 1832-yilda Pekinda imzolangan Xitoy–Qo‘qon shartnomasining mazmuni haqida so‘zlab bering.
5. Nega Qo‘qon–Buxoro munosabatlarida doimo keskinlik saqlanib turdi?
6. Qo‘qon–Rossiya munosabatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

38-§. Qo‘qon xonligida madaniy hayot

Umarxon va madaniy muhit

Xonlikning savdo va hunarmandchilik markazi bo‘lgan Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Namangan, Toshkent va boshqa shaharlari, ayni paytda madaniyat markazlari ham edi. Chunonchi, birgina Qo‘qon shahrida 120 ta maktabxona, 40 ta madrasa va masjid, Marg‘ilonda 80 ta maktabxona, 10 ta madrasa va masjid faoliyat ko‘rsatgan. Bu yerda XVIII–XIX asrning birinchi yarmida ilm-ma‘rifat sohasida mashhur ijodkorlar yetishib chiqdi. Qo‘qon xoni Umarxon esa ilm, madaniyat, adabiyot rivojiga, madrasalarda o‘qish-o‘qitish ishlarini yaxshilashga, turli kasb-hunar maktablarining ochilishiga e‘tibor berdi.



Umarxon va uning umr yo‘ldoshi, mashhur o‘zbek shoirasi Nodiraning sa‘y-harakatlari natijasida XIX asr boshlarida Qo‘qon ilm-ma‘rifat markaziga aylandi va bu yerda Qo‘qon adabiy muhiti shakllandi.

Umarxonning o‘zi „Amiriy“ taxallusi bilan ko‘plab she‘rlar yozdi. Uning atrofida 70 dan ortiq shoir to‘plandi. 1821-yilda Fazliy Namangoniy, Umarxon amriga binoan, 63 shoirning she‘rlarini o‘z ichiga olgan „*Majmu‘ayi shoiron*“ to‘plamini tuzdi. 10 ming misradan ortiq o‘zbek, fors-tojik tilidagi g‘azal, muxammas, tuyuq janrlaridagi she‘rlar to‘plangan devon yaratildi.

Arab va fors tillaridagi kitoblar o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Noyob kitoblar iste‘dodli xattotlar tomonidan ko‘chirildi va nozik tasvirlar bilan bezatildi.

Maxmur va Gulxaniy Amir Umarxon davridagi yirik shoirlardan biri Maxmur (asl ismi Mahmud) XVIII asr oxirida tug‘ilib, 1844-yili vafot etdi. Qo‘qondagi Madrasayi Mirza ta‘lim oldi. Keyin qo‘shinda sipohilik qildi. Maxmurning hajviy she‘rlari devoni saqlangan bo‘lib, unda 69 ta asar (3717 misra) jamlangan. U milliy adabiyotda ijtimoiy hajviyani yuksak pog‘onaga ko‘tardi. Hajviy asarlarida xalqqa jabr yetkazgan amaldorlarni keskin tanqid ostiga oldi. Xususan, „*Hapalak*“ she‘rida Hapalak qishlog‘idagi xalq hayotining ayanchli manzarasini aks ettirsa-da, aslida bu she‘r butun xonlik hududidagi xalq hayotining manzarasini ifodalardi. Mazkur she‘rda quyidagi satrlar bitilgan edi:

*Xalqini ko'rsang agar, o'lasi-yu, qoq-u xarob,
Ochligidan egilib, qomati misli kamalak.
Bori yo'q uylarini, banda, bayon gar qilsam,
Bir katak, ikki kapa, uch olachug, to'rt katalak.*

O'zbek mumtoz adabiyotining tanqidiy yo'nalishini rivojlantirgan Maxmur merosi keyingi davrdagi qalam ahlining hajvgo'ylik ijodiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Bu davr adabiyotining yana bir yirik namoyandasi Gulxaniy (Muhammad Sharif) edi. U 1770-yilda hozirgi Tojikistonning Tavildara tumanida tug'ilgan. Boshlang'ich ta'limni qishlog'ida oldi. Muhtojlik oqibatida Namanganga kelib mardikorlik qildi. Keyinchalik esa Qo'qonda istiqomat qildi. Bu yerda hammomda go'lax (o't yoquvchi) bo'lib ishladi. Shu boisdan „Gulxaniy“ taxallusi bilan ijod qilgan.

Gulxaniy birinchi bo'lib o'zbek adabiyotida poeziyaga *masalni* mustaqil janr sifatida kiritgan ijodkor. Gulxaniyning butun sharq adabiyotida mashhur hisoblangan asari „*Zarbulmasal*“dir.

Asardagi „*Maymun va Najjor*“, „*Tuya bilan Bo'taloq*“, „*Toshbaqa bilan Chayon*“ kabi masallari chuqur axloqiy-ta'limiy ahamiyatga ega. Asardagi Yapaloqqush va Boyo'g'li, Ko'rqush va Hudhud, Kulonkir Sulton va Malik Shohinlarning obrazlari orqali o'sha davr jamiyatidagi illatlarni, hukmron tabaqalarning xalqqa o'tkazgan jabrazulmlarini, xalqning og'ir turmush sharoitini haqqoniy tarzda katta badiiy mahorat bilan ochib berdi.

Uvaysiy Qo'qon adabiy muhitini Jahon otin (taxallusi Uvaysiy, 1779–1845) va Mohlaroyim (taxallusi Nodira) lar ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uvaysiy oilasi o'z davrining ilg'or va ma'rifatli oilalaridan edi. Otasi ham o'zbek, ham tojik tilida qalam tebratgan. Oiladagi muhit Uvaysiyda ijod qobiliyatini yuzaga chiqardi. Uvaysiy Navoiy, Lutfiy, Bobur, Fuzuliy va Jomiy ijodlarini qunt bilan o'rgandi.

Amir Umarxon Marg'ilon hokimi bo'lib turgan yillarda Uvaysiy el orasida tanilgan shoira edi. Undagi shoiralik iste'dodi Umarxonning xotini Nodirani o'ziga rom etdi. Umarxon Qo'qon taxtiga o'tirgach, Uvaysiy Qo'qonga taklif etildi va bu yerda u juda ko'p yoshlarga murabbiylik qildi. Nodira bilan ijodiy hamkorligi qaror topdi. Uning ijodi xalqparvarligi bilan ajralib turadi. Manbalarda ta'kidlanishicha,

Uvaysiydan to'rtta lirik devon va uchta doston meros bo'lib qolgan. Uvaysiy asarlarida insonni e'zozlash, do'stlik, vafo, sadoqat g'oyalari, el-yurt dardi, xalq hasrati kuylanadi.

Mohlaroyim – Nodira O'zbek shoirasi, ma'rifatparvar davlat arbobi Mohlaroyim – Nodira (1792–1842) Andijonda tug'ildi. Otasi Rahmonqulibiy Andijon hokimi bo'lib, Qo'qon xoni Olimxonning tog'asi edi. Umarxon Marg'ilonga hokim etib tayinlanganidan keyin Nodira bilan turmush qurdi. Nodira Uvaysiy bilan tanishgach, uni yosh qizlar va kanizaklarni o'qitish uchun muallimlikka taklif etdi. Nodira o'g'li Muhammad Alixon taxtga o'tirgach, davlatni idora etishda faol ishtirok etdi, madrasalar qurdirdi. Olimlar, xattot va naqqoshlarni Qo'qonga to'pladi, ko'p kitoblarni qayta ko'chirtirdi. Kitob muqovasining did bilan ishlanishiga e'tibor berdi. Yaxshi xattotlarga, naqqoshlarga tilla qalam, kumush qalamdon sovg'a qildi. Nodiraning o'zi ham o'zbek, ham tojik tillarida ijod qildi. Mohlaroyim Nodira taxallusida 180 she'r jamlangan devon, Komila taxallusida 19 g'azal, Maknuna taxallusida 333 g'azaldan iborat devon tuzdi. Nodiradan 10 ming misraga yaqin lirik adabiy meros qoldi. She'rlarida muhabbat, sadoqat, mehr-vafo, ayni paytda, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, oh-fig'onlari kuylanadi. Bundan tashqari, Nodira Navoiy, Fuzuliy va Bedil g'azallariga muxammaslar ham yozgan.

Boborahim Mashrab Qo'qon xonligida ijod qilgan iste'dodli shoirlardan yana biri Boborahim Mashrab edi (1640–1711). U Namanganda tug'ildi. 15 yoshidan boshlab tasavvuf ilmini egallay boshladi. 18 yil davomida dunyoning juda ko'p mam-lakatlarini kezib chiqdi.

O'z she'rlarida hukmron tabaqalarning mehnatkash xalqqa o'tkazgan jabr-zulmlarini, ochko'zligini, ba'zi soxta din peshvolarining, avom xalq ruhini do'zax va oxirat azoblari bilan dahshatga solayotganligini ayovsiz fosh etdi. Xalqning og'ir, ayanchli ahvoliga achindi. Mashrab bitgan quyidagi satrlar buning dalilidir:

*Dili tig'i sitamdin pora bo'lg'on xalqni ko'rdim,
Tani dard-u alamdan yora bo'lg'on xalqni ko'rdim.*

Mashrab g'animlarning ig'vosi bilan dinga shak keltirganlikda ayblanib, 1711-yilda o'lim jazosiga hukm etildi.

Tarixnavislik XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon xonligida ko‘plab tarixiy asarlar yaratildi. Mazkur davr tarixchilaridan Abdulkarim Fazliy Namangoniy 1822-yilda Umarxonning topshirig‘iga binoan, „*Umarnoma*“ asarini yozib tugatdi. U 5000 baytdan iborat tarixiy asardir.

Xon saroyida qozi askar lavozimida ishlagan Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy Amir Umarxonning maslahati bilan „*Shohnomayi nusratpayom*“ („G‘alabadan xabar beruvchi shohnoma“) tarixiy asarini yozdi.

Umarxon davrining ko‘zga ko‘ringan tarixchisi, Norbo‘tabiyning nabirasi Muhammad Hakimxon to‘ra ibn Ma‘sumxon to‘radan (1802–1870) „*Muntaxab ut-tavorix*“ („Saralangan tarixlar“) asari meros qoldi. Bu asar Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi tarixiga doir muhim manbalardan biri sanaladi. Unda O‘rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga doir qimmatli ma‘lumotlar mavjud.

Toshkentlik tarixchi olim Muhammad Solihning „*Tarixi jadidayi Toshkand*“ („Toshkentning yangi tarixi“) asari Vatanimiz tarixini o‘rganishda muhim manba sanaladi. U XV–XIX asrlar Turkiston tarixi, jumladan, Toshkent tarixi, Qo‘qon xonligi tarixi ilmiy nuqtayi nazaridan yozilgan qimmatli asardir.

Me‘morchilik Xonlikda me‘morchilik ham juda rivojlangan. Buxorodan bir guruh binokorlar taklif etilib, ko‘plab madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy, ko‘prik va muhtasham binolar bunyod etildi. Xalq orasida *Madrasayi Mir* nomi bilan mashhur bo‘lgan *Norbo‘tabiy madrasasi*, *Daxmayi Shohon ansambli* va *Norbo‘tabiy daxmasi* kabi hozirgacha saqlanib kelinayotgan me‘moriy obidalar shular jumlasidandir.

Norbo‘tabiy madrasasi XVIII asrning oxirida bunyod etilgan. U to‘g‘ri to‘rtburchakli, bir qavatli, hovlili va to‘rt minorali me‘moriy obida. Madrasada gumbazli masjid va panjaralar o‘rnatilgan 12 ta derazali darsxona ham mavjud. Hovlisi atrofida esa peshayvonli hujralar joylashgan. Daxmayi Shohon (shohlar maqbarasi) esa XIX asrning birinchi choragida qurilgan. Unda Norbo‘tabiy va uning avlodlari dafn etilgan. Daxmaga peshtoq orqali kirilgan. Daxmayi Shohonda xonning onasiga atab qurilgan *Modarixon maqbarasi* ham joylashgan. Xonlikda *Madalixon*, *Kamol qozi*, *Tunqator*, *Haqquli*



Xudoyorxon o'rdasi

mingboshi, Miyon hazrat, Mohlaroyim, Hakim To'ra, Xonxo'ja eshon, Buzrukxo'ja, Pirmuhammad yasovul, Xojabek, Oxund devonbegi, Mingoyim, Jome kabi madrasalar bunyod etildi.

Xudoyorxon davrida xon saroyi – Xudoyorxon o'rdasi bunyod etildi. Toshkentda esa Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari qayta ta'mirlandi. Shayx Xovandi, Tohur me'moriy majmuasi hozirgi ko'rinishda shakllantirildi. Zayniddin bobo uchun yangi maqbara qad ko'tardi.



1. „Qo‘qon adabiy muhiti“ deyilganda nima tushuniladi va u qanday vujudga keldi?
2. Umarxonning adabiyot sohasidagi ijodi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Maxmur va Gulxaniy ijodini taqqoslang: o‘xshash va farq qiluvchi jihatlarini aniqlang.
4. Uvaysiy va Nodira ijodida qanday o‘xshashliklar mavjud?
5. Xonlikda yaratilgan tarixiy asarlarning nomlarini daftaringizga tartib bilan yozing.



O‘zingiz „Qo‘qon xonligining madaniy hayoti“ jadvalini tuzing va uni to‘ldiring.

39- §. Qo‘qon xonligida ta‘lim

Maktabxonalar faoliyati va tartib-qoidalari haqida

Maktabxona ta‘limi boshlang‘ich ta‘lim edi. Maktablar ko‘pincha bitta sinfxonadan iborat bo‘lganligi uchun maktabxona deb atalgan. Xonlikda 350 ta maktabxona faoliyat ko‘rsatgan. Boshlang‘ich maktab bolalarga umumiy ma‘lumot beruvchi va xat-savod chiqarish maskani edi. Unda arab imlosida savod chiqarish, yozish va o‘qish ko‘nikmalari shakllantirilgan. Shuningdek, hisoblash qoidalari va ko‘nikmalari hosil qildirilgan. Tevarakatrof, jamiyat, islom dini haqida bilim va tushunchalar berilgan. Shuningdek, odob-axloq me‘yorlariga amal qilish o‘rgatilgan.

O‘g‘il bolalar maktabxonalarining aksariyati masjidlar, madrasalar, qorixonalar qoshida, shuningdek, xususiy maktabdor xonalarida ochilgan. Qiz bolalar maktabxonalari otin ayollar uylarida yoki badavlat kishilarning maktab yoshidagi qizlari uchun ularning uylarida tashkil etilgan.

Ana shu otinlardan biri Dilshodi Rahimqul so‘fi qizi (taxallusi Dilshod Otin, Barno, Dilshodi Barno) edi. XIX asrda Qo‘qonda ijod qilgan shoira. U, ayni paytda, maktabxona maktabdori bo‘lib ham faoliyat yuritgan. O‘zining maktabdorlik (otinlik) faoliyati haqida, jumladan, shunday deb yozgan edi: „*Mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqlli qizlar va iste‘dodli shoiralardir. 51 yil davomida men maktabdorlik (o‘qituvchilik) qildim va yiliga o‘rtacha 20 nafardan 30 nafargacha o‘quvchilarim bo‘lib, 890 nafar qizning savodini chiqardim. Bulardan deyarli to‘rtidan bir qismi she‘riyatga qobiliyatli bo‘lib, shoira va o‘z davrining aqlli hamda dono odamlari edilar.*“

Xususan, Anbar Otin uning iqtidorli o‘quvchilaridan bo‘lgan. Dilshod Otinning qalamiga mansub „*Muhojirlar tarixi*“, „*Inson matonati va muhojirlar tarixi*“ hamda „*Barnoning tanlangan she‘rlari*“ asarlari bizgacha yetib kelgan. Asarlarida xonlikdagi o‘zaro urushlar, uning xalq ommasi turmushiga ko‘rsatgan ayanhli ta‘siri kabi masalalar o‘z ifodasini topgan. Shoira, ayni paytda, yaxshi kunlar kelishiga ishonib asarlarining birida: „*Bu jabr-u zulmat albat muvaqqat*“, deb yozgan. Shuningdek, turkistonliklarni do‘st va inoq bo‘lib yashashga ham da‘vat etgan. Maktabxona maktabdorligiga (o‘qituvchiligiga) masjid mutasaddilari ishga taklif etishgan. Maktabdorga maktabdan uzrsiz ketib qolmaslik sharti qo‘yilgan. Maktabxonalarda

o'quvchilar soni 10–60 nafarni tashkil etgan. O'qishga 5 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilingan va o'qish 5–7 yil davom etgan. Kimning maktabxonada necha yil o'qishi o'qituvchining mahoratiga, o'quvchining zehriga va oilasidagi muhitga bog'liq edi.

Maktabxonalarda dars mashg'ulotlari quyosh chiqishidan to'kechgacha davom etgan. Juma va bayram kunlari dars mashg'ulotlari bo'lmagan. Yoz fasli va ramazon (ro'za) oyida o'quvchilarga ta'til berilgan.

Ta'limning mazmuni

Dars mashg'ulotlari avval kalimai shahodat va toyiba yod olinganidan so'ng arab alifbosini o'rganishdan boshlangan. Alifbe darslarida dastlab harflarning yozilishi mashq qilingan. So'ng harflarning turli o'rinlardagi shakllari o'rganilgan. Keyin esa zeru-zabar, ya'ni harflarning osti va ustiga qo'yiladigan farqlovchi belgilar va ularning qo'llanishi, shuningdek, ular yordamida bo'g'in tuzish qoidalari o'rgatilgan. Maktabdor (o'qituvchi) harflarni yog'ochga yoki qattiq lavhalarga yozib devorga osib qo'ygan. Unga qarab harflar yod olingan. Harflarni bir-biriga qo'shib yozish mashq qilingan. Duoyi salomni yoza olgan o'quvchi „xati chiqqan“ hisoblangan.

Alifbe o'rganilib bo'lingach, „Haftiyak“ (muqaddas Qur'oni Karimning 1/7 qismi ko'chirib yozilgan kitob)ni o'rganishga kirishilgan. „Haftiyak“ tugallangach, „Tavjud“ (Qur'oni Karimni qiroat bilan o'qish san'ati to'g'risidagi ilm)ga o'tilgan. Undan so'ng esa bevosita „Qur'oni Karim“ ning o'zini o'qitish boshlangan.

Shundan so'ng „Farzi ayn“, ya'ni shariatga ko'ra barcha musulmonlarga buyurilgan va bajarilishi shart bo'lgan amallar haqida tushunchalar berilgan. U o'rganilib bo'lingach, islom dinining asosiy qoidalari bayon etilgan „Chor kitob“ („To'rt kitob“)ni o'rganishga kirishilgan. Undan keyin kattaqo'rg'onlik So'fi Olloyorning „*Sabot ul-ojizin*“ („Ojizlar saboti“) kitobi o'qitilgan. Mazkur asarda islom dinining asosiy qoidalaridan tashqari, go'zal insoniy fazilatlar, axloqiy tarbiyaga oid hikmatlar, ibratli hikoyalar, she'r va dostonlar o'rin olgan.

„Sabot ul-ojizin“dan so'ng shu asarning fors tilida yozilgan va „Maslak ul-muttaqin“ („Taqvodorlar maslagi“) deb atalgan asl nusxasi o'rganilgan. „Sabot ul-ojizin“ „Maslak ul-muttaqin“ning turkiy tilda qisqartirib yozilgan nusxasi bo'lib 12 ming baytdan tuzilgan ilohiy ma'rifatning she'riy talqinidir.

So'fi Olloyor asari o'rganib bo'lingach, Sharq olamida mashhur bo'lgan, XIII asrda yashab o'tgan Sa'diy Sheroziyning „Bo'ston“ va „Guliston“ asarlari o'rganilgan.

Sa'diy asarlari boshqa Sharq shoirlaridan hayratlanarli darajada hayotiyliigi bilan alohida ajralib turadi. „Bo'ston“ va „Guliston“ hayotiy hikoyalardan tashkil topgani, donishmand shoirning bu hikoyatlar so'ngida qissadan hissa tarzida keltirgan she'rlari kundalik turmushdan chiqarilgan xulosalar ekanligi bilan jahon ilm-u adab ahlini birday o'ziga tortib kelmoqda.

BMTning Tinchlik Kengashi binosi peshtoqiga „Guliston“ asaridan olingan quyidagi misralar bitilgan: „*Odam bolalari ibtidoda bir gavhardan bino bo'lganligi tufayli yaxlit bir vujud kabi dirlar. Bino-barin, zamon uning bir a'zosiga jarohat yetkazsa, boshqa a'zolari ham o'z tinchini yo'qotadi*“.

Keyingi bosqichda Xo'ja Hofiz Sheroziyning (1326–1389) „Devon“ini o'rganish boshlangan. Mazkur „Devon“ lirik she'rlar to'plami bo'lib, o'quvchilarning axloqiy tarbiyasida asosiy qo'llanma sanalgan. Maktabxonalarda arab grammatikasi, Alisher Navoiyning she'riy to'plamlari hamda husnixat, hisob-kitob (arifmetika) ham o'qitilgan.

Madrasa ta'limi Qo'qon xonligida madrasalar ham faoliyat ko'rsatgan. Xususan, 1841-yilda Qo'qon shahri madrasalarida 1000 nafar mulla ta'lim olgan. Ularning faoliyatiga mutavakkillar boshchilik qilishgan. Madrasalarga o'quvchilar 13–15 yoshidan boshlab qabul qilingan. O'qish muddati esa 15–20 yil davom etgan.

Madrasalarda kalom (islom diniy ta'limotini asoslab beruvchi ilm), qiroat, hadis (Muhammad s.a.v.ning aytgan so'zlari, qilgan ishlari va ko'rsatmalari), fiqh (islom huquqshunosligi) ilmlari, shuningdek, arab grammatikasi, mantiq, notiqlik, xattotlik, tijorat ilmlaridan ham saboq berilgan.

Bundan tashqari, tarix, adabiyot, geografiya, matematika fanlari o'qitilgan. Maktabxonada o'qitilgan darsliklar materiallari madrasada yanada chuqurroq o'rganilgan. Ta'limning madrasa bosqichida, shuningdek, „Kalila va Dimna“ hamda „Qobusnoma“ asarlari ham o'qitilgan.



1. Qo'qon xonligida maktabxona faoliyati qanday tashkil etilgan?
2. Maktabxonalarda arab alifbosi qanday tartibda o'rgatilgan?

3. „Qur’oni Karim“ni o’rganish qanday bosqichlardan tashkil topgan?
4. Maktabxonalarda So’fi Olloyorning asarlari asosiy darsliklardan biri etib belgilanganligi nimalarni anglatadi?
5. Nega Sa’diy Sheroziyning darslik o’rnida foydalanilgan „Bo’ston“ va „Guliston“ asarlarining mazmuni hali-hamon o’z ahamiyatini yo’qotmay kelmoqda?
6. Xonlikdagi madrasa ta’limi haqida nimalarni bilib oldingiz?

40-§. O‘zbek davlatlarining taraqqiyotda orqada qolish sabablari va oqibatlari

Jahon taraqqiyotidagi o‘zgarishlar

G’arbiy Yevropaning ilg’or mamlakatlarida sanoat ishlab chiqarishning yetakchi tarmog’iga aylanib bordi. XVI asrning o’rtalaridan boshlab to’qimachilik, qog’oz, shisha ishlab chiqarishda mehnat taqsimoti va qo’l hunari texnikasiga asoslangan korxonalar – manufakturalar (lotincha manus – qo’l, faktura – tayyorlash)lar vujudga keldi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida asbob-uskunalarini harakatga keltiruvchi bug’ mashinasi (motor) ixtiro qilindi. Natijada, asosiy ishlarni mashinalar bajaruvchi fabrika-zavodlar vujudga keldi.

Bug’ mashinasi bilan harakatlanuvchi parovoz, paroxod, cho’yan va po’lat oluvchi domna pechlar yaratildi, temiryo’llar qurildi.

Yirik boy tabaqalarning tashqi savdodan, mustamlakalardan, manufakturalardan orttirgan boyliklari sanoatni rivojlantirish uchun sarmoya sifatida qo’yildi. Bu sanoatning rivojlanishida muhim omil bo’ldi. Eng muhimi, xo’jalik yuritish uchun zarur bo’lgan mashinalarni ishlab chiqarish yo’lga qo’yildi, og’ir sanoat vujudga keldi.

Biroq bu jarayon jahon mamlakatlarida nihoyatda notekis bordi. Ko’pgina mamlakatlar, jumladan, o’zbek xonliklari ham bu jarayondan chetda qolib, taraqqiyotda orqada qolib bordi.

O’zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov xonliklar davri tarixiga yangicha nazar tashlar ekan, quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

„Nega jahonga Ahmad Farg’oniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom al-Buxoriy, Amir Temur, Ulug’bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan bu millat XVII–XIX

asrlarga kelib to shu chog'gacha erishgan yuksalish darajalaridan tushib ketdi? Nega so'nggi uch asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi?"

Qoloqlik sabablari Asrlar davomida bir butun bo'lib kelgan mamlakatning, bir iqtisodiy va ma'naviy-madaniy makonda yashab kelgan o'zbek xalqining uch davlatga bo'linib ketishi, ular o'rtasida davom etgan qarama-qarshiliklar, urushlar mamlakatni umumbashariy taraqqiyot jarayonidan uzilib, rivojlanishda orqada qolishga mahkum etdi. Har bir o'zbek davlatida markaziy hokimiyatni egallash uchun ichki kurash, o'zaro nizo-janjal, ig'volarning doimiy tus olishi mamlakatni xonavayron qilardi.

Xonliklarning asrlar davomida o'zgarmay kelayotgan davlat boshqaruv usuli taraqqiyotga g'ov bo'lib qolgan edi.

Xonliklar o'rtasidagi o'zaro urushlar, etnik nizolar urug'-qabila jamoalarini bir joydan boshqa joylarga ko'chishini keltirib chiqarardi. Yoki ular zo'rlik bilan yashab turgan joylaridan ko'chirilar edi. Bu jarayon etnik guruhbozlikni keltirib chiqarardi. Aholini bir butun xalq bo'lib jipslashishiga xalaqit berardi. Davlat darajasida yagona xalq, yagona Vatan tushunchasining qadri anglab olinmadi. Turkistonni, xalqni birlashtirish g'oyasi ostida uyushtira oladigan yo'l boshchi, siyosiy kuch topilmadi.

Hukmdorlar va saroy amaldorlari eski ishlab chiqarish usulini himoya qiladilar. Xonliklarning asosiy boyligi bo'lgan yerga egalik qilishning, mulkchilikning eski usuli asrlar davomida o'zgarmadi. Yerning egasi hukmdor alohida xizmat ko'rsatgan kishilarga bir hovuch yer hadya qilardi. Yerni ijaraga olib ishlovchi dehqon yerning egasi emas edi. Shu boisdan dehqon yerni asrab-avaylashga, uning unumdorligini oshirishga intilmadi, chunki u bundan manfaatdor emasdi. Ayni paytda, dehqon yer egasi bo'lmagani sababli boshqa joylarga ketaverardi.

Aholi og'ir soliqlardan, tinkani qurituvchi yig'im va majburiyatlardan azob chekardi. Turmush darajasi past bo'lib, aholi iste'mol uchun eng zarur bo'lgan tor doiradagi oddiy buyum va mahsulotlar bilan qanoatlanishga majbur edi. Ishlab chiqarish, asosan, iste'molga yo'naltirilganligi uchun u iqtisodiyotning o'sishi uchun turtki bo'lolmadi.

Dehqonchilik nochor ahvolda qoldi. Yerga ishlov berish o'sha-o'sha – bir juft ho'kiz, so'qa-omoch darajasida qolib ketdi. Sanoat ishlab chiqarishi rivojlantirilmadi. Rangli metallar, oltingugurt, marmar, toshko'mir, neft kabi tabiiy boyliklarga ega bo'lgan konlar bo'lsa-da, ularni izlab topish, tog'-kon ishlarini yo'lga qo'yishga e'tiborsizlik qilindi. O'lkada yirik daryolar bo'lsa-da, baliqchilikni sanoat darajasiga ko'tarish, kemasozlikni yo'lga qo'yishga e'tibor berilmadi. Oqibatda tovar-pul munosabatlari rivojlanmadi. O'rta Osiyo jahon bozoridan ajralib qolgani yetmaganidek, o'zaro nizolar tufayli o'zbek davlatlari o'rtasida yagona ichki bozor ham tashkil topmadi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganidek, „Yurt hukmdorlari va amaldorlari xalqning taqdiri va kelajagi haqida qayg'urish o'rniga, o'z shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yib, jaholat va g'aflatga berilib ketishi oqibatida biz bugun yashayotgan mintaqa umumbashariy taraqqiyot jarayonlaridan uzilib, rivojlanishdan keskin orqada qolib ketdi“.

Qoloqlikning oqibatlari O'zbek davlatlarining jahon taraqqiyotidan orqada qolishi o'ta salbiy oqibatlarga olib keldi. Iqtisodiy qoloqlik va harbiy nochorlik, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik O'rta Osiyoni o'z tasarrufiga kiritib olishga intilayotgan davlatlarga qo'l keldi.

Abdulla Qodiriy o'zining „O'tkan kunlar“ romanida Yusufbek hoji tilidan quyidagi alamli so'zlarni bayon qilgan edi:

„Ittifoqning nima ekanligini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati, shaxsiyati yo'lida bir-birini yeb-ichgan mansabparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmasdan turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi... Biz shu holatda ketadigan, bir-birimizning tagimizga suv quyadigan bo'lsak, yaqindirki, podsho istibdodi Turkistonimizni egallar“.

Haqiqatan ham shunday bo'ldi. O'zbek davlatlaridagi o'zaro nizo va urushlar, parokandalik, oxir-oqibat, ularning Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilishi uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Yurtimizning o'zgalarga qaramligi 1991-yil 31-avgustgacha davom etdi. O'tmish xotiralaridan zarur xulosalarni chiqargan yurt rahbarlari O'zbekistonni rivojlantirish, mustaqilligini mustahkamlashning va jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rniga ega bo'lishiga xizmat qiluvchi rejalarni hayotga muvaffaqiyatli tadbir etadi.

Bugungi kunda esa muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahbarligida xalqimiz 2035-yilga borib jahonning eng rivojlangan 50 ta davlati qatoridan joy olishdek ulug'vor maqsadni ro'yobga chiqarish yo'lida buyuk bunyodkorlik ishlarini amalga oshirmoqda. Siz ham hademay bu ulkan bunyodkorlik ishiga o'zingizning munosib hissangizni qo'shishingizga hech shubha yo'q.



1. Nima sababdan o'zbek davlatlari jahon taraqqiyotidan orqada qolib ketganligining sabablarini daftaringizda tartib bilan aks ettiring.
2. Bugungi O'zbekiston o'z oldiga qisqa muddatlarda (2035-yilda) jahonning eng rivojlangan 50 ta davlati qatoridan joy olishdek ulug'vor maqsadni qo'ygan. Bu maqsadni ro'yobga chiqarish borasida tumaningizda va mahallangizda qanday bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotganligi haqida axborot tayyorlab keling.

Yakuniy dars (mustaqil ishlash)

Darslik matnidan foydalangan holda quyidagi jadvallarni to'ldiring.

1-jadval

Buxoro xonligi

Buxoro xonligi qachon tashkil topgan?	Shayboniylar hukmronlik qilgan yillar	Ashtarxoniy-lar hukmronlik qilgan yillar	Mang'itlar hukmronlik qilgan yillar	Amirlikning yer maydoni, aholisi
1	2	3	4	5

Amirlikdagi yuqori davlat mansablari	Yer egaligi shakllari	Aholiga solingan asosiy soliqlar	Aholi o'tashi kerak bo'lgan asosiy majburiyatlar	Amirlikda ichki savdo rivojlanmaganligining sabablari
6	7	8	9	10

2-jadval

Xiva xonligi

Xiva xonligi tashkil topgan yil	Xonlikning asoschisi	Abulg'ozixon hukmronlik qilgan yillar va u bitgan tarixiy asarlar	Qo'ng'irotlar sulo-lasining hokimiyat tepasiga kelishi	Xonlik aholisining umumiy soni	Aholining milliy tarkibi
1	2	3	4	5	6

Xonlikda Bosh vazir qanday nom bilan atalgan?	Muhammad Rahimxon o'tkazgan islohotlar	Aholiga solingan asosiy soliqlar	Aholi o'tashi kerak bo'lgan asosiy majburiyatlar	Ichan qal'a – nodir tarixiy yodgorlik	Xiva xonligi tarixida yuz bergan eng muhim tarixiy voqealar
7	8	9	10	11	12

3-jadval

Qo'qon xonligi

Xonlik tashkil topgan sana	Xonlikning asoschisi	Olimxonning xonlik tarixidagi o'рни	Xonlik aholisining umumiy soni	Aholiga solingan asosiy soliqlar	„Oltin beshik“ rivoyatining mazmuni
1	2	3	4	5	6

Xonlikda Bosh vazir qanday nom bilan atalgan?	Qo'qon xonligi tarixida yuz bergan eng muhim tarixiy voqealar	Umarxon va Qo'qon adabiy muhiti	Yer egaligi shakllari, soliqlar va majburiyatlar	Buxoro – Qo'qon munosabatlari	Qanday sababga ko'ra qipchoqlar xonlik siyosiy hayotida katta mavqega ega bo'lib olgan edilar?
7	8	9	10	11	12

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I BOB. XV ASRNING OXIRI – XVI ASRNING BOSHLARIDA MOVAROUNNAHR VA XUROSONDAGI SIYOSIY VAZIYAT

1-§. Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat	5
2-§. Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat	8
3-§. Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shayboniyxon munosabatlari	11
4-§. Movarounnahr va Xurosonda shayboniylar hukmronligining o'rnatilishi	13

II BOB. BUXORO XONLIGI VA BUXORO AMIRLIGI

5-§. Buxoro xonligining tashkil topishi	17
6-§. Abdullaxon II davrida Buxoro xonligining yuksalishi	19
7-§. Buxoro xonligida ashtarxoniyalar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi	21
8-§. Buxoro xonligida markaziy hokimiyatning zaiflashuvi	25
9-§. Buxoro xonligida davlat boshqaruvi	28
10-§. Buxoro xonligida harbiy ish	31
11-§. Buxoro xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot	34
12-§. Buxoro xonligining tashqi siyosati	38
13-§. Buxoro xonligida madaniy hayot	43
14-§. Buxoro amirligining tashkil topishi	50
15-§. Amirlikda markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi	55
16-§. Buxoro amirligida davlat boshqaruvi	57
17-§. Buxoro amirligida harbiy ish	61
18-§. Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot	65
19-§. Amirlik shaharlari. Ichki va tashqi savdo	68
20-§. Buxoro amirligining tashqi siyosati	71
21-§. Buxoro amirligida madaniy hayot	75

III BOB. XIVA XONLIGI

22- §. Xiva xonligining tashkil topishi	80
23- §. XVII–XVIII asrning birinchi yarmida xonlikdagi siyosiy ahvol	82
24- §. Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida xonlikning siyosiy ahvoli	86
25- §. Xiva xonligida davlat boshqaruvi	90
26- §. Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Shaharlar hayoti	94
27- §. Xiva xonligining tashqi siyosati	99
28- §. Xiva xonligida madaniy hayot	103
29- §. Xiva xonligi tarixi bo'yicha manbalar	106
30- §. XVI–XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar	110
31- §. Qoraqalpoqlarda madaniy va ma'naviy hayot	113

IV BOB. XVIII–XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA QO'QON XONLIGI

32- §. Qo'qon xonligining tashkil topishi	118
33- §. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligida siyosiy ahvol	120
34- §. Qo'qon xonligida davlat boshqaruvi	126
35- §. Qo'qon xonligida harbiy ish	129
36- §. Qo'qon xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot	133
37- §. Qo'qon xonligining tashqi siyosati	137
38- §. Qo'qon xonligida madaniy hayot	142
39- §. Qo'qon xonligida ta'lim	147
40- §. O'zbek davlatlarining taraqqiyotda orqada qolish sabablari va oqibatlari	150
Yakuniy dars (mustaqil ishlash)	153

63.3(50')
U 73

Jo'rayev U. va boshqalar.
O'zbekiston tarixi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik / U.Jo'rayev va boshq. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 4-nashri. – Toshkent: „O'qituvchi“ NMIU, 2019. – 160 b.

ISBN 978-9943-22-371-4

UO'K: 94(575.1)(075.3)

KBK 63.3(50')

**USMON JO'RAYEV, QAMAR USMONOV,
GULIRA'NO JO'RAYEVA, NAIM NORQULOVI**

O'ZBEKISTON TARIXI

8-sinf uchun darslik

Qayta ishlangan va to'ldirilgan 4-nashri

„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2019

Muharrir *J.Yaxshiboyev*

Badiiy muharrir *Q.Shomuratov*

Texnik muharrir *N.Niyazmuhamedova*

Musahhihlar: *E.Najimova, Sh.Jahonov*

Kompyuterda sahifalovchi *O'.Qurbonova*

Nashriyot litsenzyasi AI №012. 20.07.2018. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 17.06.2019. Bichimi 70x90^{1/16}. Kegli 11, 12 shponli. „Tayms“ garniturası. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozı. Shartli b.t. 11,70. Hisob-nashriyot t. 11,0. Adadi 506584 nusxa.
Buyurtma №

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent–206, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 1-uy. Shartnoma № 244-18.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.